

MUTAXASSISLIKKA KIRISH



Gulchehra Izbullayeva

MUTAXASSISLIKKA KIRISH

1-QISM

Darslik

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

Gulchehra Izbullayeva

MUTAXASSISLIKKA KIRISH

1-qism

DARSLIK

BUXORO – 2023
«DURDONA» nashriyoti

74.58ya7

378.011.3-051(075)

I – 27

Gulchehra Izbullayeva

Mutaxassislikka kirish 1-qism [Matn] : darslik / Gulchehra Izbullayeva – Buxoro: Sadridin Salim Buxoriy, 2023.-240 b.

UO'K 378.011.3-051(075)

KBK 74.58ya7

Darslik «Mutaxassislikka kirish» fanini bo'lajak o'qituvchi, tarbiyachilarni tayyorlash, O'zbekiston ta'lim tizimi, ta'lim muassasalarini tashkil etilishining huquqiy, me'yoriy va uslubiy asoslari, auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv faoliyati, kasbiy faoliyatining asosiy vazifalari, pedagoglarga qo'yiladigan talablar va ta'lim sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish bilan tanishtirishdan iborat.

Oliy ta'lim davlat standarti asosida fanning namunaviy o'quv dasturiga mos ravishda 60110100 – Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishiga mo'ljallangan mazkur darslikdan oliy o'quv yurtlari talabalari va professor-o'qituvchilari hamda pedagogika sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarni olib boruvchilar foydalanishlari mumkin.

TAQRIZCHILAR:

B.R.Adizov

– p.f.d., professor

A.N.Nusratov

– p.f.f.d. (PhD), dotsent

*O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
2023-yil 27-martdagi "68"-sonli buyrug'iga asosan darslik sifatida tavsiya etilgan.
Ro'yxatga olish raqami 68 – 629*

ISBN 978-9910-9799-4-0

© Gulchehra Izbullayeva

MUNDARIJA

1-MAVZU. «MUTAXASSISLIKKA KIRISH» FANINING MAZMUNI VA MOHIYATI.....	4
2-MAVZU. TA'LIM TIZIMI VA OLIY TA'LIM MUASSASASI HAQIDA MA'LUMOT	17
3-MAVZU. «PEDAGOGIKA» TA'LIM YO'NALISHI BO'YICHA MUTAXASSIS TAYYORLASH MAZMUNI.....	31
4-MAVZU. «PEDAGOGIKA» TA'LIM YO'NALISHI TASNIFI.....	45
5-MAVZU. MUTAXASSISLIK FANLARINING QISQACHA MAZMUNI	55
6-MAVZU. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISH.....	66
7-MAVZU. TALABALARNING AUDITORIYA VA AUDITORIYADAN TASHQARI FAOLIYATINI TASHKIL QILISH.....	83
8-MAVZU. TALABALARDA KICHIK GURUHLARDA ISHLASH KO'NIKMASINI TAKOMILLASHTIRISH.....	100
9-MAVZU. TALABALAR MUSTAQIL ISHINI TASHKIL ETISH VA NAZORAT QILISH.....	109
10-MAVZU. TALABALARNI MALAKAVIY VA PEDAGOGIK AMALIYOTGA TAYYORLASH.....	133
11-MAVZU. TALABALARNING OLIY TA'LIMDA KOMPLEKS FAOLIYATI VA HUQUQLARI.....	153
12-MAVZU. TALABALARNING IJODIY FAOLIYATI.....	165
13-MAVZU. TALABALARNING O'QUV VA ILMIY-TADQIQOT ISHLARI	181
14-MAVZU. TALABALARNING MA'NAVIY-MA'RIFIY ISHLARI	198
15-MAVZU. PEDAGOGNING KASBIY FAOLIYATI.....	207
IZOHLI LUG'AT.....	221

1-MAVZU. «MUTAXASSISLIKKA KIRISH» FANINING MAZMUNI VA MOHIYATI

Tayanch tushunchalar: fanning maqsadi, vazifalari, obyekt va predmeti, fanning boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi va dolzarbligi, mutaxassislarni tayyorlashdagi o'rni.

«Mutaxassislikka kirish» fanining maqsadi, vazifalari, fanning obyekt va predmeti. Ijtimoiy hayotda narsa va hodisalar ishtirokidagi jarayonlarning yaratuvchisi, boshqaruvchisi sifatida *mutaxassis* so'zi ishlatiladi. Mutaxassisni tayyorlash mutaxassisliklar asosida bevosita oliy ta'lim muassasalari (keyingi o'rinda «OTM»)da amalga oshiriladi. *Mutaxassislik* – o'quv rejaga muvofiq o'quv dasturini o'zlashtirgandan keyin talabaga beriladigan oliy ta'lim darajasi, undan so'ng mutaxassisning malakasi (darajasi)dir. Bugungi kunga kelib Boloniya jarayonida ishtirok etish qoidalari bilan bog'liq holda, yagona Yevropa oliy ta'limi dasturida ishtirok etuvchi mamlakatlar universitetlariga abituriyentlar uchun «mutaxassis» malaka darajasi o'rniga oliy ta'limning ilmiy darajalari – bakalavr, magistr ishlatiladi.

Muayyan mutaxassisliklarning (masalan, shifokor, farmatsevt, kimyogar, xoreograf va boshqalar) o'z nomi mavjud. Jamiyatda «mutaxassis» so'zi bilan birgalikda usta so'zidan ham foydalaniladi. Usta kasb-hunar egasi hisoblanib, malakali mutaxassis sifatida: pichoqchi usta, miskar usta, kashtado'z usta va hokazolar ishlatiladi. Ta'lim jarayonida ham kasb-hunar, ilm va shu kabilarni o'rgatuvchi shaxs «usta» deb yuritiladi. Mutaxassis – biror sohada maxsus bilim va tajribaga ega bo'lgan kishi, ixtisos egasi. Masalan: fiziologiya mutaxassisi, qishloq xo'jaligi mutaxassislari, yosh mutaxassislari.

Mutaxassislik ilm-fan, texnika, sanoat sohalardagi mustaqil kasblardir. Mutaxassis – bu mohir tashkilotchi, mehnatni ilmiy asosda tashkil qilish masalasini amalga oshira oladigan xodim

hisoblanadi. U odamlar bilan ishlaydi, jamiyatni boshqaradi, jamoa tajribasiga tayanib ish ko'radi, o'z o'rtoqlarining maslahatiga quloq soladi, qo'lga kiritilgan yutuqlarga tanqidiy yondashadi. Bunday kishi yuqori madaniyatli, keng mulohazali, tadbirkor, o'z ishining ustasi, jamiyatning haqiqiy ziyolisidir.

Oliy ta'limda talabalar 1-bosqichdan boshlab muayyan mutaxassislikni egallashlari uchun dastlab «Mutaxassislikka kirish» fani bilan tanishadilar. «Mutaxassislikka kirish» fanining maqsadi talabalarda ishlab chiqarish va mehnat faoliyatiga ko'nikma hosil qilishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad talabalarni Oliy maktab hayotiga moslashtirish, uning sharoitini o'zlashtirib olishda ko'maklashish bo'lib, natijada fanlarni yaxshi o'zlashtirishlarida yordam berish, ta'lim yo'nalishiga tegishli fanlarni o'zlashtirishga yuzaga keladigan muammolarning oldini olishdan iboratdir.

«Mutaxassislikka kirish» fanining **obyekti** asosan ta'lim va tarbiya jarayoni, **predmeti** esa tashkil qilinayotgan ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotidir.

Mutaxassislikka kirish fanini o'qitishdan maqsad – bo'lajak o'qituvchi, tarbiyachilarni tayyorlash, O'zbekiston ta'lim tizimi, ta'lim muassasalarini tashkil etilishining huquqiy, me'yoriy va uslubiy asoslari, auditoriya va auditoriyadan tashqari o'quv faoliyati, kasbiy faoliyatining asosiy vazifalari, pedagoglarga qo'yiladigan talablar va ta'lim sohasidagi ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish bilan tanishtirishdan iborat.

Mutaxassislikka kirish fanining vazifasi – ta'limning rivojlanish tizimini, ta'limni tashkil etish va boshqarishning huquqiy-me'yoriy asoslarini, mutaxassislikka kirish fanida pedagogning kasbiy faoliyati va unga qo'yiladigan talablar; ta'lim muassasalarini boshqarish, kasbiy faoliyat vazifalari, ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etilishi, ta'limga oid ilmiy – tadqiqot ishlari bilan tanishtirish, ta'lim muassasasining o'rni va ahamiyatini ochib berishdan iborat.

Mutaxassislikka kirish fani birinchi kurs talabalariga o'quv yurtlarining qisqacha tarixiy taraqqiyoti, ularning tuzilishi va vazifalari, o'quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, o'qitish jarayonining asosiy shakllari, o'quv rejasining mazmuni, ilmiy-tekshirish ishlari, o'quv va ilmiy ishlarni bajarishda texnik vositalardan foydalanish, talabalarni huquq va burchlari, talaba trayektoriyasi va mustaqil ishlashni to'g'ri tashkil etish, kitob bilan ishlash, bibliografiya texnikasi kabilar bilan tanishtiradi. Ushbu kursda o'quv materiallarning o'zlashtirilishi uchun nimalar qilinishi lozimligi, o'zlashtirishni hisobga olish, talabalarni nazoratlarga tayyorlash hamda ularni o'tkazishni tashkil etish, talabalar o'quv tadqiqot va ilmiy tekshirish ishlarining asosiy mazmuni, ularning turmushi, madaniyati va dam olishini tashkil etish, o'quv mehnati va turmush nafosati singari sohalarga ham alohida o'rin ajratiladi.

«Mutaxassislikka kirish» fanining boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorligi. «Mutaxassislikka kirish» fanining xususiyatlari shundan iboratki (uni qo'llash haqida gap ketganda), u tizimli, analitik, daliliy, ixtisoslashgan, umumlashtiruvchi, uslubiy, jamlovchi, vaqtinchalik, tekshiriladigan va ochiqdir.

Aslida fan – nazariy dalillar haqida bilimlarni amalga oshirish va hosil qilish uchun ilmiy va mantiqiy mezonlarga ega bo'lgan usul. Ilmiy sohada *rasmiy, tabiatshunoslik, ijtimoiy* fanlar mavjud. Ijtimoiy fanlar tarkibiga: pedagogika, psixologiya, jamiyatshunoslik (sotsiologiya), tarix va iqtisodiyot kiradi.

«Mutaxassislikka kirish» fani ijtimoiy fanlar tarkibidagi barcha fanlar bilan aloqadorlikda faoliyat yuritadi. Jumladan, pedagogika tarbiya, ta'lim hamda ma'lumot berishning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganuvchi fanlar majmuasi. Psixologiya insondagi aqliy va ruhiy jarayonlar, holatlar, hodisalar, xislatlarni o'rganadi, hissiyot va g'oyalarning kelib chiqishi hamda oqibatlarini tahlil qilib, sezgilar va idrok obrazlari, tafakkur va

hissiyot, faoliyat va muomala kabi psixologik jarayonlar va kategoriyalarni tadqiq qiladi. Jamiyatshunoslik (Sotsiologiya) insoniyat jamoalari o'rtasida va ichida o'rnatilgan munosabatlar, shuningdek, din, san'at, jins, adolat va boshqalar kabi jamoaviy hodisalarni tahlil qilish, o'rganishni nazarga tutadi. Tarix ham ijtimoiy fan sifatida (garchi u ba'zida turli xil tabiiy fanlar bilan bog'liq bo'lsada) o'tmishdagi voqealarni o'rganishga, insoniyat paydo bo'lganidan boshlab boshdan kechirgan eng muhim hodisalarning oqibatlarini izlash, tartibga solish va tushunishga e'tibor qaratadi. Iqtisodiyot jamiyatdagi harakatlantiruvchi hamda tartibga soluvchi ijtimoiy fan bo'lib, moddiy ne'matlar va xizmatlarni almashish, taqsimlash va iste'mol qilishni o'rganadi.

«Mutaxassislikka kirish» fanining dolzarbligi, mutaxassislar tayyorlashdagi o'rni. Ta'lim va tarbiya «Mutaxassislikka kirish» fanining asosiy tushunchalari hisoblanadi. **Ta'lim** – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi sanaladi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tushunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bildiradi.

Ta'limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlar, umumiy ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida ta'limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllarini o'zgartirib boradi.

Ta'lim mohiyati – e'tibori bilan dars berish jarayonini, ya'ni pedagog (o'qituvchi) faoliyatni, umuman o'quvchining bilish, o'rganish faoliyatiga rahbarlik qilishni hamda o'quv jarayonini, ya'ni o'quvchi faoliyatini bildiradi. Ta'lim jarayoni ta'lim

beruvchi – o‘qituvchi va ta’lim olayotgan o‘quvchilar faoliyatining yig‘indisidan iborat. Ta’lim va tarbiya jarayonida shaxsning sifatlari, dunyoqarashi, qobiliyati o‘sadi. Ta’lim avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy vorislikni ta’minlaydi. Kishilarning ijtimoiy tarixiy tajribalari yosh avlodga ta’lim orqali o‘tadi.

Ta’lim haqida turli nazariyalar mavjud. Ba’zi nazariyalar ta’limni jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilishiga bog‘liq bo‘lmagan hodisa sifatida baholasalar, ba’zilari esa ta’limning sinfiy xarakterga ega ekanligini, u jamiyatning har bir muayyan siyosiy, falsafiy, axloqiy, huquqiy qarashlarni shakllantirish maqsadi sari qaratilganligini ta’kidlaydi.

Ta’limning maqsadi obyektiv hayot talablariga muvofiq holda o‘zgarib borgani kabi, ta’limning xarakteri, yo‘nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o‘zgarib boradi. Ta’lim dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatlar jarayonidir. Ta’lim shaxsda bilish qobiliyatlarni, yuksak his-tuyg‘ularni, idrok va tafakkurni tarkib toptiruvchi kuchli omildir.

Ta’lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish – jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, komil insonni tarbiyalashga yordam beradi.

Ta’lim o‘quvchining bilish qobiliyatini o‘stiruvchi asosiy omildir. O‘quvchilar qobiliyatini o‘stirishga qaratilgan tizimlar muayyan didaktik qoidalar tarzida namoyon bo‘ladi. Didaktik tamoyillarda ta’limning mazmuni va jarayonlariga qo‘yilgan talablar belgilanadi. Ta’limning maqsadi va vazifalari ijtimoiy muhit, shuningdek, muayyan o‘quv yurtlari funksiyasiga muvofiq tarixan o‘zgarib boradi. Masalan, mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston Respublikasining 1997-yil 29-avgustda qabul qilingan «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi ta’lim tizimining barcha yo‘nalishlarini takomillashtirish va rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochib berdi.

1996-yildan boshlab lotin imlosiga asoslangan yangi o'zbek alifbosi joriy etildi va shu yildan boshlab yangi yozuv asosida dasturlar, qo'llanmalar va darsliklar yaratishga kirishildi, o'qituvchilar lotin imlosi asosidagi yangi o'zbek alifbosi bo'yicha qayta tayyorlash kurslaridan o'tkazildi. Xalq talimi bo'limlari qoshida bolalarni maktab ta'limiga tayyorgarligini belgilaydigan «Tashxis markazlari» tashkil etildi. O'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini reyting asosida nazorat qilish, maktab bitiruvchilarini yakuniy attestatsiyasini kompyuter yordamida test orqali amalga oshirish, ta'lim amaliyotini diagnostik tahlil etish, ta'lim muassasalarida marketing tizimidan foydalanish kabi qator pedagogik yangiliklar joriy etildi. Texnika taraqqiyoti asriga kelib, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentabrda «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Ta'lim mazmuni va mohiyatini zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil qilish, Xalqaro baholash dasturlaridan unumli foydalanish, kreativ va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini takomillashtirish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Ta'lim mazmuni uning maqsadiga muvofiq, ijtimoiy shart-sharoit, fan va texnika, adabiyot va san'at holati va shu kabilarni hisobga olgan holda belgilanadi. Professional ta'lim va oliy o'quv yurtlaridagi ta'limning mazmuniga umumiy ma'lumotdan tashqari muayyan kasb va mutaxassislik uchun zarur bo'lgan maxsus bilim, malaka va ko'nikmalar ham kiradi. Ta'lim mazmuni o'quv reja va dasturlari, darslik va boshqalarda yoritiladi. Ta'limda qo'yilgan maqsadga erishish uchun turli metod, vosita, tashkiliy tizim va shakllar (ma'ruza, suhbat, tajribalar o'tkazish, ko'rgazmali qurollarni qo'llash, kuzatish, mashq va shu kabi)dan foydalaniladi. O'quv jarayonida texnik vositalar (kino, televideniye, radio, kompyuter, EHM va boshqalar)ni keng qo'llash ta'lim metodini ishlab chiqishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Zamonaviy sharoitda ta'lim maqsadlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)dan foydalanish ham keng qo'llanilib kelinmoqda. Ta'lim AKTlariga bulutga asoslangan o'quv dasturlari, ilovalar, bloglar yoki forumlar, raqamli doskalar, talabalar va o'qituvchilar uchun turli interaktiv onlayn vositalardan foydalanishni misol tariqasida keltirish mumkin.

Ta'limni tashkil etishning umumiy ta'lim, alohida (individual) ta'lim, tashkiliy ta'lim, sinf-dars ta'limi, kurs tizimi ta'limi va boshqa turlari mavjud. Hozirgi sharoitda ijtimoiy talablar, o'quvchilarning imkoniyati va ehtiyojlariga muvofiq ta'lim tobora takomillashtirilib, yangi metod va shakllari ishlab chiqilmoqda.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon va ayniqsa, insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi. Tarbiya insonning insonligini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatdir. Tarbiya bo'lmasa na bir odam, na kishilik jamiyati mavjud bo'la oladi. Chunki odam va jamiyatning mavjudligini ta'minlaydigan qadriyatlar tarbiya tufayligina bir avloddan boshqasiga o'tadi.

Pedagogik adabiyotlarda «Tarbiya» atamasi keng va tor ma'nolarda ishlatiladi. Keng ma'noda, tarbiya inson shaxsini shakllantirishga, uning jamiyatda ishlab chiqarish va ijtimoiy, madaniy, ma'rifiy hayotida faol ishtirokini ta'minlashga qaratilgan barcha ta'sirlar, tadbirlar, harakatlar, intilishlar yig'indisini anglatadi. Bunday tushunishda tarbiya faqat oila, maktab, bolalar va yoshlar tashkilotlarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlarni emas, balki butun ijtimoiy muhit, uning yetakchi g'oyalari, adabiyot, san'at, kino, radio, televideniye va boshqalarni ham o'z ichiga oladi. Shuningdek, keng ma'nodagi tarbiya tushunchasi ichiga ta'lim va ma'lumot olish ham kiradi.

Tor ma'noda tarbiya shaxsning jismoniy rivoji, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy qiyofasi, estetik didining o'stirilishiga yo'naltirilgan pedagogik faoliyatni anglatadi. Bu oila, tarbiyaviy muassasalar hamda jamoat tashkilotlarida amalga oshiriladi. Ta'lim va ma'lumot olish tor ma'nodagi tarbiya ichiga kirmaydi. Lekin har qanday tarbiya ta'lim bilan chambarchas bog'liq holdagina mavjud bo'ladi. Chunki ta'lim va ma'lumot olish jarayonida shaxsning faqat bilimi ko'payibgina qolmay, balki axloqiy-ma'naviy sifatlarining qaror topishi ham tezlashadi.

Tarbiya har qanday jamiyat va har qanday mamlakat hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdir. Negaki, o'sish va rivojlanish uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklar, ishlab chiqarish to'xtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklar yetishtirishni ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak. Yosh avlodda ana shunday moddiy va ma'naviy qobiliyatlarni shakllantira bilish uchun esa jamiyat uzluksiz ravishda samarali faoliyat ko'rsatadigan tarbiyaviy intizomlar tizimiga ega bo'lishi lozim.

Ta'lim va tarbiya jamiyat taraqqiyotining turli davrlarida turlicha izohlab kelingan:

Markaziy Osiyodagi pedagogik qarashlar qadimgi turkiy yozuvlar, tangriga e'tiqod qilish tamoyillarida va zardushtiylikning muqaddas kitobi Avestoda o'z ifodasini topgan. Bundan tashqari, Sharq xalqlari tabiatning asosiy unsurlari – yer, suv, havo va olovni e'zozlash haqidagi qarashlari va g'oyalari Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga keng yoyilib, Qadimgi Misr, Babil, Lidiya mamlakatlari xalqlarining tafakkur tarziga singib ketgan. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, Yunonistonning ilk falsafiy maktabi – Milet maktabi ham o'z

g'oyalarini Sharqdan olgan. Miloddan avvalgi 2 – 1-asrlarda Marv, Balx, Termiz, Sig'noq, Samarqand, Buxoro zaminini o'ziga qamrab olgan hududda kushonlar saltanati qaror topib, unda budda dini hukm suradi, uning mohiyati bu joyda yashovchi xalqning tafakkur tarziga o'z ta'sirini o'tkazadi. Ammo Avesto g'oyalari xalq ongidan butunlay chiqib ketmaydi. Milodiy 3-asrga kelib tenglik g'oyalarini ilgari suruvchi moniylik ta'limoti paydo bo'ldi. Bu ta'limot mazdakiylar harakatining ma'naviy tayanchi bo'lgan.

Markaziy Osiyo Zardushtiylik, keyinchalik esa Islom dinlari ta'sirida shakllangan. Sharqona tarbiya mazmunini xalq og'zaki ijodi, Qur'oni karim va hadisi sharif tashkil qildi va tarbiyaning bosh maqsadi «komil inson» tarbiyasiga qaratildi.

Mashhur faylasuflardan biri Ibn Sino O'rta Osiyo va umuman, Islom olamida ta'lim va tarbiya mazmunini shakllantirishda yuksak hissa qo'shdi. Bunda u Arastu va Aflotun ishlariga tayandi. Ibn Sino o'quvchilar o'rtasida raqobatbardoshlik va taqlid qilishning ahamiyati, guruh bahslari va munozaralarning foydaliligini aytib, o'quvchilarni birgalikda, jamoada o'qitishning afzalliklari to'g'risida bir qator fikrlarni ilgari surdi. Abu Ali ibn Sino 6 yoshdan 14 yoshgacha bo'lgan bolalarni o'qitish uchun mo'ljallangan o'quv dasturida Qur'onni o'rganish, metafizika, til, adab (husnixat), axloq qoidalari va qo'lda ishlash ko'nikmalarini kiritgan. Biroq G'azzoliy ayollarga ko'proq mos keladigan adabni maktabda o'qitishga qat'iy qarshi bo'lgan. U bolalarga donishmandlarning asarlarini o'rgatishni va ularni islom asosining muhim shaxslari, Payg'ambar sahobalarining hayoti bilan tanishtirishni tavsiya qilgan. Nosiriddin Tusiy o'quvchilarning yoshiga, hissiy rivojlanishiga yordam berishni maslahat bergan. Chunki bolalar bir-biridan tabiiy ravishda farq qiladi. Masalan, ba'zi o'quvchilar o'qish qobiliyatini, boshqalari qo'lda ishlash ko'nikmalarini, boshqalari adabiyotni egallashni, ba'zilari esa voiz bo'lishni o'zlarida

namoyon qiladilar, shu bois, o'quvchilar ushbu fanlarga qiziqishlariga qarab jalb qilinishi lozim, deb ta'kidlagan olim.

Amir Temur va temuriylar hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda ta'limga e'tibor, ilm-fanga homiylik davlat siyosatiga aylangan. Barcha shaharlarda oliy ta'lim dargohlari madrasalar barpo etilib, o'z davrining yetuk olim-u ulamolari tolibi ilmlarga dars berishga jalb etilgan. Sohibqiron birinchi galda ta'lim va tarbiyani to'g'ri yo'lga qo'yish, ilmli, ma'rifatli shaxslarning jamiyatdagi mavqeyini ko'tarish yo'lidan borgan. Ulkan saltanatning barcha shahar va yirik qishloqlarida ko'plab boshlang'ich maktablar barpo etilgan. Tarixiy manbalarning dalolat berishicha, bu davrda o'g'il bola 4 yil, 4 oy va 4 kunlik bo'lganda maktabga berish an'anasi amalda bo'lib, boshlang'ich ta'lim ulkan saltanatning barcha madaniy o'lkalarini qamrab olgan edi.

Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida Samarqandda Rasadxona, Buxoroda, G'ijduvonda va Samarqandda madrasalar qurilgan. Bu davrda birgina Samarqand shahrida 100 dan oshiq olimlar fanning turli sohalarida ajoyib yutuqlarga erishgan. Ular orasida Taftazoniy, Mavlono Ahmad, o'z zamonasining «Aflotuni» deb nom olgan Qozizoda Rumiy, G'iyosiddin Koshiy, Muhammad Hafoviy, mavlono Ali Qushchi va boshqa taniqli zotlar bor edi. Samarqanddagi Ulug'bek madrasasida oltmishga yaqin olimlar fanning turli sohalarida faoliyat olib borgan. Qozizoda Rumiy Ulug'bekning «Ziji Ko'ragoniy» asarida yulduzlar jadvalini tuzishda qatnashgan¹.

XVI – XIX asrning birinchi yarmida Buxoro amirligi, Qo'qon va Xiva xonliklarida xalq ta'limining tuzilishi va faoliyati deyarli bir xil bo'lgan. Ularda madrasalar, maktablar va qorixonalar mavjud bo'lgan. Madrasalar musulmon oliy o'quv yurtlari hisoblangan. Maktablar masjidlar qoshida va xususiy uylarda

¹<https://xs.uz/uz/post/amir-temur-va-temuriylar-davri-renessansida-talim-tizimining-tutgan-ahamiyati>

tashkil etilgan. Odatda, maktablarda asosan o'qish va yozish, arifmetika va adabiyot o'qitgan. Qorixonalarda esa asosan ko'zi ojizlar o'qib, Qur'on, doston va she'r-u g'azallar yodlaganlar. Maktablar qizlar uchun alohida, o'g'il bolalar uchun alohida bo'lgan.

Sho'ro zamonida hukmron kommunistik mafkura tarbiyaga sinfiy va partiyaviy hodisa sifatida yondashishni talab etgan. Shuning uchun ham sinfiy jamiyatda tarbiya faqat sinfiy xususiyatga ega bo'ladi va turli sinflarning tarbiyasi bir-biriga qarama-qarshi turadi degan qarash shakllangan. Holbuki, dunyo ilmi, ayniqsa, Sharq tarbiyashunosligi va o'zbek xalq pedagogikasi tajribasi tarbiyaning sinfiy ko'rinishga ega emasligini isbot etdi. Shuningdek, kommunistik mafkura tazyiqi tufayli «tarbiya»da ijtimoiy muassasalarning o'rniga ortiqcha baho berildi, bu jarayonda irsiy va biologik xususiyatlar deyarli hisobga olinmadi.

Sho'rolar davrida tarbiya orqali har qanday odamni istagan ijtimoiy qiyofaga solish mumkin, degan qarash hukmron bo'lganligi uchun ham uning shaxsni shakllantirishdagi o'rniga oshiqcha baho berildi. Tarbiyalanuvchi shaxsining tarbiyaga berilish yoki berilmaslik xususiyatlarining hisobga olinmasligi tarbiyaviy tadbirlarga mahliyo bo'lishdek pedagogik xatolikka olib keldi. Buning natijasida tarbiya maqsadsiz bo'lib qoldi, tarbiyalanuvchilarga alohida shaxs sifatida emas, istalgan ijtimoiy yo'nalishga solinishi mumkin bo'lgan qiyofasiz to'da, olomon tarzida qarash qaror topdi, bu hol tarbiyaning samarasizligiga olib keldi. Chunki tarbiyaning asosiy obyekt bo'lmish shaxs va uning o'ziga xoslik jihatlari unutilgan edi. Sho'ro pedagogik tizimidagi kamchiliklarning ildizi, asosan, mana shu yondashuv tarziga borib taqaladi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgach, tarbiya va unga bog'liq jarayonlar yangi hamda sog'lom pedagogik tafakkurga tayangan holda yondashuv shakllana boshladi. Uni izohlashda g'ayriilmiy

sinfiy-partiyaviy g'oyalardan voz kechildi. Tarbiyaning milliylikiga alohida e'tibor qaratildi. Buning uchun xalq pedagogikasi boyliklari, o'zbek mutafakkirlarining pedagogik qarashlari sinchkovlik bilan o'rganildi. Natijada, O'zbekiston pedagogikasi fani va amaliyotida oila tarbiyasining ham, ijtimoiy tarbiyaning ham o'ziga xos o'rnini borligi tan olinib boshlandi. Shuningdek, tarbiyada irsiy va biologik omillar ham hisobga olinadigan bo'ldi. Bu hol tarbiyaga doir hodisa va holatlarni to'g'ri izohlash, tarbiyaviy tadbirlar tizimini to'g'ri tayin etish imkonini berdi.

Bugungi kunda zamonaviy tarbiya va ta'limning maqsadi har tomonlama barkamol, XXI asr ko'nikmalariga ega shaxsni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, jamiyat a'zolarining maqsadga yo'naltirilgan rivojlanishi hamda ularning qator ehtiyojlarini qondirish uchun shart-sharoit yaratish, jamiyat rivoji uchun zarur bo'lgan ijtimoiy madaniyatga mos yetarlicha hajmdagi «inson kapitali»ni tayyorlash, umuminsoniy madaniyatlardan xabardor bo'lish orqali ijtimoiy hayotning barqarorligini ta'minlash, ma'lum jins va kasbiy guruhlarining qiziqishlarini hisobga olgan holda ijtimoiy munosabatlar doirasida jamiyat a'zolarining harakatini tartibga solish kabi vazifalarni amalga oshiradi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

Nazorat savollari:

1. «Mutaxassislikka kirish» fanining maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. «Mutaxassislikka kirish» fanining obykti va predmeti haqida ma'ulumot bering.
3. «Mutaxassislikka kirish» fani qaysi fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda faoliyat yuritadi?
4. «Mutaxassislikka kirish» fanining dolzarbligi, mutaxassislar tayyorlashdagi o'rnini izohlang.
5. Ta'lim va tarbiya «Mutaxassislikka kirish» fanining asosiy tushunchalari sifatida.

1-topshiriq:

Quyida keltirilgan tushunchalar ta'rifini keltiring!

Namuna:

Mutaxassis – biror sohada maxsus bilim va tajribaga ega bo'lgan kishi, ixtisos egasi.

Mutaxassislik – _____

2-topshiriq:

«Mutaxassislikka kirish» fanining asosiy tushunchalariga izoh bering!

Namuna:

Ta'lim mohiyati	Tarbiya mohiyati
1. bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi;	1.
2	2.
3	3.

2-MAVZU. TA'LIM TIZIMI VA OLIY TA'LIM MUASSASASI HAQIDA MA'LUMOT

Tayanch tushunchalar: O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi, ta'lim olish jarayoning shakllari, tashkilotning korporativ madaniyati, Oliy ta'lim muassasasi, ta'lim tuzilmasi.

O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimi va undagi islohotlar². *Ta'lim tizimi:* davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini amalga oshiruvchi ta'lim tashkilotlarini; ta'lim sifatini baholashni amalga oshiruvchi tashkilotlarni; ta'lim tizimining faoliyat ko'rsatishi va rivojlanishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tadqiqot ishlarini bajaruvchi ilmiy-pedagogik muassasalarni; ta'lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlarini, shuningdek ularning tasarrufidagi tashkilotlarni o'z ichiga oladi. Ta'lim tizimi yagona va uzluksizdir.

Ta'lim turlari haqida ma'alumot. Ta'lim turlari quyidagilardan iborat: *maktabgacha ta'lim va tarbiya, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim, professional ta'lim, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish, maktabdan tashqari ta'lim.*

Maktabgacha ta'lim va tarbiya. Maktabgacha ta'lim va tarbiya bolalarni o'qitish va tarbiyalashga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirishga, shuningdek, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan ta'lim turidir. Maktabgacha ta'lim va tarbiya olti yoshdan yetti yoshgacha bo'lgan bolalarni boshlang'ich ta'limga bir yillik majburiy tayyorlashni ham nazarda tutadi. **Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim.** Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim umumta'lim o'quv dasturlarini, zarur bilim, malaka hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan.

² O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni, 23.09.2020 yildagi 637-son

Umumiy oʻrta taʼlim (*I – XI sinflar*) bosqichlari quyidagilardan iborat: *boshlangʻich taʼlim (I – IV sinflar)*; *tayanch oʻrta taʼlim (V – IX sinflar)*; *oʻrta taʼlim (X – XI sinflar)*. Umumiy oʻrta taʼlim tashkilotining birinchi sinfiga bolalar ular yetti yoshga toʻladigan yilda qabul qilinadi. Boshlangʻich taʼlim taʼlim oluvchilarda umumiy oʻrta taʼlimni davom ettirish uchun zarur boʻlgan savodxonlik, bilim, malaka va koʻnikmalar asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Tayanch oʻrta taʼlim oʻquv dasturiga muvofiq taʼlim oluvchilarga bilim, malaka va koʻnikmalarning zaruriy hajmini beradi, ularda mustaqil fikrlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Tayanch oʻrta taʼlim doirasida (VII sinfdan soʻng) taʼlim oluvchilarda kasblar boʻyicha birlamchi bilim va koʻnikmalarni shakllantirish uchun ularni professional tashxislash va kasb-hunarga yoʻnaltirish boʻyicha choralar amalga oshiriladi. Oʻrta taʼlim oʻquv dasturiga muvofiq taʼlim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va koʻnikmalar oʻzlashtirilishini, shuningdek, taʼlimning keyingi turi tanlanishini hamda yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblar egallanishini taʼminlaydi. Professional tashxislash va kasb-hunarga yoʻnaltirish, shuningdek, taʼlim oluvchilarni yuqori malaka talab qilinmaydigan kasblarga tayyorlash tartibi qonunchilikda belgilanadi. Umumiy oʻrta taʼlim umumiy oʻrta taʼlim tashkilotlarida uzluksiz tarzda, majburiy boʻlgan oʻn bir yil davomida amalga oshiriladi. Oʻrta maxsus taʼlim akademik litseylarda toʻqqiz yillik tayanch oʻrta taʼlim asosida ikki yil mobaynida amalga oshiriladi va taʼlim oluvchilarning intellektual qobiliyatlarining jadal rivojlanishini, shuningdek, chuqur, tabaqalashtirilgan, kasb-hunarga va shaxsga yoʻnaltirilgan taʼlim olishini taʼminlaydi. Nodavlat taʼlim tashkilotlarida umumiy oʻrta va oʻrta maxsus taʼlim toʻlov-shartnoma asosida amalga oshirilishi mumkin. Iqtidorli va isteʼdodli bolalarning qobiliyatini

rivojlantirish uchun Prezident, ijod va boshqa ixtisoslashtirilgan maktablar, shuningdek, maktab-internatlar tashkil etilishi mumkin. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalar davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida, umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarida inklyuziv shaklda yoki uy sharoitlarida yakka tartibda ta'lim oladi. Umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarining sinflarida (guruhlarida) ta'lim oluvchilar soni o'ttiz besh nafardan oshmasligi kerak.

Professional ta'lim. Professional ta'lim egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha quyidagi darajalarni o'z ichiga oladi: *boshlang'ich professional ta'lim; o'rta professional ta'lim; o'rta maxsus professional ta'lim.* Boshlang'ich professional ta'lim kasb-hunar maktablarida IX sinf bitiruvchilari negizida bepul asosda kunduzgi ta'lim shakli bo'yicha umumta'lim fanlarining va mutaxassislik fanlarining ikki yillik integratsiyalashgan dasturlari asosida amalga oshiriladi. O'rta professional ta'lim kollejlarda davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi ikki yilgacha bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha umumiy o'rta, o'rta maxsus ta'lim hamda boshlang'ich professional ta'lim negizida amalga oshiriladi. O'rta maxsus professional ta'lim texnikumlarda umumiy o'rta, o'rta maxsus, boshlang'ich professional va o'rta professional ta'lim negizida davlat buyurtmasi yoki to'lov-shartnoma asosida kasblar hamda mutaxassisliklarning murakkabligidan kelib chiqqan holda, davomiyligi kamida ikki yil bo'lgan kunduzgi, kechki va sirtqi ta'lim shakllari bo'yicha amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim. Oliy ta'lim bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlanishini ta'minlaydi. Oliy ma'lumotli

kadrlarni tayyorlash oliy ta'lim tashkilotlarida (universitetlar, akademiyalar, institutlar, oliy maktablar) amalga oshiriladi. Umumiy o'rta (o'n bir yillik ta'lim), o'rta maxsus (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik o'rta maxsus ta'lim), boshlang'ich professional ta'lim (to'qqiz yillik tayanch o'rta va ikki yillik boshlang'ich professional ta'lim) olgan shaxslar, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi (to'qqiz yillik umumiy o'rta va uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi) olgan shaxslar oliy ma'lumot olish huquqiga ega. Oliy ta'lim ikki bosqichga – bakalavriat va magistratura bosqichiga ega. Bakalavriat oliy ta'lim yo'nalishlaridan biri bo'yicha chuqurlashtirilgan bilim, malaka va ko'nikmalar beradigan, o'qish davomiyligi kamida uch yil bo'lgan tayanch oliy ta'limdir. Magistratura tegishli bakalavriat negizidagi aniq mutaxassislik bo'yicha o'qish davomiyligi kamida bir yil bo'lgan oliy ta'limdir. Magistratura mutaxassisliklarining va ularga muvofiq bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ro'yxati ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi. Fuqarolar shartnoma asosida ikkinchi va undan keyingi oliy ma'lumotni olish huquqiga ega. **Oliy ta'limdan keyingi ta'lim.** Oliy ta'limdan keyingi ta'limni oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda olish mumkin. Oliy ta'limdan keyingi ta'lim doktorlik dissertatsiyasini tayyorlash va himoya qilish maqsadida mutaxassislikni chuqur o'rganishni va ilmiy izlanishlar olib borishni nazarda tutadigan tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchanlik asosida ilmiy darajaga ega ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashni ta'minlaydi. Tayanch doktorantura falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi.

Doktorantura fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajasiga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralgan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi. Mustaqil izlanuvchilik falsafa doktori (Doctor of Philosophy (PhD) yoki fan doktori (Doctor of Science (DSc) ilmiy darajalariga da'vogar izlanuvchilar uchun ishlab chiqarishdan ajralmagan holda tashkil etiladigan oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar ixtisosligi bo'yicha oliy ta'limdan keyingi ta'lim shakli hisoblanadi. Ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash, ilmiy darajalar va ilmiy unvonlar berish tartibi, shuningdek harbiy, tibbiyot va boshqa ta'lim tashkilotlarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim olish xususiyatlari qonunchilikda belgilanadi. Oliy ta'limdan keyingi ta'limning davom etish muddati qonunchilikda belgilanadi. **Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish.** Kadrlarni qayta tayyorlash tayanch mutaxassisliklar va kasblarga muvofiq bo'lgan yo'nalishlar bo'yicha faoliyatni amalga oshirish uchun qo'shimcha kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning zarur hajmi egallanishini ta'minlaydi. Kadrlar malakasini oshirish kasbiy bilim, malaka va ko'nikmalarning chuqurlashtirilishi hamda yangilab borilishini ta'minlaydi, kadrlarning toifasi, darajasi, razryadi va lavozimi oshishiga xizmat qiladi. Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish shakllari va muddatlari tegishli davlat ta'lim talablari bilan belgilanadi. **Maktabdan tashqari ta'lim.** Bolalarning ehtiyojlarini qanoatlantirish, bo'sh vaqti va dam olishini tashkil etish uchun davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, shuningdek, tijorat tashkilotlari madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sport yo'nalishidagi maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlarini tashkil etishi mumkin. Maktabdan tashqari ta'lim bolalarga uzluksiz

ta'lim berishning tarkibiy qismi sifatida ularning iste'dodi va qobiliyatini rivojlantirishga, ma'naviy ehtiyojlarini qanoatlantirishga qaratilgan. Maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari jumlasiga bolalar, o'smirlar ijodiyoti saroylari, uylari, klublari va markazlari, «Barkamol avlod» bolalar maktablari, bolalar-o'smirlar sport maktablari, bolalar musiqa va san'at maktablari, studiyalar, axborot-kutubxona hamda sog'lomlashtirish muassasalari kiradi. Maktabdan tashqari ta'lim berish tartibi ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organi tomonidan belgilanadi.

Ta'lim olish jarayonining shakllari. Ta'lim olish shakllari quyidagilardan iborat: ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish (kunduzgi); ishlab chiqarishdan ajralmagan holda ta'lim olish (sirtqi, kechki, masofaviy); dual ta'lim; oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish; katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish; inklyuziv ta'lim; eksternat tartibidagi ta'lim; mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlar tayyorlash. **Masofaviy ta'lim.** Masofaviy ta'lim o'quv rejalari va o'quv dasturlariga muvofiq ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan hamda Internet jahon axborot tarmog'idan foydalangan holda masofadan turib olishga qaratilgan. **Dual ta'lim.** Dual ta'lim ta'lim oluvchilar tomonidan zarur bilim, malaka va ko'nikmalarni olishga qaratilgan bo'lib, ularning nazariy qismi ta'lim tashkiloti negizida, amaliy qismi esa ta'lim oluvchining ish joyida amalga oshiriladi. **Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish.** Davlat oilada ta'lim olishga va mustaqil ta'lim olishga ko'maklashadi. Bolalarning oilada ta'lim olishi va mustaqil ta'lim olish uslubiy va maslahat yordami ko'rsatilgan holda tegishli o'quv dasturlari bo'yicha amalga oshiriladi. Oilada ta'lim olish va mustaqil ta'lim olish tartibi, shuningdek ta'lim

oluvchilarning toifalari ta'lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi. Oilada ta'lim olish bolalar, oila, davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda davlat ta'lim muassasasi hamda ta'lim oluvchilarning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari o'rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi. Mustaqil ta'lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta'lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma'naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi. Oilada ta'lim olgan va mustaqil ta'lim olgan shaxslarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta'lim to'g'risidagi hujjatni berish davlat ta'lim muassasalarining tasdiqlangan o'quv dasturiga muvofiq eksternat tartibida amalga oshiriladi. **Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish.** Katta yoshdagilarni o'qitish va ularga ta'lim berish butun umr davomida o'qitishning markaziy tarkibiy qismi bo'lib, ta'lim berish hamda o'qitishning jamiyat hayotida va mehnat faoliyatida katta yoshdagilarning ishtirok etishini ta'minlashga qaratilgan barcha shakllarini o'z ichiga oladi, shuningdek, rasmiy, norasmiy va informal o'qitish jarayonlarining butun majmuini qamrab oladi. Rasmiy ta'lim davlat ta'lim muassasalari hamda davlat tomonidan tan olingan akkreditatsiyadan o'tgan nodavlat ta'lim tashkilotlari ishtirokidagi institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan ta'limdir. Norasmiy ta'lim ta'lim xizmatlari taqdim etilishini ta'minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo'naltirilgan va rejalashtirilgan bo'lib, shaxsni butun hayoti davomida o'qitishdagi rasmiy ta'limga qo'shimcha va (yoki) uning muqobilidir. Informal ta'lim aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni

mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgandir hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olishi mumkin. **Inklyuziv ta'lim.** Inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan. Jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar (shaxslar) uchun ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim tashkil etiladi. **Eksternat tartibidagi ta'lim.** Eksternat tartibidagi ta'lim olish o'quv dasturlarini mustaqil ravishda o'zlashtirishni o'z ichiga olib, uning yakunlari bo'yicha ta'lim oluvchilardan davlat ta'lim muassasalarida yakuniy va davlat attestatsiyalaridan o'tishni talab etadi. **Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash.** Mudofaa, xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish faoliyati sohasida kadrlarni tayyorlash ularning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasasi va ularning tuzilmasi. OTM haqida ma'lumotga ega bo'lish uchun tashkilotning korporativ madaniyati haqidagi tushunchaga to'xtalib o'tish joiz. Korporativ madaniyat – bu tashkilotning tashqi muhitga moslashish va ichki integratsiya jarayonida o'z samarasini ko'rsatgan va tashkilot a'zolarining ko'pchiligi tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan xulq-atvor namunalari to'plamidir. Korporativ madaniyatning tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- qabul qilingan rahbarlik tizimi;
- nizolarni hal qilish uslublari;
- ishlaydigan aloqa tizimi;
- shaxsning tashkilotdagi mavqei;

-
- gender va millatlararo munosabatlarning xususiyatlari;
 - qabul qilingan belgilar: shiorlar, tashkiliy tabular, marosimlar.

Odatda tashkilotlarda mavjud bo'lgan korporativ madaniyat – bu jamoaning barcha a'zolari tomonidan qabul qilingan va xulq-atvorning umumiy asoslarini belgilaydigan murakkab farazlar majmui. Xulq-atvor korporativ madaniyatning shakllanishi uchun asosdir. Korporativ madaniyatning asosiy vazifalari kelajakda istalgan natijani ta'minlash, korporatsiya imidjini shakllantirish, korporatsiya a'zolari o'rtasida hamjamiyat va uning qadriyatlariga mansublik tuyg'usini tarbiyalash, korxonada ishlarda ishtirok etishni kuchaytirishdan iborat.

OTMning korporativ madaniyati – bu birinchi navbatda, umumiy tadbirni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lib, ma'naviy-ruhiy ta'lim, talabalar, o'qituvchi va xodimlar tomonidan umumiy qadriyatlar, ideallar, an'analar, xulq-atvor normalarining uzviy majmui sanaladi.

Oliy o'quv yurtlari, xalq xo'jaligi, fan va madaniyatning turli tarmoqlari uchun malakali mutaxassislar, ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlab berishga yo'naltirilgan o'quv muassasalaridir. Ularda bo'lajak mutaxassislarga oliy ta'lim berishdan tashqari, nazariy va amaliy yo'nalishdagi ilmiy ishlar ham olib boriladi, uzluksiz ta'limning professor-o'qituvchilari, tegishli yo'nalishdagi ishlab chiqarish va madaniyat sohalarining mutaxassislari malaka oshirishadi. OTM – belgilangan miqdordagi kreditlarni tan olishni hisobga olgan holda ta'lim va malaka to'g'risidagi hujjat beruvchi muassasa. Oliy ta'lim muassasalarida uzluksiz ta'limning mustaqil turi yuqori malakali mutaxassislar tayyorlovchi ikki (bakalavriat va magistratura) bosqichdan iborat bo'lgan oliy ta'lim amalga oshiriladi.

OO'Ylariga universitetlar, tarmoq (texnika, tibbiyot, pedagogika, madaniyat, iqtisod va boshqalar) institutlari, oliy harbiy yoki texnika o'quv yurtlari, o'quv akademiyalari, oliy maktablar kiradi.

Universitet lotincha «universitas» – yig'indi, majmua degan ma'noni anglatadi, u esa o'z navbatida lotincha «universitas magistrorum et scholarium» – «o'qituvchilar va olimlar jamoati» iborasidan kelib chiqqan. Universitetlar fundamental va amaliy fanlar asosida o'qitiladigan, malakali mutaxassislar tayyorlanadigan oliy ta'lim muassasalaridir. Odatda, u yerda ilmiy-tadqiqot ishlari ham olib boriladi. Bugungi kundagi universitetlarning aksariyati o'quv, ilmiy, amaliy majmualar sifatida faoliyat yuritishadi. Universitetlar o'z tarkiblariga bir necha fakultetlarni oladi.

Universitet – tabiiy, ijtimoiy va gumanitar yo'nalishda yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan ko'p tarmoqli oliy o'quv-ilmiy muassasa. Universitet o'z bitiruvchilarining kelajakdagi ilmiy-amaliy va pedagogik faoliyatlari uchun chuqur nazariy tayyorgarlik ko'rishlarini ta'minlaydi. O'quv va ilmiy tadqiqot ishlarining uzviy ravishda qo'shib olib borilishi universitet ta'limining asosiy o'ziga xos jihatidir. Universitet musulmon Sharqidagi oliy (Madrasa yoki madrasai oliya) maktabiga to'g'ri keladi. Yaqin Sharq mamlakatlarida universitet «dorilfunun» deb ham yuritilgan.

Institut lotincha «institutum» so'zidan olingan bo'lib, tartibot, muassasa degan ma'noni anglatadi. Institut turli ixtisoslashgan o'quv yurtlari (o'rta, oliy, malaka oshirish tizimi), ilmiy tadqiqot, loyihalash va boshqa muassasalarning nomi.

Akademiya grekcha «Ακαδημία», lotincha «Academia» – afsonaviy qahramon Akadem nomidan olingan. Akademiya

ko'pgina ilmiy muassasa, jamoat tashkilotlari, o'quv yurtlarining nomi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yildagi ma'lumotiga ko'ra, O'zbekistonda 209 ta OTM mavjud bo'lib, shundan: universitet – 36 ta, institut – 48 ta, akademiya – 5 ta, konservatoriya – 1 ta, filial – 24 ta, xorijiy OTM va uning filiallari – 30 ta, nodavlat OTM – 65 ta³.

OTMlar fakultet va ularning qoshida tashkil topgan kafedralardan iborat. OTMlarni rektor boshqaradi. Rektor institut kengashi va vasiylik kengashiga raislik qiladi. Institut tuzilmasida rektordan keyin o'quv ishlari bo'yicha prorektor, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektor, yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektor, xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektor, talabalar orasida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan rektor maslahatchisi o'zlariga belgilangan vakolat asosida OTMni boshqaradilar. O'quv ishlari bo'yicha prorektori – O'quv-uslubiy bo'lim, Axborot-resurs markazi, Sirtqi (maxsus sirtqi) bo'lim, Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi, OTM huzuridagi akademik litseyiga tegishli vazifalarni tartibga soladi. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori – Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi, Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi, Magistratura bo'limi, Ilmiy-innovatsiya ishlanmalarni tijoratlashirish bo'limiga tegishli vazifalarni tartibga soladi. Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori – Reja-moliya bo'limi, Buxgalteriya, O'qitishning texnik vositalari bo'limi, Fuqaro va mehnat muhofazasi bo'limi, Texnik-foydalanish va xo'jalik bo'limi, Bosh muhandis, Bosh energetika tegishli vazifalarni

³ <https://stat.edu.uz/Univer-list.php>

tartibga soladi. Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha prorektori – Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi, Psixolog, Talabalar turar joylari, Talabalarni turar joy bilan taminlash ishlarini muofiqlashtiruvchi bo'limga tegishli ishlarni tartibga soladi. Xalqaro hamkorlik bo'yicha prorektori – Xalqaro hamkorlik bo'limi, Xodimlar bo'limi, Birinchi bo'lim, Ikkinchi bo'lim, Devonxona va arxivga tegishli ishlarni tartibga soladi. Talabalar orasida ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashga mas'ul bo'lgan rektor maslahatchisi – Bosh auditor, Yuristkonsult, Korrupsiyaga qarshi kurashish «Komplaens-nazorat» tizimini boshqarish bo'limi, Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi, Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi, Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi, Kengash kotibi, Matbuot kotibiga tegishli ishlarni tartibga soladi.

Fakultet lotincha «fakultas» so'zidan olingan bo'lib, imkoniyat, qobiliyat degan ma'noni anglatadi. Fakultet oliy o'quv yurtining o'quv-ilmiy, ma'muriy-tashkiliy bo'linmasi. Bir yoki bir necha yondosh mutaxassisliklar bo'yicha talaba va ilmiy tadqiqotchilarni tayyorlash, xalq xo'jaligi va madaniyatning tegishli sohasi xodimlarining malakasini oshirish, shuningdek, o'zi birlashtirgan kafedralarning ilmiy tadqiqot ishlariga rahbarlik qilish bilan shug'ullanadi. Ixtisosliklar va ta'lim turlari bo'yicha o'quv ishlarini samarali yo'lga qo'yish uchun, ayrim hollarda, fakultet tarkibida bo'limlar tashkil etiladi. Fakultetdagi o'quv, ta'lim-tarbiya va ilmiy ishlarga dekan rahbarlik qiladi. Fakultet faoliyatidagi asosiy masalalarni ko'rib chiqish uchun dekan rahbarligida fakultet ilmiy kengashi tashkil etiladi.

Kafedra oliy o'quv yurtlarida bir yoki bir-biriga yaqin bir necha fanlardan o'quv, metodik (uslubiy) va ilmiy tadqiqot ishlarini olib boruvchi, shuningdek, ilmiy-pedagogik kadrlarni

tayyorlovchi, mutaxassislar malakasini oshiruvchi asosiy bo'lim. Kafedraga odatda, professor, fan doktori rahbarlik qiladi (dotsent, fan nomzodi ham rahbarlik qilishi mumkin). Kafedra tarkibiga professor, dotsent, assistent, katta o'qituvchi, katta va kichik ilmiy xodim, ilmiy tadqiqotchi va boshqalar kiradi. Kafedra o'z laboratoriya va kabinetiga ega bo'ladi. Unga ma'ruzalar, laboratoriya ishlari, amaliy va o'quv mashg'ulotlari, seminarlar o'tkazish, malakaviy va pedagogik amaliyot, tadqiqot ishlari, kurs va diplom loyiha (ish)lariga rahbarlik qilish va boshqa vazifalar yuklatiladi. Kafedralar umuminstitut (universitet) va fakultet kafedralariga bo'linadi. Umuminstitut (universitet) kafedralari oliy o'quv yurtining barcha yoki fakultetlararo o'qitiladigan umumiy ilmiy fanlarni o'qitsa, fakultet kafedralari muayyan fakultetda o'tiladigan maxsus fanlar bilan shug'ullanadi. Yana bir o'rinda, kafedra yunoncha «kafedra» – o'rindiq, kursi degan ma'noni anglatadi. Kafedra o'qituvchi, ma'ruzachi, notiq uchun mo'ljallangan joy ma'nosida ham ishlatiladi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar:

Nazorat savollari:

1. O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonuni mazmunini izohlang.

2. Ta'lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillarini sanang va izohlang.

3. Uzlüksiz ta'lim tizimi, uning tarkibiy qismlari va darajasi haqida fikr bildiring.

4. Ta'lim turlari haqida ma'alumot bering.

5. Ta'lim olish shakllari bayon qiling.

6. Oliy ta'lim muassasasi va ularning tuzilmasi haqida ma'alumot bering.

1-topshiriq:

Uzlüksiz ta'lim tizimi ketma-ketligini aniq ko'rsating.

Namuna:

No	Ta'lim tizimi	Ketma-ketlik
1.	Professional ta'lim	
2.	Umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim	2
3.	Oliy ta'lim	
4.	Maktabgacha ta'lim va tarbiya	1
5.	Maktabdan tashqari ta'lim	
6.	Kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish	
7.	Oliy ta'limdan keyingi ta'lim	

2-topshiriq:

Professional ta'limda egallanadigan kasb va mutaxassislik bo'yicha darajalar tartibini belgilang.

Namuna:

boshlang'ich professional ta'lim	o'rta maxsus professional ta'lim	o'rta professional ta'lim
1		

3-MAVZU. «PEDAGOGIKA» TA'LIM YO'NALISHI BO'YICHA MUTAXASSIS TAYYORLASH MAZMUNI

Tayanch tushunchalar: ta'lim mazmuni, Davlat ta'lim standarti, malaka talablari, o'quv va ishchi o'quv reja, fanning o'quv dasturlari, o'quv adabiyoti.

Ta'lim mazmuni tushunchasi. Ta'lim mazmuni talabalar tomonidan o'zlashtirilishi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tizimi, shuningdek, ijodiy faoliyat tajribasi va dunyoga hissiy-irodaviy munosabati. Ta'lim mazmuni fanning hozirgi holatiga mos keladigan bilim, ko'nikma va malakalarning pedagogik jihatdan fanlarning umumiy asoslariga ta'lim jarayonida ishtirok etuvchi shaxslarning mulki bo'ladigan tarzda qayta ishlangan yig'indisi. Jamiyatimizdagi o'zgarishlar sharoitida pedagogika bir vaqtning o'zida butun jamiyat manfaatlariga javob beradigan va shu bilan birga, har bir shaxsning qobiliyat va iste'dodini jadal rivojlantirishga qaratilgan ta'lim mazmunini shakllantiradi. Ta'lim mazmuni – davlat standarti, tegishli fan bo'yicha o'quv rejasi va hokazo hujjatlarda mustahkamlanadi. Muayyan ta'lim muassasasida ta'lim mazmuni ushbu ta'lim muassasasi tomonidan mustaqil ravishda ishlab chiqiladigan, qabul qilinadigan va amalga oshiriladigan ta'lim dasturi bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining davlat standarti⁴. Ta'lim mazmunini aks ettiruvchi hujjatlar: Davlat ta'lim standartlari (keyingi hollarda DTS deb ishlatiladi), Davlat ta'lim talablari (keyingi hollarda DTT deb ishlatiladi), malaka talablari, o'quv va ishchi o'quv reja, fanning o'quv dasturlari.

Davlat ta'lim standartlari – davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 19 oktabrdagi 11-son buyrug'iga ilova. O'zbekiston Respublikasining DAVLAT STANDARTI. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori.


Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional hamda oliy ta'lim mazmuni va sifatiga oid talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim talablari – maktabdan tashqari ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini, ta'lim tuzilmasini va ta'limni amalga oshirish shartlarini, ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy va kasbga oid sifatlari to'g'risidagi normalarni belgilaydi.

Klassifikator – oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir. Unda quyidagi o'nta bilim sohasi nazarda tutilgan:

1. Ta'lim.
2. San'at va gumanitar fanlar.
3. Ijtimoiy fanlar, jurnalistika va axborot.
4. Biznes, boshqaruv va huquq.
5. Tabiiy fanlar, matematika va statistika.
6. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.
7. Muhandislik, ishlov berish va qurilish sohalari.
8. Qishloq, o'rmon, baliqchilik xo'jaligi va veterinariya.
9. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot.
10. Xizmatlar.

Klassifikatorda ta'lim darajalari, bilim va ta'lim sohalari, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari sakkiz raqamli kod bilan belgilanadi. Kod raqamlari quyidagicha kiritiladi:



Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasiga binoan ta'lim darajasi bakalavriat yo'nalishlarida «6» raqami, magistratura mutaxassisliklarida «7» raqami bilan belgilanadi. Masalan, bakalavriat yo'nalishlari kodi 60110100, 60210200 va hokazo, magistratura mutaxassisliklari kodi 70110101, 70210202 va hokazo.

yo'nalish – 6-daraja (bosqich)ning o'quv reja va fan dasturlari bo'yicha OTM bitiruvchisi tomonidan egallangan va beriladigan «bakalavr» akademik darajasi doirasida kasb faoliyatining muayyan turini bajarishni ta'minlovchi bazaviy va fundamental bilimlar, o'quvlar va ko'nikmalar kompleksi;

mutaxassislik – 7-daraja (bosqich)ning o'quv rejalar va fanlar dasturi bo'yicha OTM bitiruvchisi tomonidan egallangan va beriladigan «magistr» akademik darajasi doirasida kasb faoliyatining muayyan turini bajarishni ta'minlovchi muayyan mutaxassislik bo'yicha bilimlar, o'quvlar va ko'nikmalar kompleksi.

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari KLASSIFIKATORI

Bilim va ta'lim sohalari, ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari nomi	Kod		TXSK-S 2013 bo'yicha kod
	Bakalavriat yo'nalishlari	Magistratura mutaxassisliklari	
	TXSK 2011 bo'yicha ta'lim darajalari		
	6-daraja	7-daraja	
TA'LIM	100 000		01
Ta'lim	110 000		011
Ta'lim yo'nalishi: Pedagogika	60110100		0111
• Pedagogika nazariyasi va tarixi (faoliyat turi bo'yicha)		70110101	0111
• Pedagogika va psixologiya		70110102	0111
• Ta'lim muassasalarining boshqaruvi		70110103	0111
• Testologiya va pedagogik o'lchovlarni baholash		70110104	0111
• Kattalar ta'limi		70110105	0111

Oliy ta'limning davlat ta'lim standartining asosiy qoidalari:

- kadrlar tayyorlash sifatiga, ta'limning mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablarni;

- ta'lim oluvchilar tayyorgarligining zarur va yetarli bilim darajasi hamda OTMlari bitiruvchilariga qo'yiladigan umumiy malakaviy talablarni;

- o'quv yuklamasining hajmini;

- ta'lim muassasalari faoliyati va kadrlar tayyorlash sifatini baholash tartiblari hamda mexanizmini belgilaydi.

Davlat ta'lim standartlari o'quv jarayonini, ta'lim muassasalari faoliyatini, kadrlar, darslik va o'quv qo'llanmalari tayyorlash sifatini baholashni tartibga soluvchi tegishli hujjatlarni (bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun malaka talablari, o'quv rejalari, o'quv dasturlari va boshqalar) ishlab chiqish uchun asos hisoblanadi.

O'quv rejalari va o'quv dasturlari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar.

"Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning 35-moddasi Ta'lim jarayoniga o'quv rejalari va o'quv dasturlarini joriy etish mazmuni bayon qilingan. O'quv rejalari va o'quv dasturlari tegishli ta'lim bosqichlarining maqsad hamda vazifalari asosida ishlab chiqiladi.

DTSda o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi belgilangan.

O'quv rejasining asosiy maqsadi – davlat ta'lim standartlari va malaka talablarida bakalavr va magistrning malakalariga qo'yilgan talablarga muvofiq yetuk va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklariga oid o'quv fanlar, ularning hajmi, mashg'ulotlar turlari, o'quv jarayonining mazmuni, tarkibi, muddatlari va o'qitishning mantiqiy ketma-ketligini belgilash hamda tartibga solishni nazarga tutadi.

O'quv rejasining asosiy vazifasi – muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha ta'lim jarayoni davomida o'quv fanlarini semestrlar va o'quv yillar tarkibida ta'lim oluvchilar tomonidan samarali o'zlashtirilishini ta'minlovchi mantiqiy ketma-ketlikda maqbul holatga keltirish, o'quv faoliyati davri, turlari, soatlar hajmi, kreditlar hamda yakuniy nazorat muddatlarini belgilash.

O'quv rejalarini ishlab chiqish, tasdiqlash va ta'lim jarayoniga joriy etish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: o'quv rejalar bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining har biri bo'yicha mazkur davlat ta'lim standarti («Oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori», bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining malaka talablariga muvofiq ishlab chiqiladi), o'quv rejalar ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklarga oid majburiy va tanlov fanlari belgilangan holda, ularning mazmun va mohiyatidan kelib chiqib, auditoriya (ma'ruza, amaliy, seminar, laboratoriya va boshqa mashg'ulotlar) va mustaqil mashg'ulotlar, o'quv va ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) amaliyotlari, kurs loyihasi, kurs ishi, ijodiy va boshqa o'quv vazifalari shaklida mantiqiy ketma-ketlikda, fanlarga ajratilgan kreditlarga amal qilgan tartibda shakllantiriladi, o'quv rejalar davomiyligi kamida 15 o'quv haftasiga teng semestrlar, har bir semestrda so'ng 2 – 4 haftalik attestatsiya sessiyalari, tegishli davomiylikdagi malaka amaliyotlari, ta'tillar va boshqa akademik jarayonlar kiritiladi. O'quv rejalar OTMlari tomonidan tayyorlanadi va tasdiqlanadi;

O'quv reja – oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi, soatlar va kreditlardagi hajmini ta'lim davrining to'liq muddati uchun belgilaydigan hujjat. O'quv dasturi esa ta'lim mazmunini belgilovchi o'quv fanining asosiy

mavzulari, mazmuni, o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan hujjat sanaladi.

Oliy ta'lim bakalavriat yo'nalishlarining o'quv rejalari va o'quv dasturlari umumiy o'rta va o'rta maxsus, professional ta'lim bilan uzviylik va uzluksizligi ta'minlangan holda oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining malaka talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv rejalar tarkibiga o'zlashtirilishi majburiy bo'lgan fanlar (majburiy fanlar) bloki va tanlab o'zlashtiriladigan fanlar (tanlov fanlari) bloki kiradi.

Bakalavr o'quv rejasining o'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar:

- majburiy fanlar bloki fanlarni chuqur o'zlashtirilishini taqozo etadi va ta'lim oluvchilarning intellektual salohiyatini boyitish, ta'lim yo'nalishi va sohaga oid zarur fundamental bilimlar, kasbiy ko'nikma, o'quv va kompetensiyalarni shakllantirishi, bitiruvchiga tanlangan yo'nalish va mutaxassislik bo'yicha kasbiy faoliyat bilan shug'ullanish hamda muayyan magistratura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga zamin yaratishi lozim.

- tanlov fanlari bloki bakalavriat yo'nalishi bo'yicha ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari kengayishini ta'minlashi, ta'lim trayektoriyalariga muvofiq kasbiy bilim va malakalarni o'zlashtirishga imkon yaratishi lozim.

Magistratura o'quv rejasining o'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan minimal talablar:

- majburiy fanlar bloki ilmiy tadqiqot metodologiyasi, ilmiy izlanish va tahlil, empirik va nazariy tadqiqot usullari, maxsus fanlarni o'qitish metodikasi, pedagogik texnologiyalar, ta'limning zamonaviy usullari, mutaxassislikka doir dolzarb va chuqur

ilmiy, metodologik, ilmiy-texnik, texnologik bilim, uquv, ko'nikma va kompetensiyalarni ta'lim oluvchilarda shakllantirishi hamda muayyan doktorantura mutaxassisligi bo'yicha kelgusida ta'limni davom ettirishga zamin yaratishi lozim;

- tanlov fanlari bloki mutaxassislik bo'yicha ta'lim oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda ilmiy, pedagogik va kasbiy kompetensiyalarini kengayishini ta'minlashi, ta'lim trayektoriyalariga muvofiq magistr darajasidagi kasbiy bilim va malakalarni o'zlashtirishga imkon yaratishi lozim;

- ilmiy faoliyat bloki ilmiy-tadqiqotlar nazariyasi va amaliyoti o'zlashtirilishini, ta'lim oluvchilar tomonidan ixtisoslashgan ilmiy va ta'lim muassasalarida muayyan ilmiy-tadqiqot va ilmiy-pedagogik ishlar bajarilishini nazarda tutishi lozim.

O'quv rejalar va o'quv dasturlar kredit-modul tizimi asosida ishlab chiqiladi. Ayrim (zarur) hollarda o'quv rejalar va o'quv dasturlar reyting (baholash) tizimi asosida ishlab chiqilishi mumkin.

Magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejaları va o'quv dasturlari mazmuni oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashning birlamchi va boshlang'ich bosqichi sifatida mutaxassislik bo'yicha chuqur fundamental va amaliy bilimlar berishni nazarda tutgan holda shakllantiriladi.

Oliy ta'lim magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejaları va o'quv dasturlari bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining o'quv rejaları va o'quv dasturlari bilan uzviylik va uzluksizligini ta'minlagan holda oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari, magistratura mutaxassisliklarining malaka talablari asosida ishlab chiqiladi. O'quv rejalar tarkibiga o'zlashtirilishi majburiy

bo'lgan fanlar (majburiy fanlar) bloki, tanlab o'zlashtiriladigan fanlar (tanlov fanlari) bloki va ilmiy faoliyat bloki kiradi.

Ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari hamda tegishli sohalarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq o'quv rejalaridagi bloklar tarkibi o'zgartirilishi mumkin.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarining o'quv rejaları va o'quv dasturlarini o'zlashtirishda ta'lim oluvchilar auditoriya mashg'ulotlari bilan bir qatorda, o'quv fanlari bo'yicha mustaqil mashg'ulotlarni bajarishi va mustaqil bilim olishi nazarda tutilishi lozim.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlarining ta'lim jarayoni va magistratura mutaxassisliklarining o'quv jarayoni o'quv rejalariga muvofiq yakuniy davlat attestatsiyasi (magistrlik dissertatsiyasining himoyasi) bilan tugallanadi.

O'quv dasturlarini ishlab chiqish va tatbiq etish tartibi, hamda o'quv dasturlarining asosiy maqsadi va vazifasi. O'quv dasturining asosiy maqsadi – davlat ta'lim standartlari va malaka talablarida bakalavr va magistrning bilimi, o'quvi, ko'nikma va kompetensiyalariga qo'yilgan talablarga muvofiq o'quv rejaga kiritilgan muayyan fan tomonidan raqobatbardosh mutaxassislarni sifatli tayyorlash uchun shakllantirilishi zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va kompetensiyalar majmuini belgilash, fan mazmuni va tarkibiy qismlarini tartibga solishdir;

O'quv dasturining asosiy vazifalari quyidagilar hisoblanadi: o'quv faniga oid ilm-fan, texnika, texnologiyalarning so'nggi yutuqlarini, ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda o'quv mashg'ulotlar mavzularini shakllantirish, ta'lim shakli va o'quv fanga ajratilgan vaqtga muvofiq o'quv materiallarni mavzular va o'quv mashg'ulotlar turlari bo'yicha taqsimlash, maqbul holatga keltirish va optimallashtirish, ularning mantiqiy ketma-ketligini hamda boshqa fanlar bilan integratsiyasini ta'minlash, uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari o'rtasidagi uzviylik va uzluksizligini, shuningdek, fanning mazmun va mavzulari

boshqa ta'lim turlaridagi hamda turdosh yo'nalishlardagi fanlarning mazmun va mavzulari bilan takrorlanmasligini ta'minlash, fanni o'zlashtirish, ta'lim oluvchilarda fanga oid kompetensiyalarni, kasbiy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish uchun zarur o'quv-uslubiy shartlar, o'quv adabiyotlar, didaktik materiallarni hamda baholash vositalari va usullari yordamida ta'lim oluvchilar bilimini nazorat qilish shakllarini belgilash.

O'quv dasturda o'quv materiallar ma'ruza, seminar, kollokvium, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari, o'quv va ishlab chiqarish (klinik, ijodiy va boshqa) amaliyotlari shaklida mantiqiy ketma-ketlikda belgilanadi, shuningdek, o'quv fanining maqsadi va vazifasiga muvofiq kurs loyihasi, kurs ishi, mustaqil ish, chizma-hisob, ijodiy, laboratoriya va boshqa ishlar ajratilgan vaqt me'yorlariga muvofiq o'quv dasturga kiritiladi.

O'quv dasturlarining nazariy va amaliy mashg'ulotlarini to'liq o'zlashtirgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan bakalavriat ta'lim oluvchilariga «*bakalavr*» akademik darajasi, magistrlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilgan, yakuniy davlat attestatsiyasidan muvaffaqiyatli o'tgan magistratura ta'lim oluvchilariga «*magistr*» akademik darajasi hamda oliy ma'alumot to'g'risidagi davlat namunasidagi rasmiy hujjatlar beriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlari («Double degree») asosida ham amalga oshiriladi. Bunda ta'lim jarayoni davlat ta'lim standartlariga tayangan holda mahalliy yoki mahalliy va xorijiy OTMlari o'rtasida tuzilgan kelishuv (shartnoma)da belgilangan talablar asosida tuziladigan hamda belgilangan tartibda tasdiqlangan o'quv reja va o'quv dasturlariga muvofiq amalga oshiriladi.

O'quv adabiyotlari va ularning tuzilishi. O'quv adabiyotlarining mazmuni ta'lim olish, mustaqil va erkin fikrlash, olingan bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish,

mukammallashtirib borish, mustaqil ta'lim olish, yangi bilimlarni o'quv adabiyotlaridan izlab topish ko'nikmalarini o'quvchi va talabalarda shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlaydi.

Elektron o'quv adabiyotlari ta'lim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirish va chuqurlashtirishga, qo'shimcha ma'lumotlar bilan ta'minlashga mo'ljallangan bo'lib, ko'pincha chuqurlashtirib o'qitiladigan fanlar bo'yicha yaratiladi.

O'quv adabiyotlarini yaratishga qo'yilgan talablarning⁵ asosiy maqsadi ta'lim tizimining barcha ta'lim turlari uchun zamonaviy o'quv adabiyotlarining shakli, turi, funksiyasi, yaratish tamoyillari va talablarini belgilash hamda o'quv adabiyotlarini yaratish jarayonida asosiy uslubiy va me'yoriy vosita bo'lib xizmat qilishdir.

O'quv adabiyotlarini yaratishga qo'yilgan talablarga ko'ra o'quv adabiyotlari oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlari, malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari asosida muayyan o'quv fani bo'yicha zarur nazariy va amaliy bilimlar, o'quv materiallari, uslubiyot va didaktik ma'lumotlar ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari, jahon tajribalari asosida tizimli bayon etilgan nashr bo'lib, asosan ikki xil shaklda tayyorlanadi:

an'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari – ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlari, o'quv materiallari va ma'lumotlar hajmi, shriftlar, qog'oz sifati, muqova turi va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda matbaa usulida tayyorlanib chop etiladigan nashr;

elektron o'quv adabiyotlari – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma'lumotlarni jamlash, tasvirlash,

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-oktabrdagi 816-son qaroriga 4-ilova «Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimi uchun o'quv adabiyotlarini yaratishga qo'yilgan talablar».

yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo'lgan elektron majmua.

O'quv adabiyotlarining quyidagi turlari mavjud: darslik, o'quv qo'llanma, uslubiy qo'llanma, uslubiy ko'rsatma, uslubiy tavsiyanoma, ma'lumotlar to'plami (banki), ma'ruzalar kursi, ma'ruzalar to'plami, mashqlar (masalalar) to'plami, lug'at, daydjest.

O'quv adabiyotlarining turlari quyidagicha ifodalanadi:

darslik – muayyan o'quv fanining mavzulari tizimli, chuqur va to'liq yoritiladigan, tegishli fan mazmunini belgilanadigan hajmda mukammal o'zlashtirishga qaratiladigan, mazmunan va shaklan ta'lim turlariga moslashtiriladigan, o'quvchi va talabalarda fanga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishiga, ijodiy qobiliyatlar rivojlanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tasdiqlanadigan asosiy o'quv nashridir;

o'quv qo'llanma – darslikni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuziladigan va mavzularni zaruriy hajmda tizimli yoritib beriladigan, fan asoslarining mukammal o'zlashtirilishini ta'minlovchi, mazmunan va shaklan ta'lim turlariga moslashtiriladigan, nazariy yoki amaliy mashg'ulotlarga mo'ljallanadigan, o'quvchi va talabalarda fanga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tasdiqlanadigan o'quv nashridir;

uslubiy qo'llanma – professor-o'qituvchilar va bilim oluvchilar uchun mo'ljallanadigan bo'lib, unda bir darsning maqsadi, dars o'tish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashg'ulotlar, qo'shimcha topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr;

uslubiy ko'rsatma – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya va amaliy ishlarni, shuningdek, bitiruvchilarning bitiruv malakaviy ishlari,

magistrlik dissertatsiyalarini bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalanadigan hamda ushbu fan bo'yicha bilim oluvchilarda zarur amaliy ko'nikmalar hosil qilishga mo'ljallanadigan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr;

uslubiy tavsiyanoma – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha mavzularning asosiy mazmunini yoki ayrim murakkab mavzular va masalalarni o'zlashtirish, nazariy va amaliy vazifalar, topshiriqlarni bajarish bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatish va pedagogik tavsiya berishga qaratilgan yordamchi o'quv adabiyoti hisoblanadigan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr;

ma'lumotlar to'plami (banki) – foydalanishga qulay shaklda yaratiladigan, muayyan fanni yoki ta'lim yo'nalishini o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan, isbot talab qilmaydigan, ilmiy ko'rsatkich va o'lchamlar, turli belgi va raqamlardan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, texnika, madaniy va boshqa sohalardagi qisqa ilmiy, amaliy, ma'lumotlardan tashkil topadigan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr;

ma'ruzalar kursi – fanning o'quv dasturi bo'yicha ma'ruzalar kursining nomi tegishli fan nomi bilan ataladigan, undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritiladigan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratiladigan, foydalanilinish uchun asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ko'rsatiladigan, o'zini o'zi nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltiriladigan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr;

ma'ruzalar to'plami – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritiladigan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratiladigan,

foydalanilinish uchun asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ko'rsatiladigan, o'zini o'zi nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltiriladigan, ilmiy-tadqiqot izlanishlari asosida muntazam yangilanib turiladigan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr;

mashqlar (masalalar) to'plami – muayyan fanning mavzulari bo'yicha amaliy mashqlar, masalalar, shuningdek, ta'riflash, ifodalash, shakllantirish, hisoblash, ishlab chiqish bo'yicha misollar keltiriladigan, mavzularga oid me'yoriy, uslubiy, sonli va tayanch ma'lumotlar bilan to'ldiriladigan, o'quvchi va talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

lug'at – aniq bir tartibda joylashgan so'zlar (yoki so'z birikmasi va hokazo) to'plami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimai to'g'risida ma'alumot beruvchi yoki so'zning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etilgan nashr;

daydjest – ilmiy, ilmiy-uslubiy, o'quv, davriy adabiyotlar, qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltiriladigan, sohalarga oid ma'lumotlar to'plami sifatida foydalaniladigan nashr.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

Nazorat savollari:

1. Ta'lim mazmuni tushunchasiga ta'rif bering.
2. Davlat ta'lim standarti ta'rifini keltiring.
3. Klassifikatorida qaysi bilim sohalari nazarda tutilgan?
4. Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatoridan ta'lim sohasiga izoh bering.
5. O'quv rejasi va o'quv dasturi haqida ma'lumot bering.
6. O'quv adabiyotlari va ularning tuzilishi haqida izoh bering?

Topshiriq:

O'quv adabiyotlarining turlariga ta'rif bering!

Namuna:

№	O'quv adabiyotlari	Ta'rfi
1.	<i>Darslik</i>	muayyan o'quv fanining mavzulari tizimli, chuqur va to'liq yoritilgan, tegishli fan mazmunini belgilangan hajmda mukammal o'zlashtirishga qaratilgan, mazmunan va shaklan ta'lim turlariga moslashtirilgan, o'quvchi va talabalarda fanga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishiga, ijodiy qobiliyatlar rivojlanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tasdiqlanadigan asosiy o'quv nashridir
2.	<i>o'quv qo'llanma</i>	
3.	<i>uslubiy qo'llanma</i>	
4.	<i>uslubiy ko'rsatma</i>	
5.	<i>uslubiy tavsiyanoma</i>	
6.	<i>ma'alumotlar to'plami (banki)</i>	
7.	<i>ma'ruzalar kursi</i>	
8.	<i>ma'ruzalar to'plami</i>	
9.	<i>mashqlar (masalalar) to'plami</i>	
10.	<i>lug'at</i>	
11.	<i>Daydjest</i>	

4-MAVZU. «PEDAGOGIKA» TA'LIM YO'NALISHI TASNIFI

Tayanch tushunchalar: «Pedagogika» bakalavriat ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyatlarining tavsifi, kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar

Pedagogika bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi. Malaka talabi oliy ta'limning Davlat ta'lim standarti, Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori, O'zbekiston Respublikasi Milliy malaka ramkasi va kasb standartlariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi. Unga ko'ra, malaka talablarining asosiy maqsadi va vazifasi kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi korxonalar, tashkilot va muassasalarning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib, oliy ta'lim bakalavriat va magistratura bitiruvchilarining bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar belgilanadi.

Kompetensiya bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlar majmuyi bo'lib, **umumiy kompetensiya** bilim, ko'nikma va malaka turlarining ko'pchiligi uchun umumiy bo'lgan masalalarni yechishda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish qobiliyati hisoblanadi.

Pedagogika bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifi. 60110100 – Pedagogika ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash milliy malaka ramkasi, kasb standartlari, kadrlar buyurtmachilari talab va ehtiyojlaridan kelib chiqib kunduzgi va kechki ta'lim shakllarida amalga oshiriladi.

Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi.

Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil. Kechki va sirtqi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4,5-5 yil bo'lishi mumkin.

Bakalavriat o'quv dasturining hajmi ta'lim shakli (kunduzgi, kechki, sirtqi), foydalaniladigan ta'lim texnologiyalaridan qat'iy nazar 240 kredit birligini tashkil etadi.

Bir o'quv yili uchun bakalavriat ta'lim dasturining hajmi 60 kreditni tashkil etadi.

Mazkur yo'nalish doirasida o'quv dasturlari o'zaro yaqin bo'lgan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari bo'yicha asosiy va qo'shimcha mutaxassislik (kvalifikatsiya) berish amalga oshirilishi mumkin. Akademik guruh tanlovi asosidagi trayektoriyaga ko'ra, kvalifikatsiya universitet ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Qo'shimcha mutaxassislik (kvalifikatsiya) uchun o'quv rejaning tanlov fanlari tarkibidan 40-60 kredit miqdorida o'quv tashkil qilinishi nazarda tutiladi.

Qo'llanish sohasi. Malaka talabi 60110100 – Pedagogika ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrlar tayyorlash o'quv reja va fan dasturlarining o'zlashtirilishini amalga oshirishda O'zbekiston Respublikasi hududidagi barcha OTMlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

- 60110100 – Pedagogika ta'lim yo'nalish bo'yicha fan, texnika va ijtimoiy soha yutuqlarini hisobga olgan holda o'quv reja va fan dasturlarini sifatli ishlab chiqish, samarali amalga oshirish va yangilash uchun mas'ul oliy OTMlarining professor-o'qituvchilari;

- ta'lim yo'nalishining o'quv reja va fan dasturlarini o'zlashtirish bo'yicha o'quv-tarbiya faoliyatini samarali amalga oshiruvchi barcha xodimlari va talabalari;

- o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan OTMlarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari);

- bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya va imtihon komissiyalari;

-
- OTMni moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
 - oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli Davlat organlari;

- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilotlar.

Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

Kasbiy faoliyatining sohalari:

- umumiy o'rta ta'lim maktab o'qituvchisi kasb standartiga muvofiq umumiy o'rta ta'limda tarbiya fani o'qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

- o'rta maxsus va professional ta'limda pedagogika fani o'qituvchisi maqomida pedagogik faoliyat olib borish;

- O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlarida hamda mustaqil tadqiqotchi sifatida ilmiy-pedagogik tadqiqot ishlari bilan shug'ullanish;

- umumiy o'rta ta'lim maktabi direktori kasb standartiga muvofiq ta'lim muassasasini boshqarish;

- mahallada yoshlar yetakchisi;

- ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida metodist bo'lib faoliyat olib borish;

- umumiy o'rta ta'lim maktabi, professional ta'lim muassasalari, oliy ta'limda laborant, kabinet mudiri sifatida faoliyat yuritish kabi kompleks masalalarni majmuasini qamrab oladi.

Pedagogika (qo'shimcha tarbiyafani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida;

- Maktabgacha va maktab ta'limi idoralarida;

- ta'limni amalga oshiruvchi vazirliklar, uning tarmoq boshqarmalari va muassasalarida;

- mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari hamda joylardagi ma'naviyat va ma'rifat markazlarida;

- davlat boshqaruv organlari, o'rta, o'rta maxsus kasbiy ta'limning davlat va nodavlat muassasalarida;

60110100 – Pedagogika ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari o'qishni tamomlagandan so'ng, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalarida, maktabdan tashqari ta'lim muassasalarida tarbiya fanlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalangan holda dars berish, pedagogika ta'lim fanlar yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida kichik ilmiy xodim bo'lib ishlash, ta'lim tizimida kabinet mudiri, laborant va unga tenglashtirilgan lavozimlarda ishlash ishlab chiqarish korxonalarida laboratoriyalarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.

Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:

- pedagogik;
- ilmiy tadqiqot;
- ma'naviy-ma'rifiy;
- tashkiliy-boshqaruv.

Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.

60110100 – Pedagogika ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

Pedagogik faoliyatida:

-o'quv jarayonini rejalashtirish: DTS va O'Dlarining maqsadlariga muvofiq o'quv reja ishlab chiqish, talabalarning ehtiyojlari va qiziqishlaridan kelib chiqib o'quv dasturlarini moslashtirish, fanlarni korrelyatsiya va integratsiya tamoyillariga ko'ra rejalashtirish, darsning aniq maqsad va natijalariga ko'ra dars rejasini ishlab chiqish, differensial yondashuv asosida dars

shakllari va usullarini rejalashtirish, o'quv, namoyish va tarqatma materiallardan foydalanishni rejalashtirish;

- **ta'lim samaradorligini ta'minlash:** dars maqsadlariga ko'ra talabalar imkoniyatidan kelib chiqib vazifalarni belgilash, dars mavzusiga mos namoyish va tarqatma materiallardan foydalanish, darsda vaqt taqsimotini to'g'ri rejalashtirish, ta'lim jarayonida AKTdan unumli foydalanish, talabalarning o'zlashtirish natijalariga ko'ra darsni tashkil etish va ta'lim berishdagi yondashuvlarning samaradorligini tahlil qilish, talabalarning ta'limiy maqsadlari va yosh xususiyatlariga mos keladigan o'qitish usullari va yondashuvlarni tanlash, o'qitishning faol usullaridan foydalanish, talabalarning asosiy kompetensiyalari va hayotiy ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan usullardan foydalanish, talabalarning jamoaviy va loyihaviy ishlarini tashkil etish o'z-o'zini nazorat qilish ko'nikmalaridan foydalanish, talabalarga differensial yordam berish, nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash, talabalarni mustaqil fikrlash imkoniyatini yaratish, darsda motivatsiyaga erishish, sinfda samarali muloqotga erishish;

- **o'zlashtirishni baholash va qayta aloqani taqdim etish:** ta'lim natijalarini baholash uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini diagnostika qilish uchun turli usul va vositalardan foydalanish, ta'lim natijalarini tahlil qilish, dars rejasi va usullarini moslashtirishda tahlil natijalaridan foydalanish, baholash mezonlarini bilishi va amalda qo'llay olishi, mavjud muammolarni aniqlay olishi va tahlil qilish, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etish;

- **tarbiyaviy faoliyatlarni tashkil etish:** tarbiyaviy ishlarning zamonaviy, interaktiv shakl va usullarini mashg'ulot hamda sinfdan tashqari ishlarda qo'llash, tarbiyaviy ishlarda talabalarning jinsi, yoshi, madaniy va individual xususiyatlarini inobatga olishi, ta'lim muassasasining ustavi va ichki tartib qoidalariga muvofiq talabalar uchun aniq odob-axloq qoidalarini o'rnatish, ijtimoiy sog'lom muhitni yarata olish,

talabalarda kognitiv faollik, mustaqillik, tashabbuskorlik, ijodkorlik fuqarolik pozitsiyasi, mehnatga layoqati, sog'lom va xavfsiz turmush tarzi madaniyatini rivojlantirish;

- **xavfsiz rivojlantiruvchi ta'lim muhitini yaratish va ta'minlash:** talabalar orasida o'zaro hurmat muhitini yaratish, talabalarga sinf hayotida teng imkoniyatlar yaratsa, nizoli vaziyatlarda optimal yechimli qaror chiqara olishi, talabalar bilan individual ishlar olib borishi, zamonaviy ommaviy axborot vositalari dunyosida xavfsiz ishlashga yordam bera olish;

- **o'z-o'zini rivojlantirish va kasbiy o'sish:** muntazam malaka oshirish kursaridan o'tish, fanga oid adabiyotlar bilan tanishib, yangi bilimlarni amaliyotda qo'llash, kasbiy faoliyat yuzasidan seminar va treninglarda ishtirok etish hamda tashkil etish, o'zaro darslarga qatnashish, darslarni tahlil qilish, ochiq darslar o'tkazish, kasbiy faoliyatda kerakli o'zgarishlarni amalga oshirish;

- **hamkasblar va ta'lim oluvchilarning ota-onalari (ularning o'rnini bosuvchi shaxslar) bilan hamkorlik o'rnatish:** talabalarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) ta'lim jarayoniga maktab hayotiga jalb qilish, talabalarning ota-onalarini (ularning o'rnini bosuvchi shaxslarni) talabalarni rivojlanishi va ta'lim muhiti to'g'risida qaror qabul qilishda ishtirok etishga jalb etish, tarbiyaviy muammolarni hal qilishda va talabalarni hayotga tayyorlashda boshqa pedagogik xodimlar va mutaxassislar, jamoat tashkilotlari va bo'limlari (Yoshlar ittifoqi) bilan hamkorlik qilish;

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- pedagogika sohasida ilmiy-tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta'lim yo'nalishidagi fanlar va ularni o'qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;

- tarbiya fanlariga doir internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish va topish hamda amaliyotga bevosita tadbiiq etish;

- tarbiya fanini o'qitish metodikasi ta'lim yo'nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to'plamlar, mahalliy va che'el ilmiy-tadqiqot yutuqlarini o'rganish;

- ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

- ma'lumotlarni jamlash, qayta tayyorlash, mavzu bo'yicha ilmiy ma'lumotlarni tizimli tahlil qilish;

- pedagogikaga doir tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tatbiq etish qobiliyatlariga ega bo'lishi kerak.

Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatida:

- talabalarda mafkuraviy va axborot xurujlariga qarshi immunitetni yuzaga keltirish metod va texnologiyalarini bilishi;

- globallashuv sharoitida kechayotgan jarayonlarda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining o'zni va ta'siri haqida tushuntirish ishlarini olib borish;

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatda:

- pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim jarayonlari monitoringi va sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

- jamoada ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda to'g'ri qaror qabul qilish;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash qobiliyatlariga ega bo'lish.

Pedagogika ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar. Bitiruvchi quyidagi **umumniy kompetensiyalarga** ega bo'lishi lozim:

- shaxsiy o'sishga intilishni shakllantirish va obyektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;

- ona tilida o'z fikrlarini tizimli va erkin bayon etish, ilmiy matnlar bilan ishlash, ommaviy nutq so'zlash uchun ona tili va chet tillaridan birida yozma va og'zaki nutq ko'nikmalarini egallaganlik;

- axborotni olish, saralash, saqlash va qayta ishlash metod, usul va vositalaridan foydalanish va mediasavodxonlik; global kompyuter tarmoqlar bilan ishlash ko'nikmalariga egalik;

- ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish, ilmiy bilish yutuqlariga erishish tamoyillarini anglash;

- gigiyena, mehnat muhofazasi va tashqi ta'sirlardan himoya qilish qoidalari talablariga muvofiq, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishga qobiliyatlilik.

Kasbiy kompetensiyalar:

- o'quv-tarbiya jarayonini modellashtirish va uni ta'lim amaliyotiga tatbiq etish;

- ta'lim jarayoni subyektlarining birgalikdagi hamkorlikdagi faoliyati va shaxslararo o'zaro harakatini tashkil etish usullarini egallaganlik;

- kasbiy vazifalarni hal etishda fanlararo bog'liqlikni amalga oshirish, shuningdek, nazariy va amaliy uyg'unligini, uzviylik va uzluksizligini ta'minlash;

- tanqidiy fikrlash metodikasini o'zlashtirganlik;

- tarbiya darslarida vatanparvarlik, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi ko'nikmalarni shakllantirish;

- inklyuziv ta'limga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi; uzoq vaqt davolanishga muhtoj talabalar bilan ishlash (gospital pedagogika) texnologiyasiga ega bo'lishi;

- ta'lim oluvchilarga o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashuvchanlikka doir kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam beradigan va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga imkon beradigan natijaviylik va mobillikka yo'naltirilgan o'qitishga qobiliyatlilik..

Umumkasbiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashni o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketligida kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tashi hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amalga oshiriladi.

Majburiy fanlar – bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar – ta'lim yo'nalishi doirasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, qo'shimcha kvalifikatsiya olishga xizmat qiladigan, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

Kunduzgi ta'lim shaklida tahsil oluvchi talabalarning 4+2 tartibdagi malakaviy amaliyoti 3-8 semestrlarda amalga oshiriladi. Bunda haftaning 4 kunida nazariy va amaliy ta'lim, 2 kunida amaliy o'tkaziladi.

Ta'lim yo'nalishi kvalifikatsiya bo'yicha **Pedagog. Tarbiya fani o'qituvchisi**, deb belgilangan.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

Nazorat savollari:

1. Pedagogika bakalavriat ta'lim yo'nalishining umumiy tasnifini keltiring.

2. Pedagogika ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining tavsifini keltiring.

3. Pedagogika ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari nimalardan iborat?

4. Pedagogika ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari nimalardan iborat?

1-topshiriq:

Quyida «Pedagogika» ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarni keltiring.

Namuna:

No	Kompetensiyalar	Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar
1.	<i>Umummadaniy kompetensiyalar</i>	- shaxsiy o'sishga intilishni shakllantirish va obyektiv baholash, shuningdek, ta'lim oluvchilarning intellektual rivojlanish darajasini oshirish ko'nikmalariga ega bo'lish; - ijtimoiy va kasbiy vazifalarni hal etishda umumkasbiy va mutaxassislik fanlarning asosiy qoidalari va metodlaridan samarali foydalana olish;
2.	<i>Kasbiy kompetensiyalar</i>	
3.	<i>Fanga doir kompetensiyalar</i>	

2-topshiriq:

Pedagogika ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kvalifikatsiyalarini keltiring_____

5-MAVZU. MUTAXASSISLIK FANLARINING QISQACHA MAZMUNI

Tayanch tushunchalar: fan haqida qisqacha ma'lumot, pedagogika fanining paydo bo'lishi va uning rivoji, fanning asosiy tushunchalari, pedagogika fan tarmoqlari, majburiy va tanlov fanlar.

Fan haqida qisqacha ma'lumot. Fan yoki ilm-fan ilmiy metod bilan to'plangan bilimlarning tartibli tizimidir. Fan – dunyo haqidagi bilimlar tizimi, ijtimoiy ong shakllaridan biri. U yangi bilimlarni egallash bilan bog'liq faoliyatni ham, bu faoliyatning mahsuli – olamning ilmiy manzarasi asosini tashkil etuvchi bilimlarni ham o'z ichiga oladi, inson bilimlarining ayrim sohalari ni ifodalaydi. Fanning bevosita maqsadi – o'zining o'rganish predmeti hisoblangan voqelikning qonunlarini kashf etish asosida shu voqelikning jarayon va hodisalarini ta'riflash, tushuntirish, oldindan aytib berishdir. **O'quv fani** – ta'lim jarayonida muayyan ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan tegishli ilmiy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy sohalardan saralab olingan bilim va ko'nikmalar tizimi; **o'quv fani** – ta'lim muassasalarida o'rganish uchun fan, texnika, ishlab chiqarish faoliyatining muayyan sohasidan saralab olingan bilim, o'quv va ko'nikmalar tizimi;

Pedagogika fanining paydo bo'lishi va uning rivoji. Pedagogika ijtimoiy fan sifatida falsafa fanidan alohida soha bo'lib ajralib chiqqan. «Pedagogika» atamasi Qadimgi Yunonistonda (miloddan avvalgi 5 – 4-asrlar) paydo bo'lgan. Pedagogika o'z nomini yunoncha «paidos» – bola va «ago» – yetakchilik so'zlaridan oldi. So'zma-so'z tarjimada «pedagogika» so'zi «bola yetaklovchi» degan ma'noni anglatadi. Qadimgi Yunonistonda o'qituvchi o'z xo'jayinining bolasini maktabga kuzatib boradigan, unga sinfda va sinfdan tashqarida xizmat qiladigan qul edi. Jamiyat rivojlanishi bilan o'qituvchining roli

sezilarli darajada o'zgardi, bu tushuncha kengroq ma'noda bolani hayot davomida boshqarish san'ati – o'qitish, tarbiyalash, ma'naviy va jismoniy rivojlantirish san'atiga nisbatan qo'llanila boshladi. Pedagogika – shaxsni tarbiyalash, o'qitish, ta'lim berish haqidagi fan. Pedagogika ijtimoiy tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq yosh avlodga ta'lim berish va tarbiyalashning mohiyati va muammolarini tadqiq etuvchi ta'lim hamda tarbiya jarayonini yaxlit tarzda o'rganadigan fan sifatida belgilanadi. Fanning obyektini belgilashda falsafaning obyektiga murojaat qilinadi. Jumladan, falsafa insonning dunyoda tutgan o'rni va dunyoqarashining yaxlit tizimini ifodalovchi ma'naviy faoliyatining bir shakli sifatida namoyon bo'ladi, fanning obyekti olam va odam rivojlanish jarayonlarini qamrab oladi. Pedagogika fanining obyektini ta'lim va tarbiya tashkil etadi. **Fanning predmeti** ongli va maqsadli tashkil etilgan yaxlit pedagogik jarayon hisoblanadi. Pedagogikaning mazmun va mohiyatidan kelib chiqib, uning **sakkizta** asosiy vazifasini ajratib ko'rsatish mumkin. Ular quyidagilar:

- ta'lim tizimini boshqarishda ta'lim, tarbiya va o'qitishning obyektiv qonuniyatlarni aniqlash;
- ta'lim tizimi rivojlanishini asoslash;
- ta'lim tizimlarining keyingi rivojlanishini prognozlash;
- ta'lim va tarbiyaning yangi mazmuni va unga mos shakl, metod, vosita, o'qitish, tarbiyalash, va boshqarishni ishlab chiqish;
- zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini amaliyotga joriy etish;
- pedagogik tadqiqotlar natijalarini ta'lim muassasalari amaliyotida o'rganish va joriy etish;
- pedagoglar faoliyatining xususiyatlari va mazmunini hamda ularning kasbiy mahoratini rivojlantirish yo'llarini o'rganish;

- turli ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat tajribasini o'rganish va umumlashtirish.

Pedagogika ikki muhim bo'g'in: ta'lim nazariyasi (didaktika) va tarbiya nazariyasiga bo'linadi. Fan yangi bilimlar bilan to'ldirilsagina rivojlana oladi. Olingan bilimlarning obyektivligi birinchi navbatda tadqiqot metodologiyasini tanlashga bog'liq. **Metodologiya** (yunoncha *metodos* – tadqiqot yoki bilish yo'li, nazariya, ta'limot va *logos* – so'z, tushuncha): 1) bilishning ilmiy metodi haqidagi ta'limot; 2) har qanday fanda qo'llaniladigan usullar majmui. Pedagogika metodologiyasi pedagogik bilimlar va shu bilimlarni olish jarayoni haqidagi ta'limotdir, ya'ni pedagogik bilim. Bunga quyidagilar kiradi: 1) pedagogik bilimlarning tuzilishi va funksiyasi haqidagi ta'limot; 2) uslubiy ma'noga ega bo'lgan boshlang'ich, asosiy, fundamental, falsafiy, umumiy ilmiy-pedagogik qoidalar (nazariyalar, tushunchalar, farazlar); 3) pedagogik bilish metodlari haqidagi ta'limot.

Fanning metodologiyasi o'zida pedagogikaning nazariy asoslari va tuzilmasi haqidagi bilimlar tizimini, pedagogik hodisa va jarayonlarni tadqiq qilishga doir yondashuvlarini, pedagogik voqelikni haqqoniy ifoda etadigan axborotlarni olish usullarini, shuningdek, mazkur bilimlar tizimini qo'lga kiritishga doir faoliyat tizimini o'zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, fan metodologiyasi tadqiqotning tarkibiy qismlarini tavsiflaydi: maqsad, obyekt va mavzu, tadqiqot vazifalari, tadqiqot farazlari va ilmiy tadqiqot apparatining boshqa tarkibiy qismlari; ularni hal qilish uchun zarur bo'lgan tadqiqot usullari va vositalar to'plami, shuningdek, tadqiqot muammolarini hal qilish jarayonida tadqiqot harakatining bosqichlari, mantiqiyliги haqida tasavvur hosil qiladi. Umuman olganda, metodologiya ilmiy-tadqiqot va amaliy faoliyatni qanday amalga oshirishni ko'rsatadi.

Ta'lim va tarbiya mazmunini boyitishda:

muhaddislar – Imom al-Buxoriy, Imom Termiziy; o'rta asrlar

olim va mutafakkirlari – Muso al-Xorazmiy, Ahmad Fargʻoniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Aziziddin Nasafiy, Nosiriddin Tusiy;

allomalar – Yusuf Xos Xojib, Mahmud Koshgʻariy, Ahmad Yugnakiy, Saʻdiy Sheroziy, Pahlavon Mahmud;

soʻfiy faylasuflar – Ahmad Yassaviy, Imom Gʻazzoliy, Mahmud az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Fariduddin Attor, Jaloliddin Rumi;

arboblar – Amir Temur, Mirzo Ulugʻbek, Zahiriddin Muhammad Bobur;

shoiralar – Abdurahmon Jomiy, Jaloliddin Davoniy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy;

jadid maʼrifatparvarlari – Munavvar Qori, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Choʻlpon, Saidrasul Saidazizov, Abduqodir Shakuriy, Hamza Hakimzoda, Isʼhoqxon Ibrat;

oʻzbek pedagogikasi dargʻalari – Siddiq Rajabov, Rahimjon Usmonov, Oysha Toʻrayeva, Rahima Mavlonova, Malla Ochilov, Ochil Roziqov, Yoʻldosh Jumaboyev, Komiljon Hoshimov, Najmiddin Komilov, Sulton Rahimov, Jaloliddin Hasanboyev, Ergash Choriyev, Dilara Sharipova, Komil Zaripov, Lola Moʻminova, Joʻra Yoʻldosh, Qazoqboy Yoʻldoshev, Abdurashid Munavvarov, Oʻsarbay Aleyov, Oynisa Musurmonova, Farid Yuzlikayev, Shukrullo Mardonov, Baxtiyor Adizov, Shirinboy Olimov, Shermat Avazov va boshqa koʻpgina tadqiqotchi-olimlarning xizmatlarini keltirib oʻtish mumkin.

Pedagogika (qoʻshimcha tarbiya fani oʻqituvchisi) taʼlim yoʻnalishi boʻyicha oʻqitiladigan majburiy va tanlov fanlar. Oʻquv fanlari bloki – oʻquv rejalarida belgilangan fanlar majmualari, qoida tariqasida «majburiy fanlar» bloki va «tanlov fanlari» blokiga ajratiladi.

Quyida «Pedagogika (qoʻshimcha tarbiya fani oʻqituvchisi)» taʼlim yoʻnalishi boʻyicha majburiy va tanlov fanlar keltirilgan.

Majburiy fanlar – Pedagogika nazariyasi va tarixi, pedagogika nazariyasi, xalq pedagogikasi, yunogogika; ijtimoiy pedagogika, oila pedagogikasi, inklyuziv ta'lim (Hospital pedagogika), pedagogik mahorat, tarbiya fanini o'qitish metodikasi, tarbiyaviy faoliyat diagnostikasi va korreksiyasi, kreativ pedagogika, pedagogik texnologiya, uzluksiz ta'limda zamonaviy tendensiyalar;

Tanlov fanlar – milliy tarbiya asoslari, evtagogik ta'lim, pedagogik innovatika, tarbiyaviy ish texnologiyalari, pedagogik kompetentlik, tarbiyaviy ishlarni boshqarish, pedagogik ritorika, art pedagogika, komparativistik pedagogika, ijtimoiy ish asoslari, badiiy pedagogika, raqamli pedagogika, ta'lim tizimini boshqarish, iqtidorli bolalarni o'qitish texnologiyasi, tarbiyada kouch trening, neyropedagogika, pedagogik valeologiya, pedagogik kvalimetriya, muzey pedagogikasi, pedagogik aksiologiya.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qitiladigan majburiy fanlar mazmuni:

Pedagogika nazariyasi va tarixi: *Pedagogika nazariyasi* bu pedagogik jarayonlar, hodisalar haqidagi pedagogik g'oyalar, qonuniyatlar, tamoyillar va tushunchalar ko'rinishida taqdim etilgan ilmiy bilimlar tizimi bo'lib, pedagogik jarayon va hodisalarning amal qilishi, rivojlanishi va o'z-o'zini rivojlanishini yaxlit tasvirlash, tushuntirish va bashorat qilish imkonini beradi; *Pedagogika tarixi* – bu ta'lim amaliyoti va pedagogik bilimlarning tarixiy rivojlanishini ularning birligida, shuningdek, ta'lim va pedagogika fanining zamonaviy muammolari bilan bog'liq holda o'rganadigan fan sohasi.

Xalq pedagogikasi – ko'pchilikning tarixiy va ijtimoiy tajribasi mahsuli sifatida avloddan avlodga, asosan, og'zaki tarzda o'tkaziladigan, amaliyotda to'plangan va sinovdan o'tgan empirik bilim, ko'nikma va malakalar majmuidir.

Yunogogika – yosh shaxsning ijtimoiy rivojlanishini pedagogik ta'minlashni o'rganadigan, yoshlarga pedagogik ta'sir ko'rsatishning pedagogik texnologiyalari va usullarini ishlab chiqadigan pedagogikaning sohasi hisoblanadi. Yunogogika – o'smirlik davridagi shaxsga o'z-o'zini anglash va uning ijtimoiy yo'naltirilgan tafakkurini shakllantirish jarayonida pedagogik ta'sirni o'rganadigan, shuningdek, yosh o'g'il va qizlarning ijtimoiylashuvi va tarbiyasi jarayonlariga xizmat qiluvchi pedagogika sohasi.

Ijtimoiy pedagogika – bu pedagogikaning shaxs tarbiyasi va shakllanishiga ijtimoiy muhitning ta'sirini o'rganadigan, ijtimoiy muhitning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda shaxsni tarbiyalashni optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiquvchi pedagogika bo'limi.

Oila pedagogikasi – bu oilada bolani tarbiyalash haqidagi fan bo'lib, bunday tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va ota-onalar uchun bola bilan to'g'ri munosabatlarni o'rnatish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqadi.

Inklyuziv ta'lim – davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar, ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimi.

Gospital pedagogika – uzoq muddatli davolanishda bo'lgan va sog'ligi sababli ta'lim muassasalariga bora olmaydigan bolalar uchun ta'limni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan pedagogika bo'limi.

Pedagogik mahorat – kasbiy pedagogik faoliyatni o'z-o'zini tashkil etishning yuqori darajasini ta'minlaydigan shaxsiy xususiyatlar majmuasi.

Tarbiya fanini o'qitish metodikasi – tarbiya fanini o'qitish metodikasining nazariy asoslariga oid bilimlar, metodik jihatdan pedagogik jarayonni samarali tashkil etishga oid amaliy ma'lumotlar majmui.

Tarbiyaviy faoliyat diagnostikasi va korreksiyasi – talabalarni ijtimoiy fazilatlarni shakllantirishda tarbiyaviy diagnostika va korreksiya qilishning nazariy asoslari, ijtimoiy faoliyat jarayonida sodir bo'ladigan o'zgarishlarida tarbiyaviy korreksiyalash metodlariga oid amaliy ma'lumotlar majmui.

Kreativ pedagogika – ijodiy o'rganish fani va san'ati, talabalarni ijodiy o'rganishga, o'z-o'zini yaratuvchisi va kelajagini yaratuvchisi bo'lishga o'rgatadigan pedagogika fanining bir turi.

Pedagogik texnologiya – bu konseptual jihatdan bog'liq bo'lgan ta'lim maqsadlarini, ta'lim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning turli shakllari, vositalari, usullarini birlashtirgan metodlardan iborat murakkab tizimdir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qitiladigan tanlov fanlar mazmuni:

Milliy tarbiya asoslari – ijtimoiy-tarixiy, qonuniy va obyektiv jarayon sifatida, O'zbekistonda milliy tarbiya g'oyasining tiklanishi va rivojlanishi, milliy tarbiya tizimini joriy qilinishining nazariy va amaliy yo'nalishlari haqida, milliy qadriyatlar mazmuni, milliy va ommaviy madaniyat tushunchalariga oid bilim berish.

Evtagogik ta'lim – 1) yunoncha so'zlardan tuzilgan: εὐρετικός (evretikos) kashf qilmoq, bilib olmoq, tan olmoq, εφευρετικός (efevretikos), εὔρημα (evrema) «topmoq» ma'nosini bildiradi. 2) yunoncha ἀγω (ago) – «yetaklash»ga qaytadi. Evtagogika mualliflari tomonidan kattalar ta'limini tashkil etishda yangicha yondashuv asosida o'z-o'zini tarbiyalash to'g'risidagi ta'limot sifatida (XXI asrda mustaqil ravishda qanday o'rganish kerakligi haqidagi ta'limot) qaraydilar.

Pedagogik innovatika – pedagogikaning ta’lim subyektlari bilan bog’liq holda pedagogik yangiliklarning tabiati, paydo bo’lish va rivojlanish qonuniyatlarini o’rganadigan, shuningdek, pedagogik an’analar va kelajakdagi ta’limni loyihalash o’rtasidagi bog’liqlikni ta’minlovchi sohasi.

Tarbiyaviy ish texnologiyalari – kelajak avlodni ma’naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalashda innovatsion tarbiya texnologiyalari qonuniyatlarini, jahon tarbiya konsepsiyalari namunalarining qiyosiy tahlilini, ta’lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarning mazmuni va mohiyati haqidagi fan.

Pedagogik kompetentlik – o’qituvchining muayyan qadriyatlar, ideallar va pedagogik ong tashuvchisi sifatida uning pedagogik faoliyati, pedagogik muloqoti va o’qituvchi shaxsining shakllanishini belgilovchi zarur bilim, ko’nikma va ko’nikmalarga ega bo’lishi.

Tarbiyaviy ishlarni boshqarish – tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish va boshqarish faoliyatiga sifatli tayyorlaydigan fan sohasi.

Pedagogik ritorika – bu ritorikaning bir bo’limi bo’lib, o’qituvchining to’g’ri, uyg’un, samarali nutq talaffuzi ko’nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni o’rganish bilan shug’ullanadigan alohida ilmiy sohadir.

Art pedagogika – pedagogika va san’atning uyg’unlashuviga asoslangan, ta’lim va inson kamoloti qonuniyatlarini san’at orqali o’rganuvchi pedagogika fanining sohasi.

Komparativistik pedagogika: 1. Komparativistik pedagogika bilim sohasi va o’rganish predmeti sifatida (qiyosiy pedagogika tushunchasi, uning obyekti, predmeti, vazifalari va funksiyalari, milliy ta’lim tizimi tushunchasi, qiyosiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari). 2. Komparativistik pedagogikaning metodologik asoslari. (Komparativistik pedagogikada uslubiy yondashuvlar, Komparativistik

pedagogika usullari). 3. Komparativistik pedagogikaning bilim va fan sohasi sifatida rivojlanishining asosiy bosqichlari.

Ijtimoiy ish asoslari – bu odamlar va ijtimoiy guruhlariga qo'llab-quvvatlash, himoya qilish, tuzatish va ijtimoiy reabilitatsiya qilish orqali shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berishga qaratilgan professional faoliyat. U yolg'iz nafaqaxo'rlar va nogironlarga yordamni ham, shuningdek, qiynalgan bolali oilalar, uysizlar, giyohvandlar, ichkilikka berilganlar va ruhiy kasallarga yordamni ham o'z ichiga oladi.

Badiiy pedagogika – bu insonning estetik tarbiyasi haqidagi fan bo'lib, avlodlar o'rtasida ma'naviy va hissiy tajribani o'tkazishni, shuningdek, san'atning turli sohalarida badiiy ijod tajribasini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Raqamli pedagogika – bu turli raqamli texnologiyalarni (kompyuterlar, gadjetlar, dasturiy ta'minot va boshqalar) o'z ichiga olgan pedagogik jarayon bo'lib, natijada ta'lim xizmatlarining yuqori sifatini ta'minlaydi.

Ta'lim tizimini boshqarish – (ingliz tilidan *management* – boshqaruv, tashkilot) ta'limni professional boshqarish tamoyillari, vositalari, usullari tizimi.

Iqtidorli bolalarni o'qitish texnologiyasi – talabalarda iqtidorli bolalarni samarali psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashga hissa qo'shgan holda iqtidorli bolalar bilan o'zaro munosabat madaniyati sohasida nazariy bilim, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlaydi.

Tarbiyada kouch trening – bu guruh birlashmasi doirasida amalga oshiriladigan talaba rivojlanishining individual dasturi bo'lib, o'zlashtirish natijasi eng maqbul va eng qisqa yo'l bilan ko'zlangan maqsadlarga erishish qobiliyatini amalga oshirishdir.

Neyropedagogika – bu miyaning rivojlanishi, o'rganish va o'qitishning samarali usullari, o'quv materialini o'zlashtirish jarayonlarida miyani tashkil etish, o'ziga xos xususiyatlarni

hisobga olgan holda o'quv jarayonini qurishga qaratilgan amaliy fanlararo ilmiy soha.

Pedagogik valeologiya – rivojlanishning turli yosh bosqichlarida salomatlik va sog'lom turmush tarziga qat'iy hayotiy munosabatda bo'lgan shaxsni tayyorlash va tarbiyalash masalalarini o'rganadi.

Pedagogik kvalimetriya – (lat. *qualis* - nima, qanday sifat va *metor* – o'lchov) pedagogik innovatsiyalar va umuman, pedagogik faoliyat sifatini miqdoriy baholash metodologiyasi va muammolarini o'rganuvchi fan.

Muzey pedagogikasi – muzeyshunoslik, pedagogika va psixologiya, muzeyni ta'lim tizimi sifatida ko'rib chiquvchi pedagogika sohasi.

Pedagogik aksiologiya – bu pedagogik bilimlarning katta yo'nalishi bo'lib, u ta'lim qadriyatlarini shaxsning ichki qiymatidan ko'rib chiqadi va ta'limning o'ziga xos qiymatidan kelib chiqqan holda, umuman olganda, ta'limga qiymatli yondashuvlarni amalga oshiradi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

Nazorat savollari:

1. Fan haqida qisqacha ma'lumot bering.
2. Pedagogika fanining paydo bo'lishi va uning rivoji haqida ma'lumot bering.
3. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qitiladigan majburiy va tanlov fanlar haqida ma'lumot keltiring.
4. Bakalavr o'quv rejasining o'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar nimalardan iborat?
5. Magistratura o'quv rejasining o'quv fanlari bloklari mazmuniga qo'yiladigan umumiy talablar nimalardan iborat?

1-topshiriq:

Pedagogika ta'lim yo'nalishi bo'yicha majburiy va tanlov fanlarni keltiring!

Namuna:

№	Fan bloklari	Fanlar
1.	<i>Majburiy fanlar</i>	Pedagogika nazariyasi va tarixi – pedagogika nazariyasi, xalq pedagogikasi, yunogogika; ijtimoiy pedagogika, oila pedagogikasi, ...
2.	<i>Tanlov fanlar</i>	Raqamli pedagogika – bu turli raqamli texnologiyalarni (kompyuterlar, gadjetlar, dasturiy ta’minot va boshqalar) o’z ichiga olgan pedagogik jarayon bo’lib, natijada ta’lim xizmatlarining yuqori sifatini ta’minlaydi.

2-topshiriq:

Fanlar ta’rifini keltiring!

Namuna:

Ijtimoiy pedagogika - bu pedagogikaning shaxs tarbiyasi va shakllanishiga ijtimoiy muhitning ta’sirini o’rganadigan bo’limi; ijtimoiy muhitning o’ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda shaxsni tarbiyalashni optimallashtirish bo’yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiquvchi pedagogika bo’limi.

Oila pedagogikasi - _____

Padagogik mahorat - _____

Padagogik ritorika - _____

6-MAVZU. OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TALABALAR BILIMINI BAHOLASH VA NAZORAT QILISH

Tayanch tushunchalar: Kredit-modul tizimi, kredit-modul tizimining asosiy tushunchalari va o'quv jarayonini tashkil etish tartibi, modul bo'yicha o'zlashtirish sifatini baholash, talabalar bilimini baholash mezonlari, talaba trayektoriyasi.

Kredit-modul haqida qisqacha ma'lumot. *Kredit-modul tizimi* – bu ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlanmasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Uni bir butunlikda olib borish serqirra hamda murakkab tizimli jarayondir. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarning mustaqil ishlashini ta'minlash hamda talabalar bilimini reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy *vazifalari* sifatida quyidagilar e'tirof etiladi:

- o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish;
- bitta fan, kurs (kredit)ning qiymatini aniqlash;
- talabalar bilimini reyting bali asosida baholash;
- talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;
- ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim olishning ulushini oshirish;
- ta'lim dasturlarining qulayligi va mehnat bozorida mutaxassisga qo'yilgan talabdan kelib chiqib o'zgartirish mumkinligi.

Yuqoridagilar dars mashg'ulotlarini nafaqat o'qitishni innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida olib borish, balki talabadan mustaqil o'qib-o'rganish, ta'limga yangicha munosabatda bo'lish, mehnat bozori talabidan kelib chiqib, zaruriy va chuqur nazariy bilimlarni egallash, amaliy

ko'nikmalarini shakllantirishga o'rgatishdan iboratdir. Muxtasar aytganda, mazkur tizim talabaning kasbiy rivojlanishi va kamolotiga yo'naltirilgan. Ilm sohibining butun hayoti davomida bilim olishini ta'minlashga hamda mehnat bozori va zamonaviy talablarga javob bera oladigan inson kapitalini shakllantirishga qaratilgandir.

Modul va kredit tushunchalarining mohiyati:

Modul – bu bir nechta fan hamda kurslar o'rganiladigan o'quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma'lum bir bilim va ko'nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo'lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi. Bunda o'qituvchi o'quv jarayonini tashkil qiladi, jonli, video hamda audioma'ruzalar o'qiydi, talabaning faoliyatini muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Talaba esa mavzuni mustaqil o'rganadi hamda berilgan topshiriqlarni bajaradi.

Xorijiy tajribaga ko'ra, kredit-modul tizimida o'quv jarayoni har semestrda 2-4 tagacha moduldan iborat bo'ladi. Modulda jamlangan fanlar osondan murakkablik sari, nazariy-uslubiy fanlardan amaliy fanlarga qarab hamda mantiqiy jihatdan bir-birini o'zaro uzviy to'ldirish prinsipi asosida shakllantiriladi. Talaba mutaxassis bo'lib shakllanishi uchun nafaqat axborotlar, balki ularni qayta ishlash, amaliyotga joriy qila olish malakasiga ega bo'lishi talab etiladi.

Modulga asoslangan o'quv dasturlari maxsus sxema asosida ishlab chiqiladi va quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- o'quv maqsadi hamda vazifalarning to'liq ochib berilishi;
- talabaning fanni (kursni) boshlashi va tugatishidan keyingi orttirishi lozim bo'ladigan malakasiga qo'yiladigan talablar;
- modul tarkibiga kirgan har bir fanning qisqacha mazmuni (sillabus), ya'ni ma'ruzalar mavzulari, seminar va amaliy mashg'ulotlarning rejas, mustaqil ta'limni baholash uchun mo'ljallangan topshiriqlar;

- o'qitishning qisqacha bayoni, ta'lim berish usul hamda vositalari;

- bilimlarni baholashning usul va shakllaridan iborat.

Modul asosida o'qitish tizimida talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasini baholashda reyting baholash tizimidan foydalaniladi. Unda talabaning barcha o'quv faoliyati, ya'ni auditoriya va auditoriyadan tashqarida olgan, o'zlashtirgan bilimlari ball berish orqali baholanadi.

Kredit (credit) – talabaning alohida ta'lim yo'nalishi yoki dasturi (kurs) bo'yicha fanlarni o'qib-o'rganishi va o'zlashtirishi uchun sarflangan o'quv yuklamasining (vaqtning) o'lchov birligidir. Kredit – talabaning me'yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta'lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o'lchovidir. Talabaga kredit ma'lum bir fandan belgilangan topshiriqlarni bajarib, yakuniy imtihondan muvaffaqiyatli o'tgandan so'ng beriladi.

Har bir talaba kelajakda tanlagan yo'nalishi va mutaxassisligi bo'yicha diplomga ega bo'lishi uchun kreditlarni yig'ib borishi lozim. To'plangan kredit talabaga butun umr davomida o'zining malakasini oshirib borish yoki qo'shimcha oliy ma'alumot olishiga xizmat qilib boraveradi. Iqtisodiy tilda aytganda, to'plangan kredit talabaning akademik «*aktiv*» (*faoliyati*)ga aylanib boradi.

Kredit texnologiyasi ta'lim oluvchilarga ishchi o'quv rejaga kiritilgan tanlov fanlarini tanlash, bu orqali individual o'quv rejasini shakllantirishda bevosita ishtirok etish huquqini beradi. Ularga nafaqat fanlarni, balki professor-o'qituvchilarni ham tanlash erkinligi beriladi. Talabalarga fanlarni tanlash imkoniyatining berilishi ijobiy hol sanaladi. Bu o'quv jarayonlarini baholashning o'ziga xos qiymat ko'rsatkichi bo'lib ham hisoblanadi.

Kredit ilk marotaba XVIII va XIX asrlarda AQSh universitetlarida joriy etilgan bo'lib, o'quv jarayonlarini

liberalizatsiya qilish, talabaning haftalik akademik yuklamasini belgilab berish maqsadida yaratilgan.

1869-yilda Garvard universiteti prezidenti, Amerika ta'limining taniqli arbobi Charlz Uilyam Eliot «kredit soati» tushunchasini iste'molga kiritadi. Shunday qilib, 1870 – 1880-yillarda kredit soatlari bilan o'lchanadigan tizim joriy qilinadi. Kredit tizimi bilan o'qish va o'quv dasturlarini o'zlashtirish talabalarga o'quv jarayonini mustaqil ravishda rejalashtirish, uning sifatini nazorat qilish, ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish uchun imkoniyat yaratib berdi.

Kredit to'plash o'lchovining kiritilishi talabaga katta erkinlik berish bilan bir qatorda, kelajakda tanlagan sohasining raqobatbardosh mutaxassisi bo'lib yetishishi uchun akademik jarayonni mustaqil rejalashtirish imkonini ham taqdim etdi. Ayni chog'da, baholash tizimi va ta'lim texnologiyalarining takomillashishiga ham olib keldi.

Bolonya deklaratsiyasida ko'zda tutilganidek, kredit-modul tizimi aynan mustaqil ta'limga urg'u qaratgani holda, asosan, ikkita funksiyani bajarishga xizmat qiladi:

birinchisi, talabalar va o'qituvchilarning mobilligini, ya'ni bir OTMdan boshqa OTMga to'siqlarsiz, erkin ravishda o'tishini (o'qishni yoki ishni ko'chirish)ni ta'minlaydi;

ikkinchisi, talabaning tanlagan ta'lim yo'nalishi yoki mutaxassisligi bo'yicha barcha o'quv va ilmiy faoliyati uchun akademik yuklama – kredit aniq hisoblab boriladi. Kredit yig'indisi talabaning tanlagan dasturi bo'yicha nimani qancha o'zlashtirganligini namoyon etadi.

Bolonya deklaratsiyasi (*ortga nazar*). Bugungi kunda ta'lim tizimiga daxldor bo'lgan kishilar tomonidan Bolonya tizimi, uning ahamiyati bo'yicha turli fikr-mulohazalarni eshitib qolamiz.

Xo'sh, bu qanday tizim? Uning qanday afzalligi va salbiy jihatlari mavjud?

Mavzuning mantiqiy davomi sifatida fikrlarimizni davom ettiramiz.

Ushbu tizimni yaratish uchun o'tgan asrning 70-yillaridan Yevropadagi barcha OTMlarining integratsiyasini ta'minlash, oliy ta'limning yagona standartini yaratish, talabalar va o'qituvchilar mobilligini yo'lga qo'yish, diplomlarni tan olish, talabalar bilimi, malakasi hamda ko'nikmasiga qo'yiladigan ballarni unifikatsiya qilish bilan bog'liq bir qator muammolarni yechishga qaratilgan sa'y-harakatlar boshlab yuboriladi.

Mazkur harakatlarning samarasi o'laroq, 1999-yilda Italiyaning Bolonya shahrida 29 ta mamlakat vakillari tomonidan Bolonya deklaratsiyasi imzolanadi.

Bugungi kunga kelib, Bolonya jarayonida 48 ta mamlakat ishtirok etadi. Ularning orasida MDH mamlakatlaridan Rossiya, Ukraina, Ozarbayjon, Moldova, Armaniston, Gruziya, Qozog'iston va Belarus Respublikasi ham bor.

Bolonya tizimi bo'yicha oliy malakali kadrlarni tayyorlash ikki bosqichda amalga oshiriladi: odatda uch yildan kam bo'lmagan bakalavrlar tayyorlash hamda 1-2 yillik magistratura bosqichi.

Ko'pgina ekspertlar Bolonya deklaratsiyasining qabul qilinishiga salohiyatli, iqtidori yuqori bo'lgan talabalarni egallash, mehnat bozorida ularning bilimni qadrlash bo'yicha AQSH bilan kechgan raqobatda Yevropa OTMlarining imkoniyatlari cheklanganligi, ko'plab «aql sohiblari»ning ko'hna qit'ani tark etib, Amerikaga ko'chib ketish tendensiyasiga qarshi ko'rilgan chora asosiy sabab bo'lganini e'tirof etadi.

Ta'limning kredit-modul tizimi⁶. GPA (Grade Point Average) – ta'lim oluvchining dastur bo'yicha o'zlashtirgan ballari o'rtacha qiymati bo'lib, u quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda 824-son qaroriga 1-ilovasi «Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida» nizom

$$\text{GPA} = \frac{K_1 \cdot U_1 + K_2 \cdot U_2 + K_3 \cdot U_3 \dots + K_n \cdot U_n}{K_1 + K_2 + K_3 \dots + K_n}, \quad \text{bunda:}$$

K – har bir fan/modulga ajratilgan kreditlar miqdori;

U – har bir fan/modul bo'yicha talaba to'plagan baho;

Kredit-modul tizimi asosiy tushunchalari va o'quv jarayonini tashkil etish tartibi.

akademik mobillik – OTM talabalarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldagi boshqa bir OTMga o'qish maqsadida borishi;

mobillik dasturi – ikki yoki undan ortiq OTM o'rtasida o'zaro ta'lim to'g'risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi;

kredit – ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba tomonidan muayyan fan bo'yicha o'zlashtirilgan o'quv yuklamasining o'lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun, kasr sonlarda ifodalanishi mumkin;

kreditlarni berish – malaka yoki uning alohida qismlariga qo'yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta'lim olish natijalariga ko'ra talaba yoki boshqa ta'lim oluvchilarga kreditlarni rasmiy taqdim etish jarayoni;

kreditlarni ko'chirish – talabalarining akademik mobilligini ta'minlash maqsadida bir OTM ta'lim dasturi bo'yicha olingan kreditlarni boshqa OTMga ko'chirish va tan olish;

kredit to'plash – ta'lim elementlarini o'zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to'plash;

ta'lim dasturi – bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv jarayonini amalga oshirishga mo'ljallangan ta'limning asosiy xususiyatlari (hajmi, mazmuni, rejalashtirilgan natijalar), tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, fan dasturlariga qo'yilgan umumiy talablar, shuningdek, ta'limni tashkil etish va amalga oshirish uchun zarur bo'lgan axborot-resurs va o'quv-metodik ko'rsatmalar majmui;

ta'lim dasturi katalogi – OTM tavsifi, kredit-modul tizimiga kirish, mavjud bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, xizmatlar va resurslar, o'quv fanlari dasturlari, aniq ta'lim dasturlari elementlari tavsifi to'g'risidagi axborot;

ta'lim natijalari – talaba tomonidan o'zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli tugallagach talaba o'zlashtirgan ko'nikmalar va ularni amalda bajarish qobiliyatining tavsifi;

ro'yxatga olish xizmati – ta'lim jarayonini boshqarish axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlardan foydalanib professor-o'qituvchilar, xodimlar va talabalar bo'yicha ta'lim jarayoniga oid ma'lumotlar bazasini shakllantirishni, shuningdek, talabalarning barcha o'quv natijalarini ro'yxatga olish, bilimni nazorat qilish hamda ularning akademik reytingini hisoblashning barcha turlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi xizmatlar;

ta'lim elementlari – ta'lim dasturining bir qismi bo'lib, ta'lim olish natijalariga erishish va ta'lim dasturida ko'rsatilgan bilimlarni o'zlashtirishga ko'maklashuvchi o'qitish turi;

transkript – ta'lim olishning tegishli davrida o'zlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi ko'rsatib o'tilgan fanlar ro'yxatini o'z ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat.

Ta'lim dasturi tuzilmasi. O'quv yili uchun ta'lim dasturi tuzilmasi bir yoki bir nechta modullardan iborat ta'lim elementlaridan tashkil topgan bo'lib, OTM kengashi tomonidan tasdiqlanadi. Ta'lim dasturi auditoriya mashg'ulotlari, ilmiy loyihalar, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish amaliyoti va boshqa ta'lim elementlaridan iborat bo'lishi mumkin.

Ta'lim dasturi tuzilmasi uning har bir ta'lim elementiga mos keladigan ta'lim olish natijalari (kamida 6 ta ko'rsatkich)ni ko'rsatgan holda bir akademik o'quv yiliga 60 kredit mos kelishini hisobga olib ishlab chiqiladi. Ta'lim dasturida kreditlarning miqdori o'quv yuklamasi asosida ko'rsatiladi.

Talabalarning ta'lim dasturini muvaffaqiyatli o'zlashtirishi hamda talab qilingan malakaga ega bo'lishi uchun talablar aniq belgilanadi. O'zlashtirish qoidalari tanlangan ta'lim dasturi bo'yicha o'qitishning turli bosqichlari uchun belgilangan kreditlar miqdorida yoki kreditlar oralig'ida ifodalanishi mumkin.

Ta'lim dasturining talabalar tomonidan muvaffaqiyatli bajarilishiga yordam berish uchun OTMning tegishli bo'linmalari va xodimlari, shu jumladan, ta'limning kredit tizimini boshqarishga mas'ul boshqarma yoki bo'limi, guruh murabbiyi (tyutor) tomonidan maslahat va tushuntirishlar berib boriladi. Maslahat doirasida talabalarga ta'lim olish natijasida erishgan yutuqlar va tajribani tan olish imkoniyatlari tushuntiriladi.

OTM ta'lim dasturi katalogi va o'qitish sharoitlari to'g'risidagi batafsil ma'lumotlar hamda dolzarb axborotni OTM veb-sahifasiga qulay yuklanadigan formatda o'quv yili boshlanishidan kamida bir oy oldin joylashtirishi va e'lon qilib borishi shart.

Ta'lim dasturi va uning elementlarini amalga oshirishga mas'ul o'qituvchilar ta'lim dasturida ko'rsatilgan o'qitish natijalari bilan dars berish va baholash jarayoni o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlashlari lozim. O'qitish natijalari, dars berish va baholash jarayoni o'rtasidagi ushbu konstruktiv bog'liqlik ta'lim dasturlariga qo'yiladigan muhim talab hisoblanadi.

Ta'lim elementlarining amalga oshirilishiga mas'ul professor-o'qituvchilar ta'lim dasturida ko'rsatilgan natijalar bilan ta'lim berish hamda baholash jarayonlari o'rtasidagi mutanosiblikni ta'minlashi lozim.

Modul bo'yicha o'zlashtirish sifatini baholash va o'quv jarayonini rejalashtirish, monitoring olib borish va ta'lim sifatini ta'minlash.

Semestr davomida talaba tomonidan to'planishi lozim bo'lgan kreditlar miqdori o'quv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o'z ichiga oladi. Majburiy fanlar tarkibi va ularni o'rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori tayanch OTM

tomonidan belgilanadi. Tanlov fanlari tarkibi va ularni o'rganishga ajratiladigan kreditlar miqdori OTM tomonidan mustaqil belgilanadi.

O'quv yili davomiyligi 36 haftagacha bo'lib, shundan 30 haftasi akademik davrga, 2 haftasi fanlarni tanlash uchun ro'yxatdan o'tishga, 4 haftasi attestatsiyalarga ajratiladi. O'quv yili davomiyligi o'quv jarayoni jadvaliga muvofiq OTM kengashining qarori bilan o'zgacha tartibda belgilanishi mumkin.

Kredit-modul tizimida 1 kredit o'rtacha 25 – 30 akademik soatlik o'quv yuklamasiga teng. Ya'ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to'plashi uchun ma'lum miqdordagi o'quv yuklamasini o'zlashtirishi zarur. O'quv yuklamasi bakalavriatda 40-50% auditoriya soati, 50-60% mustaqil ish soatiga, magistraturada esa 30%-40% auditoriya soati, 60-70% mustaqil ish soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo'linadi. Kredit soatlardagi miqdori va o'quv yuklamasi miqdori OTM kengashi tomonidan belgilanadi va OTM veb-sahifasida shaffof tarzda joylashtiriladi.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklarida talaba odatda bir semestrda 30 kredit, bir o'quv yilida 60 kredit to'plashi belgilanadi. Semestr davomida talaba tomonidan o'zlashtirilishi lozim bo'lgan kreditlar hajmi o'quv rejasida ko'rsatilgan majburiy va tanlov fanlarini o'z ichiga oladi. Talaba o'zining shaxsiy ta'lim trayektoriyasini shakllantirishda har bir semestr uchun 30 kredit hajmdagi fanlarni o'zlashtirishni nazarda tutishi, ular tarkibida namunaviy o'quv rejasidagi majburiy fanlar bo'lishi shart.

Talaba bakalavriatda o'qish muddati kamida 3 yil bo'lganda 180 kredit, o'qish muddati kamida 4 yil bo'lganda 240 kredit to'plashi zarur. Magistraturada o'qish muddati kamida 1 yil bo'lganda 60 kredit, o'qish muddati kamida 2 yil bo'lganda 120 kredit to'plashi talab etiladi.

O'quv jarayonining monitoringi ta'lim olishning belgilangan natijalariga erishish, nominal mehnat hajmi hamda ularning haqqoniyligi va mosligini baholash maqsadida o'tkaziladi.

Ta'lim sifati samaradorligini ta'minlash OTM tomonidan amalga oshiriladigan bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari ta'lim dasturining vakolatli tashkilotlar tavsifnomalari va talablariga moslikni ta'minlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Ta'lim sifatini oshirish va professor-o'qituvchilar o'rtasida raqobatni shakllantirish maqsadida OTM kengashi qaroriga asosan talabalarga fan doirasida professor-o'qituvchilarni tanlash imkoniyati beriladi. Bunda talabalar ta'limni boshqarish axborot tizimi portali orqali o'quv semestri boshida 1 hafta muddat davomida o'zi tanlagan professor-o'qituvchining mashg'ulotida qatnashish uchun onlayn tarzda ro'yxatdan o'tadi.

Akademik qarzdor talabalarining tashabbusi bilan mavjud akademik qarzlarni topshirish maqsadida yozgi semestr OTM tomonidan odatda ta'til vaqtida pulli asosda tashkil etiladi.

Yozgi semestrning davomiyligi akademik taqvim asosida bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, magistratura mutaxassisliklari va kurslar bo'yicha belgilanadi.

Yozgi semestr quyidagi reglament asosida tashkil qilinadi:

talaba yozgi semestr boshlanguniga qadar OTM o'quv-metodik bo'limi (boshqarmasi)ga o'zining yozgi semestrda o'qishi istagini bildiradi;

OTM ushbu talabalarga yozgi semestr uchun dars jadvalini tuzadi va talaba to'lov pulini to'laganidan so'ng darslarga kiritiladi;

yozgi semestr amaldagi baholash tizimi asosida talabalar bilimini shaffof baholash tamoyiliga ko'ra tashkil qilinadi.

Yozgi semestrga jalb qilingan professor-o'qituvchilarga soatbay asosida ish haqi to'lanadi.

Akademik mobillik va kreditlarni tan olish. Akademik mobillikni ta'minlash va talabaning kreditlari OTM tomonidan tan olinishida quyidagi hujjatlardan foydalaniladi:

fanlar katalogi;

belgilangan shakldagi ta'lim to'g'risidagi kelishuv, ma'lumotnoma va sertifikat.

Mazkur hujjatlar ta'lim olish natijalarini aks ettiradi va OTMga kreditlarni tan olish va ko'chirib o'tkazish uchun asos hisoblanadi.

Talaba tomonidan OTM ta'lim dasturi bo'yicha to'plangan kreditlar miqdori boshqa OTMda belgilangan ta'lim olish natijalariga muvofiq o'zlashtiriladigan kreditlar miqdoriga teng hisoblanadi.

Talaba jo'natuvchi OTM tavsiyasiga asosan qabul qiluvchi OTMga akademik mobillikni amalga oshirish uchun zarur hujjatlarni topshiradi. Jo'natuvchi OTM tomonidan talabaga belgilangan shakldagi transkript taqdim etiladi.

Talabaning akademik mobillik davrida o'zlashtirilishi belgilangan ta'lim elementlarini jo'natuvchi OTMning roziligisiz va u bilan kelishmasdan o'zgartirish mumkin emas. Xorijdagi hamkor OTMlari, markazlar va tashkilotlarning ta'lim dasturlarida belgilangan ta'lim olish natijalari jo'natuvchi OTMning ta'lim dasturi bo'yicha ta'lim olish natijalariga mos kelishi yoki ularni to'ldirishi lozim. Mobillik vaqtida akademik yil ko'rsatkichlari tahlil qilinadi va ushbu Nizomga asosan kreditlar tan olinishi belgilanadi.

Qabul qiluvchi OTMda talaba tomonidan o'zlashtiriladigan o'quv elementlarining to'plami va ular OTMning ta'lim dasturiga integratsiya qilinganligi ta'lim to'g'risidagi kelishuvda aniq ko'rsatilgan bo'lishi lozim. Qabul qiluvchi OTMda o'zlashtiriladigan kreditlar miqdori xorijda o'qish davriga (3-6 oy yoki 1-3 yil) mutanosib bo'lishi kerak. Jo'natuvchi OTM tomonidan mobillik davrida talabaning o'zlashtirgan (to'liq yoki qisman) kreditlari tan olinadi. Talaba jo'natuvchi OTMga qaytib

kelgach, mobillik davrida to'plangan kreditlar miqdoridan kelib chiqqan holda amaldagi tartib-qoidalar asosida uni keyingi kursga o'tkazish yoki kursda qoldirish belgilanadi.

OTM akademik mobillik dasturi bo'yicha rejalashtirilgan ta'lim elementlarini o'zlashtirish uchun talabani belgilangan shakl asosida ro'yxatdan o'tkazadi va mobillik davrida ushbu elementlarni o'zlashtirish imkoniyatlari ta'minlanishi majburiyatini oladi.

Hamkor universitetlar, markazlar va tashkilotlar bilan birgalikda ishlab chiqilgan ta'lim dasturlari doirasida akademik mobillik uchun ta'lim to'g'risidagi kelishuvlarni tuzish zarur hisoblanmaydi.

Ta'lim to'g'risidagi kelishuvga muvofiq akademik mobillik davrida talabaning bilim darajasini aniqlovchi ko'rsatkichlar OTMlarining baholash tizimini boshqa baholash tizimlariga konvertatsiya qilish jadvali asosida qabul qilinadi.

Stajirovkani o'tash bo'yicha kelishuv talaba, OTM va qabul qiluvchi tashkilot tomonidan uch tomonlama imzolanadi.

Stajirovka davomida talaba tomonidan o'zlashtirilgan bilimlarning oshkoraligini ta'minlash va ularni tasdiqlash maqsadida qabul qiluvchi muassasa tomonidan stajirovkani o'taganlik to'g'risida sertifikat beriladi.

Talabalar bilimni baholash mezonlari. Talaba trayektoriyasi.

Baholash, baholarni konvertatsiya qilish. Talabalar ta'lim dasturi doirasida o'qitish shaklidan qat'iy nazar, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi.

Fan dasturida (sillabusda) belgilangan baholash tartibi hamda ijobiy baholar doirasida baholangan talabalarga kreditlar beriladi. Talaba belgilangan ta'lim olish natijalariga erisha olmagan taqdirda, kreditlar berilmaydi.

Quyida baholarni konvertatsiya qilish jadvali (5 ballik tizimdan foizga) keltirilgan (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Baholarni konvertatsiya qilish jadvali (5 ballik tizimdan foizga)

5 balli	100 % shkala	5 balli	100 % shkala	5 balli	100 % shkala
5,00 – 4,96	100	4,30 – 4,26	86	3,60 – 3,56	72
4,95 – 4,91	99	4,25 – 4,21	85	3,55 – 3,51	71
4,90 – 4,86	98	4,20 – 4,16	84	3,50 – 3,46	70
4,85 – 4,81	97	4,15 – 4,11	83	3,45 – 3,41	69
4,80 – 4,76	96	4,10 – 4,06	82	3,40 – 3,36	68
4,75 – 4,71	95	4,05 – 4,01	81	3,35 – 3,31	67
4,70 – 4,66	94	4,00 – 3,96	80	3,30 – 3,26	66
4,65 – 4,61	93	3,95 – 3,91	79	3,25 – 3,21	65
4,60 – 4,56	92	3,90 – 3,86	78	3,20 – 3,16	64
4,55 – 4,51	91	3,85 – 3,81	77	3,15 – 3,11	63
4,50 – 4,46	90	3,80 – 3,76	76	3,10 – 3,06	62
4,45 – 4,41	89	3,75 – 3,71	75	3,05 – 3,01	61
4,40 – 4,36	88	3,70 – 3,66	74	3,00	60
4,35 – 4,31	87	3,65 – 3,61	73	3,0 dan kam	60 dan kam

Baholash usullari fan yoki modul doirasidagi talabaning yutuqlarini aks ettiruvchi va tasdiqlovchi yozma, ogʻzaki, amaliy ish, loyiha, portfolio va nazoratlar kabi turlarni oʻz ichiga qamrab oladi. Baholash mezoni taʼlim olish natijasiga erishilganligini aks ettirishi shart.

Kreditlarni koʻchirish OTMda baholash tizimini boshqa baholash tizimlariga konvertatsiya qilish jadvalini boshqa OTMda tuzilgan shunga oʻxshash jadval bilan solishtirish asosida amalga oshiriladi.

Talabalarni oʻqishdan chetlashtirish, qayta tiklash, kursdan kursga oʻtkazish mexanizmlari. Bir fanga ajratilgan auditoriya soatining 25 foizini va undan ortiq soatni sababsiz qoldirgan talaba ushbu fandan chetlashtirilib, yakuniy nazoratga

kiritilmaydi hamda mazkur fan bo'yicha tegishli kreditlarni o'zlashtirmagan hisoblanadi. Yakuniy nazorat turiga kiritilmagan yoki kirmagan, shuningdek, ushbu nazorat turi bo'yicha qoniqarsiz baho olgan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalar ta'til vaqtida yoki keyingi semestrlar mobaynida tegishli fanlardan o'zlashtirilmagan kreditlar miqdoriga mos ravishda bazaviy to'lov-kontrakt miqdoridan kelib chiqqan holda to'lovni amalga oshirgandan so'ng o'zlashtirilmagan fanlarni o'z hisobidan qayta o'qish huquqiga ega bo'ladi.

Ta'lim oluvchini kursdan kursga o'tkazish uning GPA qiymatini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. OTM talabalarni kursdan kursga o'tkazishda GPA ko'rsatkichini mustaqil belgilash huquqiga ega. Bunda GPA ko'rsatkichi 2,4-3,0 oralig'ida bo'lishi talab etiladi. GPA o'tish ballini to'play olmagan talaba qayta o'qish uchun tegishli kursda qoldiriladi. Semestr va o'quv yili yakuni natijalari bo'yicha akademik qarzdorligi bor ta'lim oluvchilar o'qishdan chetlashtirilmaydi. Kursdan kursga qolgan talabalar faqat qarzdor bo'lgan fanlarni o'zlashtirib ularga mos ravishda shartnoma mablag'larini to'laydi. Shartnoma asosida bir kursda qayta o'qish soni chegaralanmaydi. Jami ta'lim olish muddati bakalavriat uchun 1 kursga o'qishga qabul qilinganidan so'ng 8 yilgacha, magistratura uchun 1 kursga o'qishga qabul qilinganidan so'ng 4 yilgacha deb belgilanadi.

Ta'lim oluvchi O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari asosida o'qishni qayta tiklash va ko'chirish huquqiga ega. Ta'lim oluvchi tomonidan chetlashtirilgunga qadar o'zlashtirgan kreditlar miqdori OTM tomonidan to'liq hajmda hisobga olinadi.

Talaba trayektoriyasi. Ta'lim yo'nalishi bo'yicha majburiy va tanlov fanlar uchun keltirilgan fan katalogida fanning kodi, fanning nomi, fanning qisqa tavsifi, kredit miqdori, semestr hamda professor-o'qituvchilar familiyasi ismi sharifi, ilmiy

unvoni va darajasi keltiriladi. Quyida fan katalogi jadvali keltirilgan (2-jadvalga qarang).

2-jadval

Fan katalogi

T/r	Fanning kodi	Fanning nomi	Fanning qisqa tavsifi	Kredit miqdori	Semestr	Professor-o'qituvchilar: F.I.Sh., ilmiy unvoni va darajasi
Majburiy fanlar						
Tanlov fanlar						

O'quv yili boshida kredit haftaligida, ta'lim yo'nalishi kesimida talabalar shaxsiy ta'lim trayektoriyasi so'rovnoma asosida belgilab olinadi va bir yillik talabanning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi shakllantiriladi. Talabalar shaxsiy ta'lim trayektoriyasida belgilangan tanlov fanlari doirasida fanlarni mustaqil tanlashi mumkin.

Talabanning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi – talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'nalish (marshrut). Ta'lim trayektoriyasi institutsional hujjatlar va yo'riqnomalar yordamida tuzilishi hamda turli ta'lim trayektoriyalari natijada bir xil malaka olishga olib kelishi mumkin. Quyida talabanning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi jadvali keltirilgan (3-jadvalga qarang).

Talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi

Ta'lim oluvchining shaxsiy kodi		
Familiyasi		
Ismi		
Sharifi		
Ta'lim yo'nalishi / mutaxassisligi		
O'quv yili		
Uy manzili		
Telefon raqami		
Muassisning F.I.Sh.		
Kafedra		
Telefon raqami		
Majburiy fanlar	Tanlov fanlari	
	E'lon qilingani	Muqobili
	1.	1.
	2.	2.
	3.	3.
	4.	4.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

Nazorat savollari:

1. Kredit-modul tizimiga ta'rif bering.
2. GPA (Grade Point Average)ga izoh bering.
3. Kredit-modul tizimi o'quv jarayonini tashkil etish tartibini bayon eting.
4. Akademik mobillik va kreditlarni tan olish mazmuni.
5. Talabalar bilimini baholash mezonlari nimalardan iborat?
6. Talaba trayektoriyasiga ra'rif bering.

Topshiriq:

Kredit-modul tizimi asosiy tushunchalariga ta'rif bering!

Namuna:

Tushuncha	Ta'rif
<i>akademik mobillik</i>	OTM talabalarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldagi boshqa bir OTMga o'qish maqsadida borishi;
<i>mobillik dasturi</i>	
<i>Kredit</i>	
<i>kreditlarni berish</i>	
<i>kreditlarni ko'chirish</i>	
<i>kredit to'plash</i>	
<i>ta'lim elementlari</i>	
<i>Transkript</i>	

7-MAVZU. TALABALARNING AUDITORIYA VA AUDITORIYADAN TASHQARI FAOLIYATINI TASHKIL QILISH

Tayanch tushunchalar: talabalarning auditoriyadagi va auditoriyadan tashqari faoliyatini tashkil etish.

Mustaqil ta'lim natijalarini baholash fan (modul)ning umumiy baholash (100 ballik) tizimida aks ettiriladi va fan dastur (sillabus)ning baholash mezonlarida unga ajratilgan ball aniq ko'rsatib qo'yiladi.

O'qishi ko'chirilgan yoki tiklangan talabalar o'zlashtirilmagan fan (modul)larni qayta o'qish tartibida o'zlashtiradi. Istisno tariqasida, fanning semestrda yuklamasi 6 (olti) kreditdan oshmaydigan akademik farqli fan (modul)lar

talabaning arizasiga ko'ra va dekan roziligi bilan 100% mustaqil ta'lim shaklida o'zlashtirilishi mumkin.

Talabalarning mustaqil ta'limni tashkil etishdan asosiy maqsad fan (modul) bo'yicha o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlash, boyitish, amaliy ko'nikma va malakalarni takomillashtirish, axborot bilan ishlash, o'z-o'zini rivojlantirish, kognitiv, kreativ, hamkorlikda ishlash kompetensiyalarini shakllantirishdan iboratdir.

Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish quyidagi vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga xizmat qilishi lozim:

- talabalarda o'z-o'zini rivojlantirish, mustaqil bilim olish va innovatsion faoliyatni shakllantirishga imkon beruvchi kompetensiyalarni egallash maqsadi bilan bog'liqlikda mustaqil o'quv faoliyatini amalga oshirish;

- bilim, ko'nikma va malakalarni mustaqil egallash, muammoni shakllantira olish va uni hal etishning maqbul yo'llarini izlab topishga qobiliyatli, kreativ shaxsni tarbiyalash;

- talabalarda o'quv dasturini o'zlashtirishga doir motivatsiyani hosil qilish;

- ta'lim oluvchilarda bilim olishga doir mas'uliyatni oshirish;

- talabalarda umummadaniy va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishga imkon berish;

- ta'lim oluvchilarda mustaqil bilim olish, o'z-o'zini boshqarish va o'z-o'zini rivojlantirishga qobiliyatlilikni shakllantirish uchun sharoit yaratish.

Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish jarayonini boshqarish. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish jarayonini boshqarishga o'quv-uslubiy boshqarma, dekanat (registrator ofis), kafedra bevosita mas'uldir. Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi esa mazkur jarayonni monitoring qilish vakolatiga egadir.

Mustaqil ta'lim jarayonini tashkil etishda o'quv-uslubiy

boshqarma quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- o'quv rejalarida mustaqil ta'lim uchun ajratilgan kreditlarning to'g'ri taqsimlanishini amalga oshirish;

- fan (modul)lar bo'yicha tuzilgan fan dasturi (sillabus)da mustaqil ta'limni tashkil etishga doir uslubiy ko'rsatmalar hamda namuna tarzidagi mustaqil o'qib-o'rganish uchun mavzularning aniq aks ettirilishini nazorat qilish;

- talabalar mustaqil ta'limini tashkil etish jarayonlarining borishi, mustaqil ish topshiriqlari va uning belgilangan talablarga mos bajarilishini muntazam o'rganib borish;

- talabalar mustaqil o'quv faoliyati natijalarining elektron tizimda qayd etib borilishi monitoringini yuritish.

Dekanat (registrator ofis) tomonidan talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

- ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklar)da talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish. Jumladan, professor-o'qituvchi va talabalarning hamkorlikda ishlashi, kontakt soatlari uchun alohida auditoriya ajratish, mustaqil ishlarni topshirish va baholash grafiklarini ishlab chiqish tavsiya etiladi;

- talabalar mustaqil ishlarining bajarilishini elektron tizim orqali monitoring qilib borish, o'quv-uslubiy boshqarmaga belgilangan muddatlarda ma'lumotnoma taqdim etish;

- mustaqil ish natijalarining o'rnatilgan tartibda qayd etilishini nazorat qilish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish;

- mustaqil ish natijalari yuzasidan professor-o'qituvchi va talaba o'rtasidagi nizolarning oldini olish hamda moderatsiya texnologiyasini qo'llash;

- ta'lim yo'nalishlari (mutaxassisliklar)dan kelib chiqib mustaqil ta'limni amalga oshirish holati bo'yicha oraliq muddatlarda talabalar o'rtasida onlayn so'rovlar o'tkazish va

tezkor choralar ko'rish.

Kafedra tomonidan talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda quyidagi jihatlarga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi:

- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil o'qib-o'rganishga doir mavzularni shakllantirish va kafedra yig'ilishi (metodik birlashmasi)da muhokama qilish;

- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil o'qib-o'rganishga doir mavzularni o'quv dasturlarida to'g'ri va aniq aks ettirish;

- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ta'limga ajratilgan soatlarning mustaqil ish tarzida bajarilishi ko'zda tutilgan o'quv birligi hajmi (kredit)ni belgilash va kafedra yig'ilishida tasdiqlash;

- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ish turlari va shaklini belgilash hamda fan dastur (Syllabus)da aks ettirish;

- mustaqil ish uchun ajratilgan ballarni 5 baholik mezon (100 ballik tizimi) doirasida belgilash, ballarni ish turlari bo'yicha taqsimlash;

- kafedra yig'ilishlarida fan (modul)lar bo'yicha mustaqil ish topshiriqlarining bajarilishini muhokama qilib borish va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni o'z vaqtida bartaraf etish.

Mustaqil ta'limni amalga oshirishga doir professor-o'qituvchi hamda talabalarning vazifa va majburiyatlari. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishda professor-o'qituvchilar quyidagi vazifa va majburiyatlarni amalga oshirishi lozim:

- fan (modul) bo'yicha fan dastur (Syllabus)da o'quv rejasida ko'zda tutilgan kredit (soat)ga muvofiq mustaqil o'qib-o'rganish uchun mavzular va mustaqil ish topshiriqlarini aniq aks ettirish;

- mustaqil ishlar va topshiriqlarning aqliy faoliyat (tahlil, sintez, taqqoslash, solishtirish, umumlashtirish)ni taqozo etishini ta'minlashi;

- fan dastur (syllabus)da mustaqil o'qib-o'rganish uchun

tavsiya etilgan mavzularni o'zlashtirish va mustaqil ish topshiriqlarini bajarishga doir metodik ko'rsatmalar, baholash mezonlari va muddati, maslahat olish uchun kontakt soatlarini ko'rsatib qo'yishi;

- fan (modul) bo'yicha talabalarning kichik guruhlardagi hamkorlik faoliyatini tashkil etish hamda jamoada ishlash natijalari bo'yicha so'rovlar o'tkazish. Mazkur jihat talabalarning hamkorlikdagi ishlari natijalarini baholashda hisobga olinishi;

- kurs ishi mavzulari bankini tuzishda mustaqil ta'lim mazmunini ham aks ettirishi;

- oraliq va yakuniy nazorat savollarini tuzishda mustaqil ta'lim uchun tavsiya etilgan mavzularni ham nazarda tutishi;

- mustaqil ish topshiriqlarining bajarilishini elektron tizim (platforma) orqali nazorat qilib borishi, tekshirishi va baholashi, natijalarni o'z vaqtida talabalarga yetkazishi. Kichik guruhlarda hamkorlikda bajarilgan mustaqil ishlar taqdimotini o'tkazishi, kongruyentlik («hozir va shu yerda») tamoyiliga rioya qilgan holda talabalarning yutuq va kamchiliklarini aniqlashtirishi va natijalarini e'lon qilishi;

- professor-o'qituvchi fan dasturi (syllabus)da belgilangan kontakt vaqtida mustaqil ish bo'yicha talaba murojaati asosida maslahat va amaliy tavsiyalar berib borishini nazorat qilishi;

- talabalarning mustaqil o'zlashtirishlari uchun qo'shimcha o'quv materiallari, ularning mazmuniga doir mustaqil ish mavzulari va topshiriqlar tayyorlashi hamda talabalarga ularni bajarishlari uchun tegishli ko'rsatmalar berib borishi.

Mustaqil o'qib-o'rganish va mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda talabalar quyidagi vazifa va majburiyatlarni amalga oshirishi lozim:

- fan (modul)lar bo'yicha mustaqil o'qib-o'rganish uchun tavsiya etilgan mavzularni to'liq o'zlashtirishi va mustaqil ish topshiriqlarini belgilangan muddatlarda sifatli tarzda taqdim etishi;

- mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda plagiat (ko'chirmakashlik)ga yo'l qo'ymasligi;

- mustaqil ish topshiriqlarini bajarishga kreativ yondashishi, mustaqil, tanqidiy va innovatsion fikrlash, axborotlar bilan ishlash kompetentligiga ega bo'lishi, o'z-o'zini rivojlantirishga intilishi;

- kichik guruhlarda hamkorlikdagi mustaqil ish topshiriqlarini bajarishda jamoaning umumiy maqsadiga mos harakat qilishi, o'ziga yuklatilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi, jamoada ishlay olish kompetensiyasini o'zlashtirishi.

Mustaqil ishga qo'yilgan baho (ballar) bo'yicha e'tirozlar bo'lgan taqdirda, talaba belgilangan muddat tugaganidan keyin 24 (yigirma to'rt) soat (1 sutka) davomida dekanat (registrator ofis)ga elektron platforma orqali ariza bilan murojaat qilishi mumkin;

Mustaqil ta'limni tashkil etish turlari va shakllari. Talabalarning mustaqil ta'limi quyidagi turlarda tashkil etilishi lozim: auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish; auditoriyadan tashqari vaqtda mustaqil ish topshiriqlarini bajarish; fan (modul) bo'yicha mavzularni mustaqil ravishda Axborot-resurs markazlari, uyi (talabalar turar joylari)da o'qib-o'rganish.

Auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish quyidagi shakllarda amalga oshiriladi:

- ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish;

- seminar-konferensiyalarga tayyorgarlik ko'rish;

- kollokviumlarga tayyorgarlik ko'rish;

- ko'p so'raladigan savollar (FAQ-frequently asked questions) orqali o'zini qiziqtirgan muammolarga o'rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash;

- forumlarda ishtirok etish – fan mavzulari bo'yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta'lim platformalarida fikr

almashish;

- web-kvest – o'rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan (modul)ga oid bilimlarini mustahkamlash;

- nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rish;
- sinov (zachyot)ga tayyorgarlik ko'rish;
- imtihonga tayyorgarlik ko'rish.

Auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar quyidagi turlarda amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

- dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlar (masalan, esse) da yozma bayon qilish;

- ma'ruzalar tayyorlash;
- kurs ishi yozish;
- konspekt yozish;
- glossariy tuzish;
- individual va jamoaviy o'quv loyihasi tuzish;
- keys-topshiriqlarini bajarish;
- mavzuli portfoliolar tuzish;
- axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash;
- manbalar bilan ishlash;
- infografika tuzish;
- chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish;

- multimediali taqdimotlar yaratish;
- darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash;
- darsdan tashqari mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash;

Ta'lim yo'nalishi (mutaxassislik)ning xususiyatidan kelib chiqqan holda mustaqil ishlarning boshqa turlaridan foydalanish mumkin.

Mustaqil ishlarni tashkil etishda axborot texnologiyalaridan quyidagi maqsadlarda foydalanish tavsiya etiladi:

1. Tarmoqdan axborot izlash – web-brauzer, ma'lumotlar bazasidan foydalanish, axborot-qidiruv, axborot-ma'lumotnoma

tizimlari, avtomatlashgan kutubxona tizimlari, elektron jurnallardan foydalanish;

Axborot izlash va unga ishlov berishga doir mustaqil ishlarga quyidagilar kiradi: mavzu bilan bog'liq saytlarga taqriz yozish, ma'lum mavzuga doir tarmoqdagi mavjud referatlarni tahlil etish, ularni baholash; ma'ruza rejasiga doir o'z variantini yoki uning ma'lum bir qismini yozish, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatini tuzish, amaliy mashg'ulotlardan lavha tayyorlash, mavzuga doir ma'ruza tayyorlash, mavzuga doir munozara o'tkazish, professor-o'qituvchi tomonidan tayyorlangan yoki tarmoqdan topilgan web-kvestda ishlash.

2. Tarmoqda dialogni amalga oshirish – elektron pochta, sinxron telekonferensiyalardan foydalanish. Tarmoqda dialogni amalga oshirishni quyidagicha ko'rinishda tashkil etish mumkin: o'tkazilgan yoki o'tkazilishi ko'zda tutilgan ma'ruzalarni muhokama qilish, mutaxassis yoki talabalar bilan sinxron telekonferensiya (chat)da muloqotni amalga oshirish.

3. Tematik web-sahifa, web-kvest (topshiriq)lar yaratish – HTML-muharriri, web-brauzer, grafik muharrirlardan foydalanish. Tematik web-sahifa, web-kvest (topshiriq)lar yaratishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin: saytda talabalar tomonidan bajarilgan ijodiy ishlarni joylashtirish, mavzuga doir adabiyotlar ro'yxatini chop etish; indiviudal va kichik guruhlarda ishlashga doir mavzuli web-sahifalarni yaratish, mavzu bo'yicha ishlash uchun web-kvestlar yaratish va ularni kursga doir saytda joylashtirish.

Quyida auditoriyadan tashqari mustaqil ish shakllaridan axborotni izlash, loyihani ishlab chiqish, ikki qisimli kundalikni to'ldirish, hisobot tayyorlash, konspekt yozish, case topshirig'ini bajarish, referat yozish, taqriz yozish, glossariy tuzish, matnni sharhlash, «esse» (insho) yozish, ijodiy ish, konseptual jadval to'ldirish, umumlashma jadval tuzish, multimedia taqdimotini ishlab chiqish, grafik diagrammadan foydalanish, infografikadan

foydalanish, ishlarning tematik portfoliosini tuzish haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Topshiriq shakli: *Axborotni izlash*

Mustaqil ishning maqsadi: har xil turdagi ma’lumotlarni qidirish asosida o’quv faoliyatini loyihalash va o’zgartirish qobiliyatini rivojlantirish.

Axborot izlash – bu tuzilmagan hujjatli ma’lumotlarni qidirish.

Vazifani bajarish: 1) bilim sohasini aniqlash; 2) ma’lumotlar turi va manbalarini tanlash; 3) axborot modelini to’ldirish uchun zarur bo’lgan materiallarni to’plash; 4) eng foydali ma’lumotlarni tanlash; 5) axborotni qayta ishlash usulini tanlash (klassifikatsiya, klasterlash, regressiya tahlili va boshqalar); 6) ma’lumotlarni izlash algoritmini tanlash; 7) to’plangan ma’lumotlarda rasmiy qoidalar va tarkibiy munosabatlarni izlash; 8) olingan natijalarni ijodiy talqin qilish.

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari: axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda axborot-bibliografik madaniyat asosida talabalarning kasbiy faoliyatning namunaviy vazifalarini hal qilish qobiliyati, fan va ta’limning zamonaviy muammolari haqidagi bilimlardan o’quv va kasbiy muammolarni hal qilishda foydalanishga tayyorlik ko’rishdan iborat.

Topshiriq shakli: *Loyihani ishlab chiqish*

Mustaqil ishning maqsadi: bashorat qilish, loyihalash, modellashtirish qobiliyatini rivojlantirish.

Loyiha – bu natijalarning sifatiga, mablag’lar va resurslarni sarflashning mumkin bo’lgan chegaralariga va muayyan obyektga qo’yiladigan talablar bilan alohida tizimni vaqt bilan cheklangan maqsadli o’zgartirish.

Mustaqil ishning kutilayotgan natijalari: talabalarning fan va ta’limning zamonaviy muammolariga oid bilimlaridan ta’lim va

kasbiy muammolarni hal qilishda foydalanishga tayyorligi, tadqiqot muammolarini original hal qilish uchun individual ijodiy qobiliyatlardan foydalanishga tayyorlik, bashorat qilish, loyihalash, modellashtirish qobiliyatini o‘stirish.

Topshiriq shakli: *Ikki qismli kundalikni to‘ldirish*

Mustaqil ishning maqsadi: talabalarga o‘qitilayotgan matn mazmunini o‘z tajribalari bilan bog‘lash va o‘zlarining shaxsiy sinchkovlikka bo‘lgan ehtiyojini qondirish uchun imkoniyat yaratadi. U, ayniqsa, talabalar matnni darsdan tashqari vaqtda o‘qib o‘zlashtirishlarida samarali bo‘ladi.

Kundalik – hodisalar, kuzatishlar va shu kabilarni yozib boriladigan jurnal, daftar.

Ikki qismli kundalikning bajarilishi ikki qismli kundalik tuzish uchun talaba varaqni o‘rtasidan tickasiga chizib, ikki qismga bo‘ladi: chap qismiga matnning eng yaqqol taasuroti qoldirilgan satrboshi yoki qismlari yoziladi, o‘ng qismiga esa nima uchun aynan shu yozilganlar unga ko‘proq ta‘sir ko‘rsatganligining sababini yozadi.

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari: tanlangan obyektning atroflicha o‘rganish va tizimli tasniflashni amalga oshirish.

Topshiriq shakli: *Hisobot tayyorlash*

Mustaqil ishning maqsadi: ilmiy dunyoqarashni kengaytirish, nazariy tadqiqot usullarini o‘zlashtirish, talaba tafakkurining mustaqilligini rivojlantirish.

Hisobot – ma‘lumotni o‘z ichiga olgan va ushbu vaziyat bilan bog‘liq masala yoki tadqiqotning mohiyatini aks ettiruvchi ommaviy xabar yoki hujjat.

Hisobot turlari: Yozma hisobot:

- qisqacha (20 betgacha) – o‘rganish davomida olingan eng muhim ma‘lumotlarni umumlashtiradi;

- batafsil (60 betgacha) – nafaqat sarlavhalar bilan matn tuzilishini, balki diagrammalar, jadvallar, rasmlar, fotosuratlar, ilovalar, izohlar, havolalar, giperhavalalarni ham o‘z ichiga oladi.

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari:

- talabalarning ilmiy tadqiqot natijalarini tahlil qilish va ularni aniq o'quv va tadqiqot muammolarini hal qilishda qo'llash qobiliyati;

- tadqiqot muammolarini original hal qilish uchun individual ijodiy qobiliyatlardan foydalanishga tayyorlik;

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda axborot-bibliografik madaniyat asosida kasbiy faoliyatning standart vazifalarini hal qilish qobiliyati.

Topshiriq shakli: *Konspekt yozish*

Mustaqil ishning maqsadi: nazariya va amaliy masalalarni xulosa shaklida yozma ravishda malakali bayon qilish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Konspekt (lotincha *conspectus* – ko'rib chiqish, taqdim etish).

1) asosiy axborot manbasi (maqola, kitob, ma'ruza va boshqalar) mazmunini tizimli, ixcham, mantiqiy va izchil yetkazuvchi yozma matn; 2) axborot manbayi, rejasini, undan ko'chirmalarni va uning tezislarni o'z ichiga olishi mumkin bo'lgan yozishning sintezlovchi shakli.

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari: talabalarning ilmiy tadqiqot natijalarini tahlil qilish va ularni aniq o'quv va tadqiqot muammolarini hal qilishda qo'llash qobiliyati, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda axborot-bibliografik madaniyat asosida kasbiy faoliyatning standart vazifalarini hal qilish qobiliyati.

Topshiriq shakli: *Keys topshirig'ini bajarish*

Mustaqil ishning maqsadi: qisqa vaqt ichida ko'p miqdordagi tartibsiz ma'lumotlarni tahlil qilish, yetarli ma'lumot bo'lmagan sharoitda qaror qabul qilish qobiliyatini shakllantirish.

Keys-topshiriq (inglizcha *case* – holat, vaziyat) – amaliy muammoli vaziyatlar – muayyan hodisa yoki hodisalar ketma-

ketligi bilan bog'liq bo'lgan holatlar tahliliga asoslangan o'qitish usuli.

Topshiriqni bajarish: 1) asosiy matnni savollar bilan muhokama qilish uchun tayyorlash: ishning qisqacha esda qolarli nomi yozilgan sarlavha sahifasi, muqaddima, bunda ishning qahramoni (qahramonlari) tilga olinadi, masalaning kelib chiqish tarixi aytiladi, harakatning boshlanish vaqti ko'rsatiladi, asosiy ma'lumot, muammoni o'z ichiga olgan asosiy qism, xulosa (unda ishda ko'rib chiqilayotgan masalani hal qilish ba'zan tugallanmasligi mumkin); 2) ishning umumiy mazmunini (hujjatlar, nashrlar, fotosuratlar, videolar va boshqalar) aks ettiruvchi turli xil ma'lumotlarning tanlovi bilan ilovalarni tanlash; 3) muammoning mumkin bo'lgan yechimini taklif qilish.

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari: talabalarning ilmiy tadqiqot natijalarini tahlil qilish va aniq tadqiqot muammolarini hal qilishda qo'llash qobiliyati; tadqiqot muammolarini original hal qilish uchun individual ijodiy qobiliyatlardan foydalanishga tayyorlik; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda axborot-bibliografik madaniyat asosida kasbiy faoliyatning nostandart vazifalarini hal qilish qobiliyati.

Topshiriq shakli: *Referat yozish*

Mustaqil ishning maqsadi: ilmiy dunyoqarashni kengaytirish, nazariy tadqiqot usullarini o'zlashtirish, talaba tafakkurining mustaqilligini rivojlantirish.

Referat (lotincha *refere* – hisobot) yangi ma'lumot va muhim ma'lumotlarni olish uchun birlamchi manba matnini mustaqil ijodiy aks ettirish va o'zgartirish mahsulidir.

Annotatsiya turlari: Umumlashtirilgan shakldagi dalillar, ma'lumotlarni, illyustrativ materialni, tadqiqot usullari, tadqiqot natijalari va ularni qo'llash imkoniyatlari haqida turli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan konspekt;

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari: talabalarning axborotni umumlashtirish, tahlil qilish, idrok etish, o'z oldiga

maqsad qo'yish va unga erishish yo'llarini tanlash qobiliyati, og'zaki va yozma nutqni mantiqan to'g'ri, asosli va aniq qurish qobiliyati.

Topshiriq shakli: *Taqriz yozish*

Mustaqil ishning maqsadi: axborot madaniyati darajasini oshirish, yangi bilimlarni egallash, o'quv kursining predmeti bo'yicha zarur ko'nikmalarni rivojlantirish.

Taqriz – ijodiy baho beriladigan ilmiy yoki ilmiy-ommabop asar tahlili yoki kengaytirilgan annotatsiya.

Topshiriqni bajarish ilmiy maqola, monografiyadan olingan taassurot yoki subyektiv munosabat yoinki mazmunning quruqqina tavsifi emas, balki mazmunning mavzu va g'oyasi, ilmiy tahlil, iqtiboslar orqali ochib berish, haqqoniy ilmiy-estetik tahlil qilish.

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari: axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olib badiiy, ilmiy madaniyat asosida talabalarning kasbiy faoliyatning standart muammolarini hal qilish qobiliyati.

Topshiriq shakli: *Glossariy tuzish*

Mustaqil ishning maqsadi: axborot madaniyati darajasini oshirish, yangi bilimlarni egallash, o'quv kursining predmeti bo'yicha zarur ko'nikmalarni rivojlantirish.

Glossariy – ixtisoslashgan atamalar va ularning ta'riflari lug'ati.

Topshiriqni bajarish: 1) ishni diqqat bilan o'qish; 2) eng keng tarqalgan atamalarni aniqlash; 3) umumiy mavzu bilan birlashtirilgan atamalar ro'yxatini tuzish; 4) atamalarni alifbo tartibida joylashtirish; 5) lug'at maqolalarini tuzish; 6) nominativ holatda atamaning aniq tahririni berish.

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari: tartiblash, tadqiqot va izlanuvchanlik ko'nikmalarini takomillashtirish.

Topshiriq shakli: *Matnni sharhlash*

Mustaqil ishning maqsadi: o'quv jarayonini faollashtirishga, vazifalarini ongli ravishda bajarilishiga xizmat qiladi.

Sharh – izohlash, tushuntirish orqali matnga izoh berish, unga ilmiy izoh, ma'lumot beruvchi qismi.

Ishining bajarilishi: Sharh muallif tomonidan tayyorlanib, ma'lum bir asar yoki matnning tarixi, uning boshqa voqea-hodisalarga, fanlarga, shaxslarga, zamon va makonga bog'liqligi xususidagi ma'lumotlardan iborat bo'ladi. Sharhda muallif ishora etgan ba'zi voqea va dalillar, u yoki bu sabab bilan oshkora yozilmagan yoki yozilishi lozim topilmagan narsalar talqin qilinadi, ba'zi so'z, so'z birikmasi va iboralarning mohiyati ochib beriladi. Sharh qisqa va foydalanishga qulay bo'lib, odatda, matndan keyin alohida maqola yoki ma'lumot tariqasida joylashtiriladi. Mumtoz asarlarga sharh alohida kitob shaklida berilishi ham mumkin;

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari: keng dunyoqarash, mantiqiy tafakkurni oshirish, shaxsiy fikr-mulohazani bildirishni ta'minlaydi.

Topshiriq shakli: «Esse» (*insho*) yozish

Mustaqil ishning maqsadi: mustaqil ijodiy fikrlash va o'z fikrlarini yozma ravishda taqdim etish ko'nikmalarini rivojlantirish.

Insho – bu muayyan bir masala bo'yicha individual taassurotlar va fikrlarni ifoda etuvchi, aniq yoki to'liq talqin qilinishini talab qilmaydigan, kichik hajmdagi va erkin kompozitsiyadan iborat nasriy kompozitsiyadir. Bu muallifning o'z nuqtai nazarini ifoda etishini, munozara mavzusiga subyektiv shaxsiy baho berishni o'z ichiga oladi, materialni nostandart (ijodiy), original yoritishga imkon beradi.

Vazifani bajarish: 1) kirish so'zini yozish (muammoni keyingi shakllantirish uchun xizmat qiladigan 2-3 jumla); 2) nafaqat muallif, balki boshqalar uchun ham muhim bo'lishi kerak bo'lgan muammoni shakllantirish; 3) muammo yuzasidan fikr bildirish;

4) muallif fikrini shakllantirish va dalillarni keltirish; 5) xulosa yozish (xulosa, aytilganlarni umumlashtirish).

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari: og'zaki va yozma nutqni mantiqan to'g'ri, asosli va aniq qurish qobiliyati.

Topshiriq shakli: *Ijodiy ish*

Mustaqil ishning maqsadi: Talabalarni ijodiy faollikka undash orqali ularda o'zlashtirilgan nazariy bilimlar asosida mavzu mohiyatini yoritish, yangicha talqin etish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ijodiy ish – talabalarning mantiqan to'g'ri fikrlay olishlari, shaxsiy mulohazalarni dalillar bilan isbotlay bilishlari.

Ijodiy ishning bajarilishi talaba lozim bo'lgan mazmun masalasi doirasida mavzu mohiyati, belgilari, tavsifini ochib berishga harakat qiladi.

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari: talabalarning erkinligi ta'minlanadi, mustakil fikrlashlari uchun yangi imkoniyat yaratiladi. Talabalar mavjud bilimlariga tayangan holda o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib beradi.

Topshiriq shakli: *Konseptual jadvalni to'ldirish*

Mustaqil ishning maqsadi: nazariya va amaliy masalalarni xulosa shaklida yozma ravishda malakali bayon qilish ko'nikma va malakalarini rivojlantirish.

Mustaqil ishning maqsadi: qiyosiy jadval yaratish, mavzuni turli tomonlardan ko'rib chiqish, ma'lumotlarni tahlil qilish va umumlashtirishga o'rgatadi.

Konseptual jadval – o'rganilayotgan mavzu (masala yoki muammo)ni ikki yoki undan ortiq jihatlari bo'yicha taqqoslash, hodisalarni toifalar bo'yicha solishtirish.

Konseptual jadvalning bajarilishi talaba lozim bo'lgan mazmun masalasi doirasida mavzu mohiyati, belgilari, tavsifini ochib berishga harakat qiladi.

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari: tanlangan mavzu yuzasidan mantiqiy fikrlash, ma’lumotlarni tizimli bayon qilish qobiliyatlari rivojlanadi.

Topshiriq shakli: *Umumlashma jadval tuzish*

Mustaqil ishning maqsadi: tushunchalar yoki mavzuning alohida bo’limlari o’rtasidagi munosabatlarni qurish orqali o’zlashtirish jadvallar.

Umumlashtiruvchi jadval – o’zgaruvchilar ko’rinishida ifodalangan o’rganilayotgan hodisalar o’rtasidagi munosabatlarning jamlangan tasviri.

Jadvalni tuzish qoidalari: 1) jadval ifodali va ixcham bo’lishi kerak, tadqiqot vazifasiga javob beradigan bir nechta kichik, lekin ko’rgazmali jadvallarni tuzish yaxshidir; 2) jadval sarlavhasi, ustunlar va satrlar sarlavhalari aniq va ixcham shakllantirilishi kerak; 3) jadvalda albatta o’rganilayotgan obyekt va o’lchov birliklari ko’rsatilishi kerak; 4) jadvalda biron bir ma’lumot bo’lmasa, ellips qo’ying yoki «Ma’lumot yo’q» deb yozing, agar biron bir hodisa ro’y bermagan bo’lsa, chiziqcha qo’ying; 5) bir xil ko’rsatkichlarning qiymatlari jadvalda bir xil aniqlik darajasida berilgan; 6) jadvalda guruhlar, kichik guruhlar va umuman olganda jami bo’lishi kerak; 7) agar ma’lumotlarni yig’ish imkoni bo’lmasa, bu ustunga ko’paytirish belgisi qo’yiladi; 8) katta jadvallarda har besh satrdan keyin o’qish va tahlil qilish qulayligi uchun bo’sh joy qo’yiladi.

Mustaqil ishning rejalashtirilgan natijalari: tadqiqot muammolarini original hal qilish uchun talabalarning individual ijodiy qobiliyatlaridan foydalanishga tayyorligi, tushunchalar yoki mavzuning alohida bo’limlari o’rtasidagi munosabatni o’zlashtirish.

Topshiriq shakli: *Ishlarning tematik portfoliosini tuzish*

Mustaqil ishning maqsadi: tanlangan mavzu, ish bo’yicha ma’lumotlarni tizimlashtirish va tahlil qilish qobiliyatini

rivojlantirish empirik ma'lumotlar, hal qilish usullari va texnologiyalari bilan muammolar.

Ishlarning tematik portfeli – aks ettiruvchi materiallar kursning (modulning) muayyan mavzusi doirasidagi har qanday aniq muammoni hal qilishning maqsadlari, jarayoni va natijasi.

Vazifani bajarish: 1) portfel mavzusini tanlashni asoslang va o'zingizning nomingizni bering ish; 2) rubrikalarni tanlash va ularga sarlavhalar berish; 3) tegishli materialni topish va uni tizimlashtirish: jadvallar, konspekt, diagramma, klaster, aql xaritasi shaklida taqdim etish; 4) ma'lumotnoma asosida atama va tushunchalar lug'atini tuzish adabiyot; 5) kerakli ma'lumot manbalarini tanlash (shu jumladan internet resurslari) mavzu bo'yicha va tezislar yozish; 6) statistik materialni tanlash, uni grafik shaklda taqdim etish, xulosalar chiqarish; 7) illyustrativ materialni tanlash (chizmalar, fotosuratlar, videolar); 8) tadqiqot rejasini tuzish; 9) tadqiqot o'tkazish, natijalarni qayta ishlash; 10) axborot manbalariga havolalarni tekshirish.

Kurs ishi yozish, tayyorlash va uni himoya qilishi. Kurs ishini yozishga tayyorgarlik. Kurs ishi mavzusi o'quv rejaga binoan kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan tuzilib, kafedra majlisida muhokama qilinadi va tasdiqlanadi. Belgilangan fan doirasida kurs ishi mavzusi qisqa, lo'nda, tugal mazmunli va aniq tuzilgan bo'lishi lozim. Mavzu talabaning ilmiy va amaliy qiziqishlarini hisobga olgan holda mustaqil ravishda tanlab olinadi. Kurs ishi rahbari talaba tanlagan mavzuni ro'yxatga oladi va kurs ishi yozilishini nazorat qiladi.

Kurs ishini bajarish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

1. Kurs ishi mavzusini tanlash;
2. Mavzuga oid adabiyotlarni to'plash, ularni o'rganish, konspektlashtirish, kerakli joylarini belgilash;
3. Kurs ishi rejasini tuzish;
4. Nazariy masalalar va amaliy materiallarni umumlashtirish, tahlil qilish, qaytadan ishlab chiqish;

5. Kurs ishi matnini yozib chiqish, uni rasmiylashtirish va ilmiy rahbarga taqriz uchun taqdim etish;

6. Taqrizning talablari asosida ishga ayrim tuzatishlar kiritish, qo'shimcha savollarga javob berish;

7. Kurs ishi himoyasiga tayyorlanish.

Kurs ishi *rejasini* tuzish tavsiya qilingan adabiyotlarni o'rganib chiqilgandan keyin boshlanadi.

Reja eng qisqa yozma matn hisoblanib:

– fikrlar ketma-ketligini o'zida mujassam etadi va umumlashtiradi;

– manba mazmunini xotirada tiklaydi;

– konspekt va tezislarni o'rnini bosadi;

– har xil turdagi yozishmalar, ma'ruza, xabarnoma, hisobot tuzishga yordam beradi;

– o'z-o'zini nazorat qilishni tezlashtiradi;

– e'tiborning bir nuqtada bo'lishiga va mashg'ulotlarni rag'batlantirishga imkon beradi;

– yaxshi tanish matnning xotirada paydo bo'lishida foydalaniladi.

Reja kurs ishi mazmunini yoritmaydi, faqat unga yo'nalish beradi va tuzilishini ko'rsatadi.

Shuni nazarda tutish kerakki, rejada eng muhim masalalar o'z ifodasini topishi (rejadagi masalalar ko'payib ketmasligi zarur), rejada ko'zda tutilgan masalalar hozirgi zamon talablari bilan aloqador bo'lishi kerak. Reja tuzilganda ko'zda tutilgan masalalarni aniq ifoda qilishga harakat qilish lozim.

Kurs ishiga qo'yilgan asosiy talablar. Kurs ishining hajmi va formati. Kurs ishining umumiy hajmi kompyuterda yozilgan matnda o'rtacha 32-36 bet, qo'lyozmada 45-50 bet bo'lishi kerak. Kurs ishi tuzilgan rejaga muvofiq alohida bandlarga, ya'ni paragraflarga bo'linadi. Bu bandlarning nomi qisqacha bo'lib, mavzuning mazmuniga mos tushishi va matnga muvofiq tarzda

bosh harflar bilan yozilishi lozim. Betlar arab raqamlari bilan pastki qismning o'rtasida qo'yilishi kerak.

Kurs ishining tarkibi. Kurs ishining tarkibiy tuzilishi quyidagi qismlarni qamrab olishi lozim: *titul varag'i, reja, kirish qismi, asosiy qism, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, ilovalar, mundarija.*

Kirish. Kirish qismining hajmi 3-5 betdan oshmasligi lozim. Unda nazariy va amaliy jihatdan mavzuning dolzarbligi asoslanadi, maqsadlar shakllantiriladi va vazifalar belgilanadi.

Asosiy qism. Asosiy qism faqat paragraflar yoki boblarning mazmuni tasniflanadi. Bu qism kurs ishining umumiy hajmining taxminan 80-85 foizini tashkil qilishi kerak. Kurs ishining asosiy qismi paragraflarda berilishi va paragraflar soni kamida besh yoki oltita bo'lishi lozim. Asosiy qismda mavzuning nazariy va metodik masalalari ko'rib chiqiladi, statistik ma'alumotlar tahlili natijalari ochib beriladi.

Xulosa va takliflar. Kurs ishining xulosa va takliflar qismi 3-6 bet atrofida bo'lib, unda talaba ilmiy tadqiqotning xulosa va takliflarini bayon etadi. Kurs ishining oxirida mavzuga taalluqli so'zlarning (20-30 ta) izohli ma'nosi berilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida talaba kurs ishi yozish davomida foydalanilgan manbalar ro'yxatini keltiradi.

Ilovalar ro'yxati. Ilovalarda *jadvallar, grafiklar, hujjatlar nusxalari, diagrammalar* keltiriladi va raqamlanadi. Talaba tomonidan nashr etilgan ishlar ham ilovada berilishi mumkin. Kurs ishining asosiy matnida mavzuni ochib berishga qaratilgan va to'g'ri tuzib chiqilgan jadvallar, grafiklar, rasmlar, slayt diagrammalar va boshqa zaruriy materiallar keltirilishi lozim.

Mundarijada kurs ishining barcha qismlari ya'ni, kirish, bob yoki bo'limlar, paragraflar, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar, ilovalar joylashgan sahifa raqamlari bilan birgalikda keltiriladi.

Kurs ishiga qo'yilgan talablar. Kurs ishlari o'quv jarayoni olib borilayotgan tilda yoziladi. Kurs ishi imlo xatolarsiz, ravon tushunarli tilda yozilishi, jumla va gaplar aniq ifodalanishi, ular o'zaro bog'liq bo'lishi va bir-birini to'ldirib turishi kerak. Unda keltirilayotgan statistik ma'lumotlar faqatgina ko'rgazma (illyustratsiya) vazifasini o'tab qolmasdan, xulosalar chiqarish va ularni isboti uchun xizmat qilishi lozim. Kurs ishida keltirilgan barcha asoslar va ma'alumotlarning aniqligi va haqiqiyliigi uchun uning muallifi javobgardir.

Kurs ishi talaba tomonidan mustaqil ravishda shaxsan bajarilishi shart. Talaba tomonidan turli xil manbalardan dalillar, statistik ma'lumotlar, turli mualliflarning fikrlaridan iqtiboslar keltirish to'g'ri va ilmiy ma'alumotlari bilan ta'minlangan bo'lishi, kurs ishida ilmiy-ma'alumotlarga sayqal berish nashr etishga tayyorlanayotgan ilmiy ishlar talablariga javob berishi kerak. Kurs ishini yozish jarayonida talaba shu sohada mavjud bo'lgan va o'zi foydalangan boshqa ilmiy tadqiqotlar, ilmiy maqolalar, ma'lumotnomalardan dalillar keltirishi zarur. Ilmiy-ma'lumotlarga sayqal berish davomida talaba quyidagi shartlarga rioya qilishi lozim:

- kurs ishini yozish davomida foydalanilgan adabiyotlar va boshqa manbalardan dalillar keltirilishi, bir xil tartibda yoritilishi kerak;

- matnda foydalanilgan manbalar sahifa ostida izoh (snoska) tarzida aniq va to'liq keltirilishi, ya'ni muallif va adabiyotning nomi, nashriyoti, yili va beti keltirilishi kerak;

- sahifa ostidagi izoh tarzidagi yozuvda vaqtli nashrlar, kitoblar, maqolalar nomi qo'shtirnoqqa olinmaydi;

- sahifa ostidagi izoh (snoska) intervalda 10 shriftda yozilishi lozim. Kurs ishlari yozish jarayonida foydalanilgan adabiyot va ilmiy manbalar soni mavzuni ochib beradigan darajada bo'lishi zarur.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

Nazorat savollari:

1. Talabalar mustaqil ta'limini tashkil etishning maqsad va vazifalarini izohlang.

2. Mustaqil ish turi va shaklini nima tashkil qiladi?

3. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etish jarayonini boshqarishni izohlang.

4. Mustaqil ta'limni amalga oshirishga doir professor-o'qituvchi hamda talabalarning vazifa va majburiyatlari nimalardan iborat?

5. Mustaqil ta'limni tashkil etish shakllari va turlari nimalardan iborat?

6. Talabalarning mustaqil ta'limini tashkil etishning qanday turlari mavjud?

7. Kurs ishi yozish, tayyorlash va uni himoya qilishi haqida ma'lumot keltiring.

Topshiriq:

Mustaqil ta'limni tashkil etish turlariga tegishli shakllarining mosini keltirib jadvalni to'ldiring!

Ma'lumotlar bazasi: 1. ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlarga tayyorgarlik ko'rish; 2. darslarning metodik ishlanmalarini tayyorlash; 3. darsdan tashqari mashg'ulot ishlanmalarini tayyorlash; 4. seminar-konferensiyalarga tayyorgarlik ko'rish; 7. axborot-tahliliy materiallar bilan ishlash; 8. infografika tuzish; 9. kollokviumlarga tayyorgarlik ko'rish; 10. manbalar bilan ishlash; 11. ko'p so'raladigan savollar (FAQ-frequently asked questions) orqali o'zini qiziqtirgan muammolarga o'rgatuvchi dasturlar vositasida javob izlash; 12. dolzarb mavzu bo'yicha shaxsiy fikrini tanqid, publitsistik va boshqa janrlar (masalan, esse)da yozma bayon qilish; 13. forumlarda ishtirok etish – fan mavzulari bo'yicha telegram kanallari yoki masofaviy ta'lim platformalarida fikr almashish;

14. glossariy tuzish; 15. individual va jamoaviy o'quv loyihasi tuzish, keys-topshiriqlarini bajarish; 16. web-kvest – o'rgatuvchi test dasturlarida mashq qilish orqali fan (modul)ga oid bilimlarini mustahkamlash; 17. kurs ishi yozish; 18. konspekt yozish; 19. nazorat ishlariga tayyorgarlik ko'rish; 20. mavzuli portfoliolar tuzish; 21. sinov (zachyot)ga tayyorgarlik ko'rish; 22. imtihonga tayyorgarlik ko'rish; 23. ma'ruzalar tayyorlash; 24. chizma-tasviriy modellar (intellekt-kart, freym, mantiqiy graf va h.k.) yaratish; 25. multimediali taqdimotlar yaratish.

Namuna:

№	Turlari	Shakllari
1.	auditoriya mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rish	1, 4, 9, 11, ...
2.	auditoriyadan tashqari vaqtda bajariladigan mustaqil ishlar	

10-MAVZU. TALABALARNI MALAKAVIY VA PEDAGOGIK AMALIYOTGA TAYYORLASH

Tayanch tushunchalar: amaliyot, amaliyot turlari, malakaviy amaliyotni tashkil qilish mazmuni, pedagogik amaliyot tuzilishi va shartlari

Oliy ta'limda tashkil qilinadigan amaliyot turlari. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari malaka amaliyotlariga qo'yiladigan umumiy talablarga ko'ra ta'lim oluvchilar kasbiy ko'nikmalarni mukammal egallashi uchun o'quv rejalar va muayyan fanlarning o'quv dasturlarida *o'quv* (tanishuv), *ishlab chiqarish* (klinik, ijodiy va boshqa) va *bitiruv oldi* malaka amaliyotlari nazarda tutilishi shart.

Amaliyotlar bakalavriat ta'lim jarayonining majburiy qismi bo'lib, talabalarning kasbiy tayyorgarligi, amaliy ko'nikmalari va kompetensiyalarini shakllantirishga yo'naltiriladi.

Malaka amaliyoti – olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma hosil qilish, o'quv rejaları va o'quv dasturlarning ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plashni nazarda tutuvchi o'quv jarayonining bir qismi bo'lib hisoblanadi.

Bakalavrlar tayyorlashda quyidagi malaka amaliyotlari o'tkaziladi:

o'quv (tanishuv) amaliyoti – iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi;

ishlab chiqarish amaliyoti – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

bitiruv oldi amaliyoti – ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonasi, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

pedagogik amaliyot – kasb ta'limi yo'nalishlari uchun qo'llaniladi va pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malaka amaliyotlarining boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

Har bir amaliyot turi o'quv reja va o'quv dasturiga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlari va real sektorning tegishli ilg'or korxonasi, tashkilot va muassasalari, xorijiy va qo'shma korxonalar, ilmiy tashkilotlar, ta'lim, tibbiyot, madaniyat va boshqa muassasalarida, dala sharoitlarida, maxsus tajriba (poligon) obyektlarida va boshqalarda o'tkaziladi.

Amaliyotlarni tashkil qilish, o'tkazish va talabalarni baholash mezonlarini belgilash OTMlari tomonidan amalga oshiriladi.

Malakaviy amaliyotni tashkil qilish mazmuni. Malaka amaliyoti bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv (ishchi o'quv) rejalariga muvofiq OTM tomonidan ishlab chiqiladigan hamda qabul qiluvchi tashkilot bilan kelishib tasdiqlanadigan malaka amaliyoti dasturi asosida amalga oshiriladi. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari o'quv (ishchi o'quv) rejalarida keltirilgan umumkasbiy, mutaxassislik fanlari blokidagi tegishli fanlarning amaliy mashg'ulot darslarini bevosita ishlab chiqarish sohasining yetakchi korxonasi, muassasa, tashkilotlarida malakali mutaxassislarni jalb etgan holda tasdiqlangan dars jadvali asosida tashkillashtirish hamda ushbu mashg'ulotlarni malaka amaliyotining bir qismi sifatida qabul qilish mumkin. Bunda o'quv (ishchi o'quv) rejalarda belgilangan va taqsimlangan soatlari to'liq bajarilishini ta'minlash shart.

malaka amaliyoti – nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma va malaka hosil qilishni nazarda tutuvchi ta'lim jarayonining bevosita ishlab chiqarish sharoitida davom ettiriladigan tarkibiy qismi;

qabul qiluvchi tashkilot – talabalar malaka amaliyotini o'tashi uchun OTM bilan belgilangan tartibda shartnoma tuzadigan, malaka amaliyotini o'tash uchun shart-sharoitlar yaratadigan tashkilot;

OTMda malaka amaliyoti rahbari – o'quv yuklamasida talabalar malaka amaliyotiga rahbarlik qilish qayd etilgan OTMning tegishli kafedra professor-o'qituvchisi;

qabul qiluvchi tashkilotning malaka amaliyoti rahbari – qabul qiluvchi tashkilot rahbarining buyrug'i bilan talabalarga malaka amaliyoti davomida ularni texnik xavfsizlik qoidalari bilan tanishtiruvchi, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirishga ko'maklashuvchi, amaliyot davrida talaba egallagan ko'nikmalarini baholash ma'suliyati yuklangan qabul qiluvchi tashkilot xodimi.

Malakaviy amaliyot mutaxassis tayyorlashning tarkibiy qismi hisoblanadi. Malakaviy amaliyotni talaba ishlab chiqarish va tashkilotlarda o'tkazib, u ta'lim muassasasida olgan bilimni amaliy tajriba asosida mustahkamlashga hamda ishlab chiqarishdagi va tashkilotlardagi amaliyot usullarini o'zlashtirishga qaratilgan. Malakaviy amaliyot jarayonida talaba *tarbiyaviy, jamoatchilik va tashkilotchilik* tajribalarini ham o'rganadi.

Malaka amaliyoti OTMning qabul qiluvchi tashkilotlar bilan belgilangan tartibda tuzilgan shartnomalari asosida tashkil qilinadi. OTM va qabul qiluvchi tashkilot malaka amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha shartnomada (shartnoma predmeti, taraflarning huquq va majburiyatlari, qabul qiluvchi tashkilotning ish faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqqan holda malaka amaliyotini tashkil etish va o'tkazish tartibini, shartnomaning amal qilish muddatini, shartnomani bekor qilish

asoslarini, shuningdek, taraflarning javobgarligini) kelishib oladi. Malaka amaliyotini tashkil etish va o'tkazish uchun javobgarlik OTM rektori (direktori) zimmasiga yuklatiladi. Talabalarning malaka amaliyoti reja-jadvali va dasturlarini to'liq bajarilishiga o'quv ishlari bo'yicha prorektor, o'quv-uslubiy boshqarma (bo'lim) boshlig'i, fakultet dekani, kafedra mudiri va OTMdagi malaka amaliyoti rahbari javobgar hisoblanadi. Talabalar va malaka amaliyoti rahbarlarining faoliyatini tartibga soluvchi asosiy hujjat malaka amaliyoti dasturi va rejasi hisoblanadi. OTMda malaka amaliyoti rahbarining malaka amaliyotidagi o'quv yuklamasi soatlari OTM professor-o'qituvchilarining o'quv yuklamasi hajmini hisoblash amaldagi vaqt me'yorlari asosida aniqlanadi. Malaka amaliyotini tashkil etish oldidan OTM rektori (direktori) tomonidan malaka amaliyoti turi, muddati, o'tash joyi, moddiy ta'minoti, jo'natilayotgan OTMdagi malaka amaliyoti rahbarlari va talabalarning tarkibiy ro'yxati, shuningdek, ularni turar joy bilan ta'minlanishi, malaka amaliyotini umumiy tashkil etish va uni o'tkazishni nazorat qilish yuklatilgan mansabdor shaxslar (o'quv ishlar bo'yicha prorektor, o'quv-uslubiy boshqarmasi (bo'limi) boshlig'i, fakultet dekani, kafedra mudiri) ko'rsatilgan buyruq qabul qilinadi. OTMning o'quv-uslubiy ishlar boshqarmasi (bo'limi) malaka amaliyotini tashkil etish, moddiy va o'quv-uslubiy ta'minlash hamda o'tashni muvofiqlashtirish ishlarini reja-moliya bo'limi, kafedra mudiri va fakultet dekani bilan birgalikda amalga oshiradi. OTM va qabul qiluvchi tashkilot o'rtasidagi ikki tomonlama shartnomalar asosida talaba malaka amaliyotini xorijiy davlatlar korxonalarini, muassasalari va tashkilotlarida o'tashi mumkin. Bunda, OTM tuziladigan shartnoma bandlarini yuqori turuvchi vazirlik, idora bilan belgilangan tartibda kelishadi.

Malakaviy amaliyotni tashkil etish va rahbarlik qilish vazifalari:

- barcha turdagi amaliyotlarni ishga yo'llanma oladigan korxonada, tashkilot yoki muassasada o'tashini yo'lga qo'yishni tashkillashtirish;

- navbatdagi o'quv yili uchun malaka amaliyotiga qabul qiluvchi tashkilot bilan shartnomalar tuzish;

- malaka amaliyotini o'tkazish bo'yicha qabul qiluvchi tashkilotlarni rasmiy xat bilan amaliyotni o'tash to'g'risida xabardor qilish;

- malaka amaliyotini korxonada, muassasada va tashkilotlarda tashkil etish jarayonlarini o'rganish, o'rganish natijalarini tahlil qilish hamda muammo va takliflarni ishlab chiqib OTM rahbariyatiga taqdim etib borish;

- talabalar malaka amaliyotini tashkil etish bo'yicha ilg'or xorijiy va milliy tajribalarni o'rganish hamda uni tatbiq etish yuzasidan takliflar tayyorlash.

OTM mutaxassislik kafedrasining malaka amaliyotini tashkil etish va o'tkazish yuzasidan vazifalari:

- malaka amaliyoti boshlanishidan ikki oy oldin talabalar malaka amaliyoti reja-jadvali va dasturini tasdiqlash uchun taqdim etish;

- har bir bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo'yicha malaka amaliyoti buyruqlari loyihalarini shakllantirish;

- talabalarga malaka amaliyoti hujjatlari majmuasini nashr qilishni tashkil etish va ta'minlash;

- talabalarning malaka amaliyotini o'tash joyiga yetib borishi va qaytishini kafedra mudirlari va dekanatlar bilan hamkorlikda tashkil qilish;

- qabul qiluvchi tashkilotlarda malaka amaliyoti reja-jadvali va dasturi bajarilishi, talabalar hisoboti mavjudligi va hisobot himoyasi tashkil qilinganligini nazorat qilish;

- OTM Kengashiga malaka amaliyotlari o'tkazilganligi haqida bir o'quv yilida bir marta hisobot berish.

OTM tomonidan biriktirilgan malaka amaliyoti rahbari vazifalari:

- malaka amaliyotini o'tash joylariga talabalarni taqsimlashda ishtirok etish;

- malaka amaliyotiga ketayotgan talabalarga oldindan malaka amaliyoti o'tkazish tartiblari, xavfsizlik texnikasi haqida zarur ko'rsatmalar va yo'l-yo'riqlar ko'rsatish;

- zaruriyatga muvofiq qabul qiluvchi tashkilotga malaka amaliyoti boshlanishidan oldin borib, talabalar kelishiga zaruriy tayyorgarlik ishlarini tashkil etish;

- malaka amaliyotining butun davri uchun talabalarga malaka amaliyoti dasturi asosida reja-jadvalini tuzish, qabul qiluvchi tashkilotdan malaka amaliyoti rahbari bilan birgalikda ishning hajmi va tarkibini begilash;

- talabalarni malaka amaliyoti reja-jadvali va dasturi hamda kundalik bilan ta'minlash;

- talabalarning malaka amaliyoti o'tash joyiga yetib borishi va qaytishini nazorat qilish;

- qabul qiluvchi tashkilotdan malaka amaliyoti rahbari bilan talabaning malaka amaliyotini o'tashi holati bo'yicha muntazam ravishda aloqada bo'lish;

- malaka amaliyoti muddatlariga rioya qilinishini, shuningdek, malaka amaliyoti reja-jadvali va dasturi bajarishini hamda kundalikni har kunlik to'ldirishini nazoratini olib borish, uslubiy yordam ko'rsatish ishlarini, zarur hollarda, talabalarning malaka amaliyoti o'tash joylariga borib ko'rish yo'li bilan amalga oshirish;

- talabalarning malaka amaliyoti hisobotini yozishga ko'rsatma va tavsiyalar berish;

- talabalarning malaka amaliyoti bo'yicha hisobot himoyasida ishtirok etish va baholash;

- malaka amaliyotini o'tashni takomillashtirish yuzasidan zarur hollarda o'z taklif va mulohazalarini kafedra mudiriga (fakultet va OTM Kengashida ko'rib chiqish uchun) taqdim etish.

Professor-o'qituvchining malaka amaliyotga rahbarlik qilganligi OTM rektori (direktori)ning malaka amaliyoti o'tash bo'yicha *buyrug'i, talabaning malaka amaliyoti kundaligi, hisoboti va malaka amaliyoti uchun baho qo'yilgan tegishli qaydnomalar* asosida aniqlanadi.

Qabul qiluvchi tashkilotning malaka amaliyotini tashkillashtirish yuzasidan vazifalari:

- OTMlari bilan talabalar malaka amaliyotini o'tashi to'g'risida shartnomalar tuzadi;

- malaka amaliyotini o'tash davrida talabalarga amaliyotchi maqomini beradi;

- malaka amaliyotini tashkil etishga ko'maklashadi, malakali va tajribali mutaxassislar orasidan amaliyotchi bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lgan malaka amaliyoti rahbarini tayinlaydi;

- amaliyotchilar uchun ish joyi va amaliyot davrida foydalanish uchun zaruriy materiallar ajratilishini tashkil etadi, faoliyati dorasida amaliyotchi talabalarga oylik maoshlar belgilashi mumkin;

- amaliyotchiga biriktirilgan mas'ul xodimlarni moliyaviy imkoniyatlardan kelib chiqib moddiy rag'batlantirish ishlarini yo'lga qo'yadi;

- hayot faoliyati va texnika xavfsizligi bo'yicha zaruriy ko'rsatmalar beradi, zarur bo'lgan hollarda talabalarga mehnatning xavfsiz usullarini o'rgatadi va bu haqda tegishli hujjatlarni rasmiylashtiradi;

- malaka amaliyoti dasturiga muvofiq talabalarga joriy qilinadigan shart-sharoitlar (shaxsiy himoya vositalari, maxsus ovqat va boshqalar)ni yaratadi;

- talabalarga mavjud adabiyotlar, texnik va boshqa hujjatlardan foydalanish imkoniyatlarini beradi;

- malaka amaliyoti dasturiga muvofiq talabalar malaka amaliyoti o'tkazishining samaradorligini ta'minlovchi ish joylari sharoitini ta'minlaydi;

- amaliyotchiga malaka amaliyoti davri davomida moliyaviy imkoniyat doirasida ish haqi to'lanadigan lavozimga ishga qabul qilish masalasini hal qiladi;

- tashkilotning ichki mehnat intizomini buzgan talaba haqida qabul qiluvchi tashkilot OTM rektori (direktori)ga xabar qiladi;

- talaba malaka amaliyotini o'tash davrida amaliyot o'tash joyida baxtsiz hodisaga uchragan holatlar bo'yicha javobgarlik masalalarini qonunchilik hujjatlari asosida ko'rib chiqadi;

- shartnoma asosida talabalar yashashi uchun qulay sharoitli vaqtinchalik turar joylar bilan ta'minlanishi mumkin.

Qabul qiluvchi tashkilot rahbari talaba ta'lim olayotgan yo'nalishi (mutaxassisligi) bo'yicha bo'sh ish joylari mavjud bo'lgan taqdirda, uni vaqtinchalik ish haqi to'lanadigan lavozimga tayinlashi hamda talaba o'qishni bitirgandan so'ng ish bilan ta'minlashi mumkin.

Qabul qiluvchi tashkilotdan malaka amaliyoti rahbari vazifalari:

- talabalarga hayot faoliyati va texnika xavfsizligi bo'yicha tushuntirish, shuningdek, qabul qiluvchi tashkilotning ichki tartib qoidalari va ish rejimining xususiyatlari bo'yicha yo'l-yo'riq ko'rsatadi;

- qabul qiluvchi tashkilotning belgilangan obyektlari bo'yicha talabalarni taqsimlaydi, obyektning tuzilishi, faoliyat yo'nalishlari va o'ziga xos xususiyatlari bilan tanishtiradi;

- amaliyotchi-talabalarga malaka amaliyoti dasturiga taalluqli materiallardan foydalanish tartib-qoidalarini o'rgatadi;

- talabalarga ishlab chiqarish texnologiyalari bo'yicha maslahatlar beradi;

- yaqin atrofda joylashgan boshqa koxona, muassasa, tashkilotlarga birgalikda tashriflar o'tkazadi; malaka amaliyoti kundaligining yuritilishi ustidan doimiy nazoratni amalga oshiradi;

- talaba ish vaqtining davomiyligiga rioya etilishini nazorat qiladi;

- malaka amaliyoti kundaligiga talabarning ijobiy va salbiy fazilatlarini, uning o'zlashtirish darajasi va boshqa ma'lumotlarni yorituvchi yozuvlarni kiritadi;

- amaliyotchi-talabalar bilan tashkilot rahbarlari va yetakchi xodimlarning uchrashuvini hamda texnologik jarayonlarni takomillashtirish, ishlab chiqarishdagi mavjud muammolarning yechimlarini izlash maqsadida seminar-treninglar tashkil etadi.

Qabul qiluvchi tashkilotdan malaka amaliyoti rahbari talabaga malaka amaliyoti o'tash dasturi bilan bog'liq bo'lmagan vazifalarni bajarish topshirig'ini berishi taqiqlanadi.

Pedagogika ta'lim yo'nalishida malakaviy amaliyot 20 hafta 1-6 semestrlarda olib boriladi.

Malakaviy amaliyotning maqsadi – talabalarda egallagan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash orqali mantiqiy va muntazam mustahkamlash hamda nazariyani amaliyot bilan bog'lash qobiliyatini shakllantirishdan iborat.

Malakaviy amaliyotning vazifasi – nazariy bilimlarni mustahkamlash, chuqurlashtirish va ularni talabalar bilan olib boriladigan ishlar jarayonida qo'llash ko'nikmalarini tarbiyalash, talabalar bilan sinfdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy ishlar malakalarini shakllantirish, sinf rahbari ishini rejalashtirish va uning funksiyasini bajarish ko'nikmalarini tarbiyalash, ilg'or o'qituvchilar, pedagogik targ'ibot asoslarini egallashga tayyorlash.

Malakaviy amaliyot foliyatining mazmuni – pedagogik faoliyat, ilmiy-tadqiqot faoliyat, ma'naviy-ma'rifiy faoliyat hamda tashkiliy-boshqaruv faoliyat turlarini *shakllantirish, rivojlantirish va takomillashtirishga* qaratilgan.

Malakaviy amaliyot natijalari :

- ta'lim muassasalari, davlat boshqaruv organlari, boshqa davlat va nodavlat muassasalaridagi me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan tanishish va ularni yuritishni o'rganishi;

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalarini o'zida rivojlantirishi;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallashi, o'z kasb faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishni;

- tajribali o'qituvchilar ishi hamda rejalari bilan tanishish;

- mahalla va oilaning ta'lim muassasasi bilan hamkorligi talabalar tarbiyasiga ta'sirini tahlil qilishini tahlil eta olishi malakasiga ega bo'lishi kerakligi bilan baholanadi.

Kreditlarni olish uchun talablar malakaviy amaliyotga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va berilgan vazifa va topshiriqlarni bajara olishlari bilan baholanadi.

Talabalar malakaviy amaliyotini baholash mezonini quyidagicha:

Amaliyot natijasi 100 ball hisobidan baholanadi.

90-100 ball «a'lo».

70-89 ball «yaxshi».

60-69 ball «qoniqarli».

60 dan past «qoniqarsiz».

Amalariyot davrida talabalarni huquq va majburiyatlari.

Talabaniing malaka amaliyotini o'tash bo'yicha huquqi:

- malaka amaliyotini o'tash joyi, reja-jadvali, dasturi va tartibi bilan oldindan tanishish;

- malaka amaliyotini o'tkazish bo'yicha o'z fikr-mulohazalarini bildirish;

- malaka amaliyotini o'tash yuzasidan zarur axborotlar olish;

- malaka amaliyoti bo'yicha uslubiy materiallar bilan tanishish hamda malaka amaliyoti rahbarlaridan yo'l-yo'riqlar olish huquqlariga ega.

Talabning malaka amaliyotini o'tash bo'yicha majburiyatlari:

- amaliyot dasturida ko'zda tutilgan topshiriqlarni to'liq bajarishi;

- amaliyot obyektining ichki mehnat tartib qoidalariga bo'ysunishi;

- mehnat muhofazasi, xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi qoidalarini o'rganishi va qat'iy rioya qilishi;

- bajarilgan ish va uning natijalari uchun shu korxonada ishchilari qatori javobgarlik olishi;

- kundalik daftar yuritishi, chizmalar, tasvirlar va boshqalarni bajarishi;

- hisobotga tegishli hujjatlarni o'z vaqtida rasmiylashtirish;

- amaliyot rahbariga barcha topshiriqlar bajarilgani haqida yozma ravishda hisobot berishi va amaliyot bo'yicha sinov topshirishi shart.

Hisobot hujjatlarini tayyorlashga qo'yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyotni yakuni – bu kalendar rejada belgilangan vazifalarni bajarilishi va hisobot tayyorlashdan iborat. Amaliyot yakunlangach talaba kafedraga (Amaliyot rahbari OTM) hisobot topshiradi.

Hisobot tuzilishi:

1. Titul varaq

2. Amaliyot ish rejasi

3. Amaliyot kundaligi

Amaliyot kundaligi – nazorat qilish shakli, kundalik kuzatuvlar natijasi qayd etiladi, amaliyot davri tahlil etiladi, atamalar ombori yig'iladi, kundalik tuzish talablari va mazmuniga rioya qilinadi.

Amaliyot kundaligi talaba tomonidan imzolangan bo'lishi shart, amaliyot o'tilayotgan tashkilot rahbari imzosi va muhri bilan tasdiqlangan bo'ladi. Kundalik shakli va mazmuni bitiruvchi tayyorlovchi kafedra tomonidan tavsiya etiladi.

4. Individual topshiriqlar. Talabaning amaliyot davridagi individual topshiriqlari OTM tomonidan biriktirilgan amaliyot rahbari tomonidan belgilanadi. Shu bilan birga, ba'zi hollarda amaliyot obyekti rahbari tashabbusi bilan topshiriqlarga qo'shimchalar kiritish mumkin. Tashkil etilgan konferensiyada talabaga individual topshiriq beriladi va malakaviy amaliyot rahbari (OTM), tashkilot/muassasa rahbari hamda talaba tomonidan imzolanadi. Topshiriqlar kasbiy kompetensiyani hisobga olgan holda tayyorlangan bo'lishi shart.

5. Individual topshiriq materillari

6. Amaliyotni borishi to'g'risida yozma hisobot. Amaliyot yakunida tayyorlanadigan yozma hisobot har bir amaliyot o'tagan talaba tomonidan shaxsan tuziladi va amaliyot davri to'liq hisobotda aks ettirilib, natijalarni umumlashtirgan holda taqdim etiladi. Yozma hisobotning tuzilishi va mazmuni bitiruvchi tayyorlovchi kafedra tomonidan ishlab chiqilib tavsiya etiladi. Amaliyot o'tayotgan tashkilot rahbarining xulosasi talabaning amaliyot dasturida belgilangan vazifalar va individual topshiriqlarni bajarish sifatiga baho beradi. Amaliyotchining o'z majburiyatlarini bajarishiga munosabati, kasbiy kompetensiyasi darajasi, nazariy bilimlarni amalda qo'llay olish malaka va ko'nikmalari hamda amaliyotni umumiy baholaydi. Berilgan xulosa tashkilot rahbari tomonidan imzolanib, muhrlanadi. Amaliyot yakunida topshiriladigan hisobot amaliyot rahbari

(OTM) tomonidan ham baholanadi. Amaliyot dasturini bajarish holatiga ko'ra talaba hisobotini himoya qilishga ruxsat etiladi. Amaliyot hujjatlarini himoya qilish o'rnatilgan muddatda o'tkaziladi va konferensiya yakunida e'lon qilinadi.

Malaka amaliyotini yakunlash. Malaka amaliyoti yakunida talaba yozma ravishda malaka amaliyoti dasturi bo'yicha tayyorlagan hisobotni hamda (uni qabul qiluvchi tashkilotdan tayinlangan rahbar imzolagan) kundaligi bilan birga OTMdan tayinlangan rahbarga kafedra yig'ilishi bayonida belgilangan muddatlarda topshiradi. Talabaning malaka amaliyotini baholash jarayoni tegishli kafedralarda o'tkaziladi. Baholash jarayonida dekan, tegishli kafedra mudiri, o'quv-uslubiy boshqarma (bo'lim) vakili hamda qabul qiluvchi tashkilotdan malaka amaliyoti rahbari ishtirok etishi mumkin. Malaka amaliyoti natijasi bo'yicha qo'yilgan baho talabaning kursdan kursga o'tishida hisobga olinadi. Malaka amaliyoti davrida talaba amaldagi baholash nizomiga muvofiq ishlab chiqilgan malaka amaliyoti dasturiga kiritilgan baholash mezonlari asosida joriy baholanishi va yakunlari bo'yicha baholanishida inobatga olinishi mumkin. Malaka amaliyoti yakunlari bo'yicha qoniqarsiz baho olgan yoki uzrli sabablarsiz amaliyotga qatnashmagan talaba akademik qarzdor sifatida OTM rektori (direktori) buyrug'i bilan kursdan qoldiriladi. Malaka amaliyotini o'tash davrida talabaning uzrli sabablarga (kasal bo'lib qolishi, oilasi bilan bog'liq baxtsiz hodisalar va b.) ko'ra qatnashish imkoniyati bo'lmagan holatlarda, talabaning malaka amaliyotini o'tash vaqti OTM rektori (direktori) buyrug'i bilan o'quv yili (semestr) davomidagi boshqa muddatga (odatda, ta'til davriga) ko'chirilishi mumkin. Malaka amaliyoti yakuni OTM ilmiy-uslubiy Kengashi (tegishli fakultet Kengashi)da qabul qiluvchi tashkilotning vakillari ishtirokida muhokama qilinadi. Qabul qiluvchi tashkilotning tegishli yig'ilishida bitiruvchi talabaning malaka amaliyoti davomidagi faoliyati muhokama qilinib, uni ishga joylashtirish

masalasi ko'rib chiqiladi. *Yig'ilish natijalaridan kelib chiqib, tashkilot rahbariyati:*

- tashkilotdagi bo'sh vakant o'rinlarini to'ldirish;
- tashkilotni rivojlantirishning strategik dasturlari doirasida tashkil etiladigan yangi ish o'rinlariga jalb etish yuzasidan qaror qabul qiladi.

Pedagogik amaliyot tuzilishi va shartlari. Pedagogik amaliyot kasb ta'limi yo'nalishlari uchun qo'llaniladi va pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

Darslarni kuzatish va tahlil qilish. *Darslarni kuzatishdan maqsad:* professor-o'qituvchilarning amaliy-metodik faoliyatini o'rganish, o'qituvchilik mas'uliyatini oshirish, dars samaradorligiga erishish.

Darslarni kuzatishning quyidagi vazifalari mavjud:

- dars kuzatuvchilar tomonidan ta'lim muassasasida o'qituvchi ishiga baho berish;

- dars jarayonining dars o'tish bosqichlariga mosligini kuzatish;

- kuzatuvchilar tomonidan dars o'tayotgan o'qituvchiga amaliy-metodik yordamlar berilishiga erishish;

- ilg'or tajribalarni o'rganish va ommalashtirish;

- o'qituvchilar o'zaro bir-birlarining pedagogik usul va uslublarini o'rganishiga da'vat qilish orqali ta'lim samaradorligini oshirish.

- O'qituvchilarning darslarga tayyorgarligi.

O'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rishida quyidagilarga e'tibor qaratiladi.

1) darsga tayyorgarlik ko'rish jarayonida o'qituvchidan mavzuining ishchi dastur va taqvimiy rejaga mosligiga e'tibor berish, dars ishlanmasi, turli didaktik tarqatma materiallar va ko'rgazmali qurollarni tayryolash talab etiladi;

2) darsga davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturlariga mos ravishda aniq maqsad qo'yish;

3) dars o'tiladigan xonani tayyorlash, doskaning tozaligi, bo'r, latta yoki markerlarni tayyorlash, videoproyektor, elektron doskaning tayyorligiga e'tibor qaratish;

4) mavzuning ilmiyligi va izchilligi, oddiydan murakkabga tomoni yo'naltirish; ko'rgazmalilik va berilayotgan bilim, yangi axborotlarning hayotiyligiga, jonli va ravon tilda ochib berilishiga e'tibor qaratish;

5) o'quv dasturi asosida mavzuga ajratilgan soatlarning mosligi, o'quvchining yoshi va shaxsiy-psixologik xususiyatini hisobga olib, ularni o'ylashga, izlanishga undashi, ijodkorlik, uslubiy mahorat, ilg'or pedagogik va novatorlik tajribalaridan foydalanish;

Dars kuzatish va tahlil qilish ketma-ketligi:

1) Dars kuzatuvchining maqsadi;

2) Dars jarayonini kuzatish va tahlil qilish;

3) Dars jarayonida o'qituvchining dars o'tish bosqichlariga amal qilish;

4) Dars samaradorligi va o'qituvchining ish faoliyatini yanada yaxshilashga oid dars kuzatuvchining tahlillari hamda taklif va mulohazalari.

Dars tahlilining turlari va yo'nalishlari. Dars tahlili qilishni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- Ilmiy tahlil;
- Metodik tahlil;
- Didaktik tahlil;
- Umumpedagogik tahlil;
- Psixologik tahlil.

Ilmiy tahlil – berilayotgan bilimlarning ilmiy-nazariy jihatlarini, o'quvchi bajarayotgan mustaqil ishning esa maqsadga muvofiq yo'nalishi jihatidan to'g'riligini aniqlash demakdir.

Metodik tahlil – o'qituvchining dars jarayonida qo'llagan usullarining maqsadga muvofiq ekanligi ta'limning turiga va o'ziga xos xususiyatlariga qarab belgilanadi. O'quv materiallarini

o'quvchilarga bayon qilish va tushuntirish jarayonida qo'llanilgan usullarning shu materialga mos yoki mos emasligi metodik tahlil davomida aniqlanadi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, o'qituvchi darsda qo'llagan usullarning samaradorligi, rang-barangligi, namunaviyligi uning o'tgan, yangi mavzu materialini o'quvchilarning qay darajada o'zlashtirib olganliklari bilan belgilanadi. Shu boisdan har bir dars kuzatuvchi (o'qituvchi, direktor, ilmiy bo'lim mudiri, metodist) dars tahlilining bu turiga alohida e'tibor qaratishi lozim.

Didaktik tahlil – ta'lim turlari samaradorligi va uni belgilovchi qonunlar va qoidalarning darsda qanchalik to'g'ri hamda mukammal bajarilganini tahlil qilish demakdir.

Umumiy pedagogik tahlil – darsdagi hamma jihatlarining qisqa va yengil ko'rinishidagi tahlildir.

Psixologik tahlil – darsning aniq maqsad va vazifalariga, darsning mazmuniga, darsda o'quvchilar faoliyatining namoyon bo'lishi va uning boshqarilishiga, o'quvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga darsning ta'siri, darsda o'qituvchi shaxsi va faoliyatining tarbiyaviy ta'siriga, darsning natijalariga psixologik baho berishdan iborat.

Ma'lumki, kuzatilgan darsning tahlili umumiy pedagogika va xususiy metodika talablari nuqtayi nazaridan bir xil bo'lsa ham, lekin har bir fanning o'z talablari bor. Barcha fanlar bo'yicha darslarni kuzatish va ularni tahlil qilishdan asosiy maqsad o'quvchilarning bilim va malakalarini takomillashtirishga o'qituvchilarning mas'uliyatini oshirishga qaratilmog'i lozim.

Darsning ilmiy-pedagogik jihatdan tahlili:

1. O'qituvchining ilmiy jihatdan (o'zi mutaxassis bo'lgan fanni ilmiy asosda chuqur bilishi) qurollanganligi;
2. Shu kungi darsga ilmiy jihatdan tayyorgarlik holati;
3. O'z mutaxassisligiga oid eng yangi ilmiy-nazariy axborotlar bilan qurollanib borishi;

4. Dars jarayonida ilmiy qoida va ta'riflarning to'g'ri bayon etilishi hamda ilmiy atamalarning o'quvchilarga singdirib borilishi;

5. Darsda ta'limning o'ziga xos xususiyatlarining hisobga olinishi;

6. Darslik materiallarining qo'shimcha adabiyot materiallari bilan boyitishi;

7. Talaba bajarayotgan laboratoriya, amaliy hamda mustaqil ishlarning ilmiy yo'nalish bo'yicha maqsadga muvofiqligi;

8. Talabalar xulosasining ilmiy jihatdan to'g'ri, qisqa va mukammal bayon etilishi hamda uni o'qituvchi tomonidan nazorat qilinishi;

9. Dars davomida, yangi mavzuni bayon etish jarayonida ta'limning tarbiya bilan bog'lanishi;

10. O'qituvchi va talabalarning nutq madaniyati.

Darsning metodik jihatdan tahlili:

1) hikoya usuli;

2) og'zaki usul;

3) suhbat usuli;

4) talabalarning o'zlashtirishiga ko'ra;

5) o'qituvchining so'zlash usuli;

6) ko'rgazmali qurollardan foydalanish usuli;

7) darslik, konturli karta, diagramma yoki jadvallar, grafikli tashkil etuvchilar bilan ishlash usuli;

8) laboratoriya asboblari bilan ishlash usuli;

9) texnika vositalari (axborot texnologiyalari, vidioproektor, elektron doska kabilar)dan foydalanish usuli;

10) auditoriya doskasidan, geografiya, tarix yoki biologiyaga tegishli bo'lgan turli kartalardan foylanish usuli;

11) o'qituvchi bayonining talabalar jamoasiga to'la tushunarli bo'lishi va bayonning izchil ravishda talaba ongiga yetib borishi;

12) o'qituvchi fikrining siyosiy-g'oyaviy jihatdan tarbiya talabga mos bo'lganligi;

13) barcha talabalarning o'qituvchi berayotgan materiallarni ongli ravishda o'zlashtirishlari;

14) o'qituvchi fikrining izchilligi;

15) dars jarayonida yoki yangi mavzuni bayon qilishda ko'rgazmali qurollaridan, tarqatma materiallari va texnika vositalaridan foydalanishning maqsadga muvofiqligi yoki nomuvofiqligi;

16) ekskursiya, tajriba, laboratoriya va amaliy ishlarning maqsadga yo'naltirilgan holda o'tishga erishilganligi.

«_____» _____ 20__ y.

№	Ochiq darsni baholash mezonlari	Ballar
1	Darsning tashkil etilishi	15 %
1.1	O'qitish vositalaridan foydalanish darajasi	
1.2	Dars jarayonini boshqarish	
1.3	Talabani bilimini nazorat qilish	
2.	Dars mazmuni	35 %
2.1	Mashg'ulot mazmunining dolzarbligi	
2.2	Ilmiy-amaliy yo'naltirilganligi	
2.3	Avval o'zlashtirilgan mavzular bilan bog'liqligi	
2.4	Tavsiya etilgan adabiyotlar sifati (yangiligi va qulayligi)	
2.5	Darsning tarbiyaviy yo'naltirilganligi	
3.	Pedagogik mahorati	15 %
3.1	Pedagogning tashqi ko'rinishi	
3.2	O'zini tutish etikasi	
3.3	Nutq madaniyati	
3.4	Umumiy eruditsiyasi	
3.5	Talabalar bilan muloqoti	
4.	O'qitish metodikasi	35 %
4.1	Materialni bayon etishdagi aniqlik, mantiqiylik va	

	izchillik	
4.2.	Xorijiy tillardagi o'quv materiallaridan foydalanish darajasi	
4.3.	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish darajasi	
4.4	Darsda pedagogik texnologiyalarning to'g'ri tanlanishi va ulardan foydalanish darajasi	
4.5.	O'qituvchining darsga kreativ yondashganlik darajasi	
	Jami ballar	100 %
	Jami olingan ball	

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

Nazorat savollari:

1. Oliy ta'limda tashkil qilinadigan qanday amaliyot turlari mavjud?
2. Amaliyot nimalarni shakllantirishga yo'naltiriladi?
3. Bakalavrlar tayyorlashda qanday malaka amaliyotlari o'tkaziladi?
4. Malakaviy amaliyotni tashkil qilish mazmuni izoh bering.
5. Malakaviy amaliyotni tashkil etish va rahbarlik qilish vazifalari nimalardan iborat?
6. Malakaviy amaliyot natijalari qanday baholanadi?
7. Pedagogik amaliyot tuzilishi va shartlari haqida ma'alumot keltiring.

Topshiriq:

Nuqtalar o'rniga bakalavrlar tayyorlash malaka amaliyotlari ta'rifiga mos atamalarini keltiring!

Atamalar: *bitiruv oldi amaliyoti; pedagogik amaliyot; ishlab chiqarish amaliyoti.*

Namuna:

o'quv (tanishuv) amaliyoti – iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi;

..... – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

..... – ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonada, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'alumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi;

..... – kasb ta'limi yo'nalishlari uchun qo'llaniladi va pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

11-MAVZU. TALABALARNING OLIY TA'LIMDA KOMPLEKS FAOLIYATI VA HUQUQLARI

Tayanch tushunchalar: Ustoz-shogird an'anasi, Axborot resurs markazi va undan foydalanish tartibi, kitob ustida ishlash va uning bosqichlari

Talabalarning huquqlari va majburiyatlari. OTMga qabul umumiy o'rta (11-sinf negizida), professional ta'lim ma'lumotiga ega bo'lgan shaxslarning arizasiga binoan, O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlariga talabalar qabul qilish to'g'risidagi Nizom⁸ga muvofiq test sinovlari natijalariga ko'ra Davlat granti va to'lovli-kontrakt hajmi doirasida tanlov asosida amalga oshiriladi.

Talabaning, bir vaqtning o'zida ham OTMda, ham boshqa oily o'quv yurtida ta'lim olishiga yo'l qo'yilmaydi.

2. OTM rektori buyrug'i bilan o'qishga qabul qilingan shaxslar OTM talabasi hisoblanadi. Talabaga talabalik guvohnomasi beriladi.

3. OTM talabalari quyidagi huquqlarga ega:

- Ilm-fan, texnika va madaniyat rivojining hozirgi zamon darajasida bilim olish;

- Institutdagi barcha ko'rinishdagi o'quv mashg'ulotlariga qatnashish;

- Institut va fakultet faoliyatiga doir muhim masalalarni muhokama qilish va ishtirok etish, shu jumladan, jamoat tashkilotlari va oliy o'quv yurtlari boshqaruv organlari orqali ta'sir ko'rsatish;

- Kutubxonadan, hisoblash mashinalaridan, o'quv laboratoriyalaridan, axborot fondlaridan;

⁸ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish, talabalar o'qishini ko'chirish, qayta tiklash va o'qishdan chetlashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi qarori, 20.06.2017 yildagi 393-son

-
- Institutning o'quv, ilmiy, sog'lomlashtirish va boshqa tarmoq xizmatlaridan bepul foydalanish;
 - O'quv mashg'ulotlarining o'tishini sifatli ta'minlay olmayotgan o'qituvchilarni almashtirish masalasini qo'yish;
 - Olimpiadalarda, tanlovlarda, xalqaro tanlov va turli ko'riklarda ishtirok etish;
 - Ilmiy-tadqiqot ishlarining barcha turlari (grantlar, halqaro grantlar, ilmiy seminarlar, simpoziumlar)da ishtirok etish;
 - O'z ishlarini nashrga, shu jumladan, institut nashrlariga tavsiya etish;
 - O'zi tanlab olgan mutaxassislik yo'nalishi bo'yicha o'quv fanlarini o'zlashtirish;
 - O'qishdan tashqari (bo'sh) vaqtlarida mehnat shartnomasi bilan institutning o'zida va undan tashqarida ishlash (bu ish mehnat qonunchiligiga muvofiq o'rindoshlik sanalmaydi);
 - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda, institut boshqaruvining buyruqlari va ko'rsatmalari bo'yicha shikoyat qila olish;
 - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda, harbiy ixtisoslik bo'yicha ta'lim olish.

4. Davlat grantlari asosida kunduzgi bo'limda ta'lim olayotgan fanlardan o'zlashtirishga erishgan talabalar O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan belgilangan tartib va hajmda stipendiya bilan ta'minlanadilar. Talabalar, muayyan qoidalar asosida nomdor stipendiya olish huquqiga egadirlar. O'qishga yuridik yoki jismoniy shaxslarning to'lov shartnomasi bo'yicha qabul qilingan va o'zlashtirishga erishayotgan talabalarga stipendiya belgilanishi mumkin.

Tibbiy xulosaga ko'ra, talabaga amaldagi qonunlarga muvofiq, akademik ta'lim berilishi mumkin.

Kunduzgi bo'lim talabalariga, O'zbekiston Respublikasining Qonuniga muvofiq, institutda ta'lim olish muddati tugaguncha

harbiy xizmatga chaqirilish muddatini kechiktirish imkoniyati beriladi.

Turar joyga ehtiyoji bo'lgan talabalarga institut yotoqxonasidan joy beriladi. Talabalar uchun yotoqxonada yashash uchun to'lov hajmi stipendiya hajmining 5 foizidan oshmaydigan miqdorda belgilanadi.

5. OTM talabalarining majburiyatlari quyidagilardan iborat:

- barcha ko'rinishdagi majburiy auditoriya mashg'ulotlariga qatnashish, tanlangan mutaxassislik bo'yicha, ijtimoiy-gumanitar fanlar bo'yicha nazariy bilimni, amaliy ko'nikmalarni va ilmiy tadqiqotlarning zamonaviy metodlarini chuqur egallash;

- kursdan kursga o'tish uchun OTM tomonidan belgilangan GPA ko'rsatkichining kamida o'tish balini o'z muddatida to'plash;

- doimiy ravishda umumiy va milliy madaniyatni yuksaltirishga, iqtisodiy, huquqiy va ekologik bilimlarni egallashga, ma'naviy va ruhiy, axloqiy, estetik va jismoniy barkamollikka intilish;

- umumxalq bayramlari, jamoat tadbirlari, tanlovlar va boshqalarda faol ishtirok etish;

- Institutning jihozlari, adabiyotlar, o'quv asboblari va boshqa mol-mulklarni avaylash;

- Texnika havfsizligi qoidalariga, institut hududida va yotoqxonada ichki tartib va tozalik tartib-qoidalariga rioya qilish;

6. GPA o'tish balini to'play olmagan talaba qayta o'qish uchun tegishli kursda qoldiriladi. Kursdan kursga qolgan talabalar faqat qarzdor bo'lgan fanlarni o'zlashtirib unlarga mos ravishda shrtнома mablag'lari to'laydi. Jami ta'lim olish muddati bakalavriat uchun 1-kursga o'qishga qabul qilinganidan so'ng 8 yilgacha deb belgilangan.

Ta'lim oluvchi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari asosida o'qishni qayta tiklash va ko'chirish huquqida ega. Ta'lim

oluvchi tomonidan chetlashtirilgunga qadar o'zlashtirgan kreditlar miqdori OTM tomonidan to'liq hajmda hisobga olinadi.

7. OTM talabalari uning Ustaviga, shuningdek, ichki tartib qoidalariga rioya qilishga majburdirlar.

Talabalarni O'zbekiston Respublikasi hukumati Qaroriga muvofiq keluvchi holatlardan tashqari, o'quv jarayoniga aloqador bo'lmagan ishlarga o'quv vaqti hisobidan jalb qilish taqiqlanadi.

Intizomiy jazo chorasi uning qilmishi aniqlangan kundan boshlab bir oydan ortiq bo'lmagan muddat ichida va aybni sodir etgan kundan hisoblaganda, olti oy ichida qo'llanadi. Bunda talabaning kasalligi yoki ta'tilda ekanligi ham hisobga olinmaydi.

Semestr va o'quv yili yakuni natijalari bo'yicha akademik qarzdorligi bor ta'lim oluvchilar o'qishdan chetlashtirilmaydi.

OTMda ta'lim olayotgan talabalarga yaxshi o'zlashtirishga erishgan, ilmiy-tadqiqot ishlaridagi va jamoa faoliyatidagi faol ishtiroki uchun quyidagi rag'batlantirish tadbirlari belgilanadi:

- a) rahmatnoma e'lon qilish;
- b) faxriy yorliq va qimmatbaho sovg'a bilan mukofotlash;
- c) hurmat taxtasiga kiritish;
- d) mukofotlash va boshqalar;
- e) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasiga taqdim etish.

Ustoz-shogird asosida sohaga oid bilimlarni mustahkamlash. Ma'lumki, bu dunyoning rivojlanishida insoniyatning taraqqiy etishida ustozning o'rni beqiyos. Dono xalqimiz «Ustoz ko'rgan», «Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar», «Ta'lim bergan ustozingga rahmat», «Ustoz-otangdek ulug'», «Usta borida qo'lingni tiy, ustoz borida tilingni», «Usta bo'lsang ustozingni unutmang», «Ustozingga tik qarasang to'zasan, hurmat qilsang asta-asta o'zasan», deb bejiz aytishmagan. «Ustoz» so'zi o'zbek tilining izohli lug'atida *yo'l-yo'riq ko'rsatuvchi, tarbiyalovchi, murabbiy, rahnamo, o'qituvchi, muallim* degan ma'nolarni anglatishi yozilgan. Demak, «ustoz»

nomi keng ma'noli so'z bo'lib, bu nomga muyassar bo'lgan kishiga har tomonlama yuksak mas'uliyat yuklatiladi. Shuning uchun ham xalq orasida ustozlar hurmati to'g'risida ko'plab ibratli naqlar bor. Buning ma'nosi shuki, har qanday kasb sohibi ustozsiz shakllanmaydi, hayotdan o'z o'rnini topa olmaydi.

Qadim Sharq xalqlarida ustoz, murabbiy, mudarris, muallim, tarbiyachi nomlari bilan yuritiluvchi zotlarning izzati va hurmati hamisha yuqori bo'lgan. Inson o'zini anglagan davrdan ustozlarga suyangan, ulardan ma'naviy qudrat olgan. Agar iqtidorli ustoz o'z maktabini yaratmasa, o'zidan keyin bilimdon, iste'dodli shogirdlar qoldirmasa, uning hayoti, umri besamar o'tgan bo'ladi. Ustoz qanchalik buyuk bo'lmasin, ta'lim jarayonida qanchalik yutuqlarga erishmasin, o'z bilim tajribasini ishonchli shogirdlarda qoldirmasa, uning erishgan yutuqlari suvga tushgan toshday izsiz yo'qoladi. Alisher Navoiy bu borada quyidagi misrani bitgan edi: «Hunarni asrabon netkumdir oxir, Olib tuproqqamu ketgumdir oxir».

Axborot resurs markazi va undan foydalanish tartibi. Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishining kasbiy vazifalarida qo'yiladigan malaka talablari pedagogik faoliyat, ilmiy tadqiqot faoliyati, ma'naviy ma'rifiy faoliyat, tashkiliy-boshqaruv faoliyati kabi belgalangan. Bu faoliyatlarni bevosita sohaga oid ilmiy-nazariy ma'lumotlarni egallashning asosiy funksiyasi kitob o'qish bilan xarakterlidir. Chunki mutolaa asnosida olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash bilan faoliyat maqsadi amalga oshiriladi. Kitoblar bosma va elektron shaklga bo'linadi. Hozirgi taraqqiyot asrida o'quv adabiyotlarining yangi avlodi yaratilgan bo'lib, ular ta'lim yo'nalishi o'quv rejasida ko'rsatilgan ma'lumot mazmunini darslik, o'quv qo'llanma, o'quv metodik qo'llanma, monografiya, risolalar, multimediyalar va boshqa ko'pgina elektron dasturiy ta'minotlar orqali ochib beradi.

Kitob – bilim, ma’naviyat va ma’rifat manbai bo’lib u insonni ulug’laydigan, unga ma’naviyat va ma’rifat asoslarini shakllantiradigan, uni komil qilib tarbiyalaydigan kuch, dunyoni tanitish manbai sifatida xizmat qiladi.

Ilmiy va badiiy ahamiyatga ega bo’lgan kitob axborotlarni, g’oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi sanalib, bilimlar targ’iboti va tarbiya quroli hamdir. Xalqaro statistikada YUNESKO tavsiyasiga ko’ra, hajmi 48 sahifadan kam bo’lmagan, taboqlab tikilgan nodavriy nashrni, shartli ravishda, «kitob» deb aytish qabul qilingan.

Kitob mutolaasi ilmiy-amaliy jihatlari psixolog, sotsiolog hamda pedagog xodimlar tomonidan asoslangan. Kitobxonlik madaniyati sifatida psixologlarimiz tomonidan kitob mutolaasiga yosh xususiyatlar, kunning belgilangan muddati, tafakkurning ma’lumotni qabul qilish ko’lami va boshqalar inobatga olingan bo’lsa, sotsiologlarimiz ishtimoiy ong va uning faolligi, jamiyat g’oyalari kabi jihatlarni ko’rsatib o’tadilar. Pedagoglarimiz ta’lim jarayonida ta’lim maqsadini amalga oshirishda hamda ta’lim mazmunini yetkazishda kitobning o’rni yuksakligini ko’rsatib o’tadilar.

Ilmiy kitob va darsliklar ilmiylik, tushunarlik, sistemalilik, izchillik, ko’rgazmalilik va o’zida belgilangan qator pirinsiplar asosida tuziladi. Tegishli bosqichlarda tashkilotlar tomonidan tasdiqlanadi va talaba-yoshlar ushbu kitoblarni kutubxonalardan yoki elektron kutubxonalardan olib mutolaa qilish imkoniyatiga ega bo’ladilar.

Kutubxonalarning vazifasi ushbu durdona fikrlar aks etgan, ma’naviy ozuqa beradigan, bilimga boy bo’lgan matbuot asarlarini to’plash, saqlash va undagi axborotlarni kitobxonga yetkazib berishdan iborat. Kutubxonalarga a’zo bo’lish bevosita va bilvosita amalga oshiriladi. Masofaviy tarzda ham elektron kitoblardan foydalanish imkoniyati mavjud. Axborot-kutubxona

muassasalarining axborot-kutubxona fondlarini saqlanishi to'g'risida yo'riqnomaga belgilanganidek, abonent – axborot-kutubxona muassasasi tomonidan doimiy foydalanuvchi sifatida ro'yxatga olingan jismoniy yoki yuridik shaxs hisoblanadi.

Axborot-kutubxona resursi deganda moddiy obyektida matn, ovozli yozuv yoki tasvir tarzida qayd etilgan hamda identifikatsiyalash, saqlash hamda foydalanishni ta'minlash uchun rekvizitlarga ega bo'lgan axborot tushuniladi. Kutubxonalar imkoniyatini kengaytirish maqsadida kutubxonalararo abonement yaratilgan. Kutubxonalararo abonement, ya'ni axborot-kutubxona muassasasining bo'limi (xizmat) yoki shu'basi bo'lib, fondida mavjud bo'lmagan adabiyotlarni bunday nashrlarga ega bo'lgan axborot-kutubxona muassasalaridan olib, foydalanuvchilarga taqdim etish orqali ularning so'rovlarini har tomonlama, o'z vaqtida qondirish maqsadida tashkil etilgan, mamlakat axborot-kutubxona muassasalari fondlarining o'zaro foydalanish tizimi hisoblanadi.

Pedagogika (qo'shimcha tarbiya fani o'qituvchisi) ta'lim yo'nalishi talabalari OTM va fakultet qoshida tashkil etilgan kutubxonalaridan unumli foydalanishi mumkin. Ushbu kutubxonalardan ta'lim yo'nalishi fan dasturida belgilangan darslik va o'quv qo'llanmalarni kitob yoki elektron shaklda qo'lga kiritishi mumkin. Bundan tashqari, talabalar respublikamizning nufuzli kutubxonalariga a'zo bo'lish orqali ma'lumotlarni olish imkoniyatiga egalar.

Jumladan, Pedagogika ta'lim yo'nalishi o'zining fan doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi, viloyatlar, shu o'rinda, Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyat axborot-kutubxona markazi, Nizomiy nomidagi Toshkent Davlat pedagogika universiteti kutubxonalaridan foydalanishi mumkin.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi fondida jahonning 75 tildagi manbalar mavjud bo'lib, deyarli 10 million nusxaga yetgan. Kutubxona respublikamizdagi barcha kutubxonalarga kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohalari bo'yicha metodik rahbarlik qiladi.

Milliy kutubxonada ilmiy ishlar bazasi yaratilgan bo'lib, muntazam O'zbekistonda 1991-yildan e'tiboran himoya qilingan nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari, shuningdek, avtoreferatlar bilan boyitib borilmoqda. Kutubxona fondidan quyidagi havolalar orqali kirib foydalanish mumkin: <https://www.natlib.uz/>, <http://nodir.natlib.uz/>, <http://diss.natlib.uz/>.

Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro viloyati axborot-kutubxona markazidan (<https://www.bukhara.natlib.uz/>) ham keng ko'lamda foydalanish mumkin. Kutubxonaning Sharq adabiyotlari bo'limidagi nodir kolleksiyalar asosini Buxoroning so'ngi amiri Mir Sayid Olimxonning mang'it kutubxonasi va amirlikning mansabdor shaxslari kutubxonalarida to'plangan kitoblar tashkil etadi.

Kutubxonada Kitob saqlash, To'kislash, Adabiyotlarga ishlov berish, Kitobxonlarga xizmat ko'rsatish, Shahar abonementi, Ilmiy-metodik, Axborot-bibliografiya, Gazeta va jurnallar, Sharq adabiyotlari, O'smirlar abonementi bo'limlari, O'lkashunoslik shu'basi va Oilaviy qiroatxona mavjud. Hozirda kutubxona fondi 239066 nusxa bo'lib, viloyatdagi 450 ta ommaviy kutubxonalarga metodik rahbarlik qiladi.

Ta'lim yo'nalishiga metodik tayanch universitet bo'lmish Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti kutubxonasida ham fan sohasi bo'yicha ulkan manbalar mavjud. Kutubxona tarixi universitetning institut sifatida tashkil topishi bilan bog'liq. Kutubxona dastlab katta bo'lmagan bir xonada

3 ming nusxa kitob fondi bilan tashkil qilingan. 1970-yillarga kelib o'quv qiroatxonasi kengaytirilib, ilmiy xodimlar uchun ham 50 o'rinli qiroatxona tashkil qilingan. Kutubxonaning badiiy adabiyotlar bo'limida XVIII asrga oid asarlar va boshqa nodir lug'atlar mavjud. I.I.Blaunshteyn 1937-yildan 1963-yilgacha kutubxonada mudiralik qilgan va soha rivojiga katta hissa qo'shgan shaxslardan biridir.

Kutubxonada 14 ta bo'lim mavjud. Universitetning «Biblio» dasturi bo'yicha kutubxonaning elektron katalogi tuzilgan. Kutubxona fondi 885345 nusxani tashkil etadi. Kutubxona respublikadagi ko'plab pedagogika oliy o'quv yurtlari va pedagogika bilim yurtlari kutubxonalariga metodik rahbarlik qiladi.

Kitob ustida ishlash va uning bosqichlari. Ta'lim jarayonida talabalar ta'lim mazmunini to'liq o'zlashtirishlari uchun darslik va o'quv qo'llanmalardan foydalanish yo'llarini bilishlari lozim. Kitob ustida ishlash bir qancha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ularning muhimlari quyidagilardan iborat.

Kitob bilan ishlashning birinchi bosqichida adabiyotlar tanlanadi, ya'ni zaruriy kitoblar jamlanadi. Ta'lim yo'nalishida o'qitiladigan har bir fan yuzasidan tuzilgan o'quv dasturida ko'rsatilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlar ro'yxati hamda har bir olimning u yoki bu masala yuzasidan chop etilgan yangi asarlarni o'qish lozimligi haqidagi ko'rsatmalar beriladi va bu ma'lumotlarni to'plashga yaqindan yordam beradi.

Har bir talaba o'quv fanlariga taalluqli adabiyotlarni mustaqil ravishda topishga odatlanishi lozim. Talabalarning o'quv adabiyotlarni mustaqil ravishda to'plashlari uchun quyidagilarni puxta egallab olishlari tavsiya etiladi:

Bibliografiya (yunoncha: *biblion* kitob va... *grafin*) – matbuot hamda yozuv asarlari haqida axborot tayyorlash va berish hamda ularni ma'lum ijtimoiy maqsadlarda targ'ib qilish bilan shug'ullanadigan ilmiy va amaliy faoliyat sohasi. Bibliografiya kitoblarni aniq hisobga olish, matbuotda e'lon qilingan asarlarni

guruhlarga ajratish, tasniflash, ko'p hollarda ularga qisqacha tavsif berish bilan shug'ullanadi. Bibliografiyani tuzishdan maqsad kitobxonlarga chop qilingan asarlar bo'yicha ma'lumot berish, zarur kitobni qidirib topishda unga ko'maklashishdir.

Kitob ustida ishlashning ikkinchi bosqichida kitob o'rganishga va tahlil qilishga kirishiladi. Bu bosqich ham o'ziga tegishli tartib va qoidalarga ega. Kitob o'rganib chiqiladi. Oldin muallif nomi, kitobni qanday atalishi, qayerda va qachon nashr etilganligi haqida axborot olinadi. Titul varaq bilan tanishib chiqqandan so'ng, kitobning mundarijasini sinchiklab o'rganib chiqiladi. Chunki mundarijada kitobning rejasi, qisqacha mazmuni aks etgan bo'ladi.

Kitobni shu tarzda ko'zdan kechirib bo'lgach, uning so'z boshi yoki muqaddima qismini o'qib chiqiladi. Ular muallif yoki mutaxassis kitobida ilgari surilgan g'oyani tushuntirib beradi, hal qilinayotgan muammoning mohiyati va uning qanday yechilishi, uni hal qilishga yondashish yo'llari xususida qisqacha axborot beradi.

Yuqoridagi vazifalar bajarilgandan so'ng, qo'shimcha materiallarga jiddiy e'tibor berish lozim bo'ladi. Ularning izohi, nomi, fan ko'rsatkichlari bibliografiyadan iborat bo'lib, u kitobdagi materiallarni to'liq o'rganish uchun qulaylik tug'diradi. Kitobni bir marta ko'zdan kechirib chiqqaningizdan so'nggina uni sinchiklab o'qib chiqish talab etiladi.

Kitob ustida ishlashning uchinchi bosqichi. Bu bosqichda o'qilgan adabiyotlarning mazmuni qisqacha yozib boriladi. O'rganilayotgan masalada kitobning qanchalik muhim yoki muhim emasligi hisobga olinib, uni qanday tafsilot bilan yozib olish lozimligi aniqlanadi. O'qilgan kitoblarning mazmuni qisqacha yozib boriladi.

O'qilgan kitoblarning mazmunini yozib olishning bir necha xil shakllari mavjud. Yozuvni kitob ustida ishlashning xulosalovchi qismi deb baholash lozim. Kitobning yaxlit bir bo'limi oxirigacha o'qib bo'lingandan so'ng, material qiyomiga

yetkazilgach, yaxshilab tushunish uchun konspekt yozish tavsiya etiladi.

O'qish jarayonida yozib borish matnning mazmunini to'laroq o'zlashtirib olishga yordam beradi. Natijada ko'z bilan ko'ringan narsa harakat bilan mustahkamlanadi. O'qish davomida yo'l-yo'lakay mazmunni qog'ozga tushirib borish kitobxonning diqqatini faollashtiradi va ish jarayonini tezlashtiradi.

Yozib borish matnni e'tibor bilan atroflicha o'rganishni taqozo qiladi. Shuning uchun ham o'qib mazmunni qog'ozga tushirib borilganda, o'qish samarali bo'ladi. Bundan tashqari, bu usul mantiqiy fikrlashni o'stiradi.

Konspekt qilish uchun materiallar tanlanar ekan, uni o'ylab, eng muhimini ajratib, matnning tarkibiy qismlari o'rtasidagi o'zaro aloqani aniqlab olinadi. Nihoyat, yozib borish xotirada yaxshi saqlanib olgan bilimni tizimga solishda va mustahkamlashda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Bu keyingi ishlarda ham katta ahamiyat kasb etadi. Qisqa vaqt ichida biron- bir narsani takrorlash zarur bo'lib qolganda bu yozuvlarni bir ko'zdan kechirib chiqilsa, ilgari o'qigan hamma narsa yodga qayta tiklanadi. Psixologik hodisa sanalgan xotiraning asosiy xususiyati ham shundadir.

Yozib borishning bir qancha shakl va ko'rinishlari mavjud. Ularni ba'zi bir xarakterli shakllarini quyidagilardan iborat: dastlabki yozuv va belgilar, konspekt, qisqacha ma'ruza, tezislar, qisqa yozuv.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

Nazorat savollari:

1. Talabalarning huquqlari va majburiyatlari nimalardan iborat?
2. Ustoz-shogird asosida sohaga oid bilimlarni mustahkamlash mazmunini izohlang.
3. Axborot resurs markazi va undan foydalanish tartibi nimalardan iborat?
4. Ilmiy va badiiy adabiyotlarga nimalar kiradi?
5. Kitob ustida ishlash va uning bosqichlarini sanab o'ting?

1-topshiriq:

Kitobga ta'rif bering!

Kitob – _____

Axborot-kutubxona resursiga ta'rif bering!

Axborot-kutubxona resursi - _____

2-topshiriq:

Kitob ustida ishlash va uning bosqichlari mazmunini ochib bering.

Bosqichlari	Mazmuni
<i>Kitob bilan ishlashning birinchi bosqichi</i>	
<i>Kitob ustida ishlashning ikkinchi bosqichi</i>	
<i>Kitob ustida ishlashning uchinchi bosqichi</i>	

12-MAVZU. TALABALARNING IJODIY FAOLIYATI

Tayanch tushunchalar: o'quv loyihalari va unda ishtirok etish mazmuni, raqamli texnologiyalardan foydalanish, taqdimotlar tayyorlash va uni havola etish, sohaga oid muammolarni izlash va uni saralash

O'quv loyihalari va unda ishtirok etish mazmuni. Mustaqil ijodiy ishning muhim ustuni bu o'quv loyihasidir. O'quv loyihasi o'rganilgan mavzu yoki bo'limni yanada chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan, ta'lim jarayoniga tajriba, faoliyat asosida yondashuvga imkon beruvchi, tadqiqoqchilik va izlanishga doir metodlardan foydalanishni talab etuvchi ta'limni tashkil etish shakli.

Loyiha (project) – ba'zi murakkab ishlanmalarni yaratish bo'yicha hujjatlar yig'indisi. Loyiha (project) tushunchasi kengroq ma'noda ma'lum natija (loyihaning beqiyos mahsuli)ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

Loyihalashtirish – real natijaga olib keluvchi, qat'iy tartibga solingan harakatlar izchilligini o'z ichiga oluvchi muammoni o'zgartiruvchi faoliyatni anglatadi.

Ta'limiy tavsifdagi loyihalashtirish o'qituvchi tomonidan talabanning muammoni izlash, uni hal etish bo'yicha faoliyatini rejalashtirish va tashkil etishdan to (intelektual yoki moddiy mahsulotni) ommaviy baholash uchun uni hal qilish usulini taqdim etishgacha mustaqil harakat qilishini ta'minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli o'quv faoliyatidir.

«O'quv loyihasi» tushunchasi keng qamrovli bo'lib, quyidagi mazmunga ega:

- muayyan iste'molchiga mo'ljallangan, muammolarni izlash, tadqiqot qilish va yechish, natijani noyob (moddiy yoki intellektual) mahsulot ko'rinishida rasmiylashtirishga qaratilgan talabalarning mustaqil o'quv faoliyatini tashkil qilish usuli;

- nazariy bilimlar orqali amaliy vazifalarni yechishga qaratilgan o'quv vositalari va qurollari;

- rivojlantiruvchi, ta'lim va tarbiya hamda bilimlarni kengaytirish, chuqurlashtirish va malakalarni shakllantirishga qaratilgan didaktik vosita.

O'quv loyihasidan foydalanish o'zida quyidagi maqsadlarni aks ettiradi:

- loyihaviy ta'lim jarayoni ishtirokchilarida o'z-o'ziga ishonchni qaror toptirish, egallangan bilimlarni amaliyotda qo'llay olishga erishish;

- tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish;

- qo'lga kiritiladigan natija uchun talabalarda jamoa bo'lib ishlash, ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida birgalikda hamkorlikdagi faoliyatga doir ko'nikma va malakalarni rivojlantirish.

O'quv loyihasini ishlab chiqish bosqichlari:

- tayyorgarlik (motivatsiya, muammoli vaziyatlarni aniqlash, mavzuni tanlash, loyihaaning maqsadini belgilash);

- loyihalashga doir (umumiy rejani ishlab chiqish, faoliyatni amalga oshirishning aniq rejasini tuzish, tanlab olingan nuqtayi nazar bilan bog'liqlikda topshiriqlarni talabalar o'rtasida taqsimlash, mustaqil ish, guruhlarda ishlash, «aqliy hujum», praktikum va boshqalar);

- amaliy (muammoni tadbiq etish, ma'lumotlarni to'plash va qayta ishlash, natija olish, natijalarni sinovdan o'tkazish, natijalarni grafik ko'rinishida taqdim etish, hujjatlarni rasmiylashtirish);

- tahliliy (rejalashtirilgan ishlar va olingan natijalarni taqqoslash, umumlashtirish va xulosalash);

- nazorat va baholashga doir (natijalarni va yo'l qo'yilgan xatolarni tahlil etish, xatolarni to'g'rilash yo'llarini izlash, real holat bilan bog'liqlikda loyihaga o'zgartirish kiritish);

- yakuniy (ish mazmuni bilan tanishtirish, xulosalarni asoslash, loyiha himoyasi).

Hozirgi vaqtda ta'lim amaliyotida o'quv loyihasining xilma-xil turlaridan foydalaniladi.

Yetakchi faoliyat turiga ko'ra: tadqiqot, amaliy yo'naltirilgan va axborotli;

Fanga yo'naltirilganligiga ko'ra: monoloyiha va fanlararo loyiha;

Davomiyligiga ko'ra: uzoq muddatli, o'rta muddatli, qisqa muddatli;

Loyiha ishtirokchilarining soniga ko'ra: individual va guruhli.

Shuningdek, ta'lim maqsadi bilan bog'liqlikda ham o'quv loyihasini turlarga ajratish mumkin: axboriy, tadqiqotchilikka doir, amaliy-yo'naltirilgan, ijodiy, o'yinli yoki rolli.

O'quv loyihasini amalga oshirishda bir qator shakl va metodlarga tayaniladi. O'quv loyihasini tashkil etishning turli bosqichlarida bir-biridan farq qiluvchi metodlarga murojaat etishga to'g'ri keladi. Bu jarayonda pedagog va talabalarning faoliyatlari bir-biridan farqlanadi. Quyida o'quv loyihalari mazmun va mohiyati haqida jadval ma'alumoti keltirilgan (5-jadvalga qarang).

5-jadval

O'quv loyihalari mazmun va mohiyati

Loyihani bajarish bosqichlari	Talaba faoliyati	Pedagog faoliyati	Metod va usullar
Izlanishga doir	Muammoni muhokama qiladi; maqsadni belgilaydi va reja ishlab chiqadi; tadqiqot o'tkazadi	Talabalarga muammolarni taklif etadi va muhokama qiladi; loyiha maqsadlarini	Muammoli suhbat; hikoya; maslahat; mustaqil ish; ekskursiya

		tushuntiradi	
Tashkiliy	Ma’alumatlar bilan ishlaydi; tahlil va sintez qiladi, g’oyalarni baholaydi	Talabalarni faollashtiradi, g’oyalarni topish va qaror qabul qilishga yordam beradi	Munozara; aqliy hujum; rol o’yin; mustaqil ish
Texnologik	Zarur tayyorgarlik ishlarini amalga oshiradi; nazoratni amalga oshiradi; mahsulot sifatini nazorat qiladi	Moddiy bazani ta’minlaydi; talabalar faoliyatini boshqaradi	Namoyish etish; mashq; mustaqil ish; amaliy ish
Yakuniy	Loyihani bajarish natijalarini tahlil qiladi; hujjatlarni himoyaga tayyorlaydi; loyihani himoya qiladi	Loyihani muhokama va himoya qilish jarayonini tashkil etadi; anglaydi; loyihani tahlil etish va baholashda ishtirok etadi	Maslahatli-rol o’yin; taqdimot (multimedia, vediorolik)

Loyihaga asoslangan ta’lim (PBL – Project-based learning) – bu talabalarga yo’naltirilgan ta’lim bo’lib, unda talabalar real hayotdagi muammolarni faol o’rganish orqali chuqurroq bilim olishlari uchun dinamik sinf yondashuvini o’z ichiga oladi. Talabalar murakkab savol, muammo yoki muammoni tadqiq qilish va javob berish uchun uzoq vaqt davomida ishlash orqali mavzuni o’rganadilar. Bu faol o’rganish va so’rovlarga asoslangan o’rganish uslubi. Loyihaga asoslangan ta’lim (PBL – Project-based learning) qog’ozga asoslangan, eslab o’rganish yoki o’qituvchi boshchiligidagi ko’rsatmalardan farq qiladi, bu aniq dalillarni taqdim etadi yoki bilimga oson, qulay yo’lni tasvirlaydi, buning o’rniga savollar, muammolar yoki ishlanmalarni qo’yadi.

Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL – Project-based learning) ta'siri – bu talabalarning yutuqlarini yaxshilaydi, ularning motivatsiyasi va faolligini oshirib, o'zaro munosabatlarini yaxshilaydi.

Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL) talabalarga real dunyoda duch kelishi mumkin bo'lgan vazifalar va muammolarni hal qiladigan loyihalarda ishtirok etish orqali bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam berish uchun mo'ljallangan o'quv yondashuvidir.

Loyihaga asoslangan o'rganish shunchaki «loyihani bajarish» emas, balki, talabalar unda chuqur, doimiy e'tibor bilan haqiqiy, qiziqarli va qiyin muammoni o'rganadilar va ularga javob beradilar.

Loyihaga asoslangan ta'limning asosiy elementlari:

- Talaba o'rganishi, javob berishi va yoki hal qilishi kerak bo'lgan katta va ochiq savol, masala yoki muammoga e'tibor qaratadi;

- Talabalar akademik bilishi, tushunishi va qila olishi kerak bo'lgan narsalarni tenglamaga keltiradi;

- So'rovga asoslangan, ichki qiziqishni uyg'otadi va talabalarga javob izlashga yordam beradigan savollarni yaratadi;

- Tanqidiy fikrlash, muloqot, hamkorlik va ijodkorlik kabi 21-asr ko'nikmalaridan foydalanadi;

- Talabalar tanlovini jarayonga kiritadi;

- Reja va loyihani real hayotda bo'lgani kabi fikr almashish va qayta ko'rib chiqish imkoniyatini beradi.

Loyihani ishlab chiqishning asosiy elementlari quyidagilardan iborat: qiyin muammo yoki savol, doimiy tergov, haqiqiylik, talaba fikri va tanlovi, refleksiya, tanqid va qayta ko'rib chiqish; ommaviy mahsulot.

Ushbu elementlarning barchasi yaxshi birlashtirilganda, talabalar muvaffaqiyatga erishish uchun asosiy *bilim, tushuncha va ko'nikmalarga* ega bo'ladilar.

Loyihaga asoslangan ta'limning afzalliklari. Ko'pincha an'anaviy ta'lim hech qachon sof akademikdan tashqariga chiqmaydi. Loyihaga asoslangan ta'lim talabalarni sinfdan tashqari dunyo bilan bog'laydi va ularni har kuni mutaxassislar nima qilishini aks ettiradigan tarzda haqiqiy dunyoda muammolarni qabul qilishga va hal qilishga tayyorlaydi.

Qisqa muddatli va uzoq muddatli o'rganish o'rniga, loyihaga asoslangan ta'lim talabalarga maqsadli tarkibga chuqur kirib borish va uzoq muddatli o'rganishga e'tibor berish imkoniyatini beradi. Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL – Project-based learning) shuningdek, talabalarni jalb qilish qobiliyati orqali talabalarning ta'limga 10 munosabatini yaxshilaydi.

Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL – Project-based learning) modeli 21-asr ko'nikmalariga e'tibor qaratganligi sababli, u talabalarning texnologik qobiliyatlarini ham oshiradi. Loyihaga asoslangan ta'lim talabalarga jamoada ishlash va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini hamda boshqalar bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi.

Loyiha asosida o'rganish osonroq va ancha arzon. Biroq, loyiha uchun g'oyalarni o'ylab topish ba'zan talabalarni chalkashtirib yuborishi mumkin.

Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL – Project-based learning) talabalarni «real hayot»ga tayyorlashga yordam beradi, chunki ular bu yerda tabiiy ravishda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni o'rganadilar.

Loyihaviy ta'lim – amaliy topshiriqlar orqali bilimlarni egallash.

Loyihani amalga oshirish uchun talabalarga quyidagilar kerak bo'ladi:

- harakatlar rejasini ishlab chiqish;
- guruhdagi rollarni taqsimlash(kim qaysi vazifani bajaradi);

-
- narsa va hodisaning turli dizaynlarini o'rganish va to'g'ri tanlash;
 - nusxa yaratish;
 - xom ashyolarni tanlashni aniqlash va ularning miqdorini hisoblash;
 - belgilangan vositani tayyorlash, yasash, qurish va hokazo;
 - sinovlarni o'tkazish va kerak bo'lganda dizaynga tuzatishlar kiritish;
 - loyihani jamoatchilikka taqdim etish va uning afzalliklari haqida gapirish.

Har bir bosqichda talabalar muammolarga duch kelishlari kerak, ularni hal qilishda ular ma'lumot izlaydilar, mantiqiy, tanqidiy va dizayn fikrlashni, tasavvurni qo'llaydilar, rasm chizishadi, hisoblashadi, qo'llar bilan ishlashadi, sabr-toqat va matonat ko'rsatishadi, yakuniy bosqichda ham notiqlik fazilatlaridan foydalanishadi.

Mustaqil ishning bunday tajribasi noyob sanaladi, undan ma'ruzalarda yoki odatiy muammolarni hal qilishda foydalanish mumkin emas. Loyiha ustida ishlash jarayonida talabalar o'zlarining kuchli va zaif tomonlarini o'rganadilar va asta-sekin muammoni hal qilishning noyob usullarini rivojlantiradilar, keyinchalik ular boshqa jabhalarda foydalanishlari mumkin.

Loyihaga asoslangan ta'limning afzalliklari:

Haqiqiy hayot bilan aloqa. Loyihaga asoslangan ta'lim ko'pchilikni o'rganish jarayonida yuzaga keladigan savolga bevosita javob beradi: «Bu hayotda qanday foydali bo'ladi?» Abstrakt bilimlar o'rniga talabalar aniq masalalarni yechish tajribasiga ega bo'ladilar.

Kompleks yondashuv. Loyiha ustida ishlash jarayonida talabalar tadqiqot o'tkazadilar, turli manbalardan ma'lumot to'playdilar va allaqachon ega bo'lgan bilim va ko'nikmalarga tayanadilar.

Fikrlashni rivojlantirish. Loyiha rejasini ishlab chiqish orqali talabalar mantiqni, tanqidiy fikrlash va o'z nuqtayi nazarini himoya qilish qobiliyatini rivojlantiradilar.

Talabalarga yo'naltirish. Loyihaga asoslangan ta'limning maqsadi talabani o'qituvchilar tekshirishi uchun qulay bo'lgan muammolarni hal qilishga o'rgatish emas, balki o'rganilayotgan mavzuga qiziqtirish, tanqidiy fikrlashga undash iborat, shunda u o'zi muammo ustiga izlanishni xohlaydi.

Motivatsiya. Loyihaga asoslangan ta'lim talabaning o'zini ifoda etishga bo'lgan tabiiy istagini uyg'otadi. Talabalar biror narsani «haqiqiy» qilish imkoniyatiga ega bo'lganda, ular buni oxirigacha ko'rishga va boshqalarga qaraganda yaxshiroq qilishga qiziqishadi.

O'z-o'zini ifodalash. Loyiha ishi talabani yechim tanlashdan cheklamaydi, to'g'ri javoblar ham yo'q, asosiysi natija maqsadga mos keladi. Shunday qilib, loyiha ijodkorlik uchun juda ko'p joy qoldiradi. Bu esa albatta, nafaqat yaxshi, balki o'ziga xos, nafis va samarali bajarilgan ish alohida e'tiborga loyiqdir. Bu bolalarni o'z tasavvurlarini ishga solishga va innovatsion yechimlarni topishga undaydi.

Ko'p subyektivlik. Loyiha ustida ishlash turli ilmiy fanlar integratsiyasini o'z ichiga oladi.

Samaradorlik. Loyiha asosida o'qitish talabalarga nafaqat qimmatli ko'nikmalarga ega bo'lish, balki foydali narsalarni yaratish imkoniyatini beradi. Misol uchun, bolalar maktab uchun broshurani loyihalashlari, OTM veb-sayti uchun dizayn yaratishlari yoki kursilarni yasashlari mumkin, asosiysi, natija aniq va mahsuldor bo'ladi.

Muloqot. Loyiha bo'yicha birgalikda ishlash jamoani birlashtirishga yordam beradi, yoshlarni jamoada ishlashga, mas'uliyatni taqsimlashga, yetakchi va ijrochilar rolini o'ynashga va bir-birini tinglashga o'rgatadi.

Qiziqish. Loyiha asosida o'qitish foydali va qiziqarli bo'lishi kerak, bu esa uning samaradorligi sirlaridan biridir.

U qanday ishlaydi? Loyiha uchun o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra, ish yakka holda, juftlikda, kichik guruhlarda, ba'zi hollarda esa butun sinf ishtirokida amalga oshirilishi mumkin. Loyiha davomiyligi ham har xil bo'lishi mumkin: bir necha kundan butun o'qish davrigacha, chorak, semestr, trimestr yoki hatto butun yil davomida.

Talabalar tadqiqotchi, pedagog, tadbirkor, siyosatchi yoki hatto biron-bir tarixiy shaxs rolini o'z zimmalariga olish orqali muammoni hal qilishga da'vat etiladi. Masalan, atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro tashkilot a'zosi sifatida kelgusi 20 yil davomida atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqish bunga misol bo'la oladi.

O'qituvchi talabalarga asosiy ma'lumotni taqdim etishi, savollarga javob berishi, resurslarni taklif qilishi va kerak bo'lganda mumkin bo'lgan fikr yo'nalishlarini nozik tarzda taklif qilishi kerak, ammo talabalar barcha ishlarni o'zlari bajarishlari kerak.

Taqdimotlar tayyorlash va uni havola etish. Butun dunyo bo'ylab tadqiqotchilar, olimlar, ixtirochilar, boshqa vositalar qatorida ilmiy taqdimotlardan foydalanadilar. Taqdimot (prezentatsiya) – bu ilmiy ijodiy ishlarni ommaga taqdim etishning eng oson va eng qulay usullaridan biri, taxminlar, farazlar, nima va qanday maqsadda o'rganilganligini, qanday natijalarga erishilganligini ko'rsatish vositasi sanaladi. Ilmiy ishlarga asoslangan taqdimotlar yangi tadqiqot yondashuvlari, kashfiyotlar, muhim vazifalar va qiziqarli ilmiy muammolar haqidagi g'oyalar va ma'lumotlarni dunyoga yetkazishga xizmat qiladi.

Ilmiy – ijodiy taqdimot har doim savol-javob bo'limi bilan birga bo'ladi. Taqdimot vizual material bo'lganligi sababli, unda taqdim etilgan ma'lumotlar tinglovchilar tomonidan,

shuningdek, ma'ruzachining o'zi tomonidan juda yaxshi esda qoladi. Ammo buning uchun taqdimot imkon qadar sodda, tushunarli, to'g'ri tuzilishga ega va materialni oson taqdim etishi kerak. Taqdimotga tayyorgarlik ko'rishda quyidagi faoliyatlarni amalga oshirish lozim: *birinchi navbatda*, mavzu mazmunini o'rganish va tadbir formatiga moslashtirish kerak. Ushbu bosqichda taqdimot shabloni tayyorlanadi, slaydni loyihalash uchun mavzu tanlanadi, slaydlarga (yoki birinchi slaydga) mavzu nomi, uning logotipi, yili va o'tkazilish joyi qo'yiladi. Taqdimotlar yaratishda juda yorqin fon ranglarini tanlamaslik kerak (garchi ular sizga yoqsa ham). Tomoshabinlar matnni idrok etishlari uchun tinch, akromatik (sokinlashtiruvchi) tonlarni tanlashi lozim.

Taqdimot (va hisobot) nomini tanlangan mavzuga va uning yo'nalishiga mos kelishi uchun shakllantirish talab etiladi. Sarlavha qisqa, ammo mazmunli bo'lishi kerak. «Eksklyuziv» yoki «qiziqarli» nomni tanlamaslik, sarlavhada ish qaysi yo'nalishda ketayotganligi aniq bo'lishi lozim.

Katta shriftdan foydalangan holda slayd uchun matn formati tanlanadi. Chunki xonaning oxirgi qatorida o'tirgan tinglovchi ham hamma narsani tushunarli ko'ra olishi lozim. Slaydlarda turli shriftlardan foydalanishdan saqlanish kerak, butun taqdimot uchun ko'zga tanish bo'lgan bitta shriftdan foydalanish yaxshi, (masalan, Arial) lekin har xil turdagi sarlavhalar va yozuvlar uchun har xil o'lchamlardan foydalanishingiz mumkin.

Slaydda juda ko'p matn ishlatmaslik kerak. Bitta slaydda 5-7 qator matn bo'lib, har bir satrda 6-7 so'zdan ortiq bo'lmasligi kerak. Matn tushunarli va sodda qilib yoziladi. Ayniqsa, slaydda murakkab grammatik tuzilmalarga ega bo'lgan jumlar ishlatilmaydi. Ilmiy ish mavzusiga tegishli kalit so'zlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Lekin slaydlardagi matnli

xabarlardan butunlay qochish yaxshi. Ma'ruzachini tinglayotganda kimdir ularni o'qishi dargumon.

Slaydni aqliy ravishda bir nechta sektorlarga ajratish, ularning har birida ma'lum ma'lumotlar taqdim etish talab etiladi. Masalan, *yuqorida* ushbu slaydda muhokama qilinadigan joriy bosqichning nomi, *chap tomonda* – matn yoki jadval shaklida taqdim etilgan ma'lumotlar, *o'ngda* – rasmlar, grafikalar va boshqalar; *pastki qismda* – keyingi slaydga o'tish uchun xulosa, tavsiyalar yoki kalit so'zlar.

Slaydda ma'lumotni tarqatishning turli xil variantlari mavjud, mazmun davomiyligiga mos keladiganini tanlash lozim. Asosiysi, slaydni juda ko'p chalkashtirmaslik kerak. Keng tarqalgan xatolardan biri – bu slayddagi barcha bo'sh joylarni to'ldirishga urinish. Bunday taqdimotlarni vizual tarzda idrok etish juda qiyin.

Hisobot uchun ajratilgan vaqtni aniqlashda odatda taqdimot uchun slaydlarning umumiy sonini hisoblash quyidagi shartlardan kelib chiqib amalga oshiriladi: 1 daqiqa – 1 slayd (o'rtacha). Shuning uchun, hisobot berishda 15 daqiqa vaqt berilsa, taqdimotga 15 dan ortiq slaydni kiritmaslik tavsiya etiladi.

Mavzu ishtirokchilarining tarkibini o'rganib, tinglovchining bilim darajasini taxminan aniqlash mumkin. Bu taqdimot qanchalik batafsil bo'lishi, qaysi fikrlarni ta'kidlash kerakligini, shuningdek, hisobotning qaysi qismlarini chuqur aytib o'tish mumkinligini tushunish uchun lozim. Agar ish murakkab mazmunga qaratilgan bo'lsa, taqdimotga bunday fikrlarning qisqacha, ammo keng doiradagi tinglovchilar uchun tushunarli tushunchalar bilan tushuntirish talab qilinadi.

Taqdimot mazmuni:

Kirish – *taqdimotning boshlanishi* (1-2 slayd, maksimal 3 ta, ortiq emas). Kirish aniq va mazmunli bo'lishi shart:

- ish nomi beriladi;

- ushbu masala bo'yicha dunyodagi (mamlakatda) hozirgi bilim darajasini qisqacha tavsiflanadi;

- ushbu mavzu bo'yicha ishlayotgan adabiyotlarning asosiy manbalarini yoki mualliflarni (shubhasiz, eng asosiylarini) ko'rsatilishi mumkin;

- O'rganilayotgan fanning mohiyatiga qisqacha to'xtalib o'tish, taqdimotda aynan nimani taqdim etilishi haqida fikr bildirish lozim.

Asosiy qism – *taqdimotni ishlab chiqish* (ma'ruza vaqti va ish hajmiga qarab o'rtacha 5 dan 10 ta slaydgacha). Taqdimotning ushbu qismida ilmiy tadqiqotni o'tkazish metodologiyasi (uni diagramma, chizmalar, bloklar, fotosuratlar – idrok etish va tushunish uchun yaxshi bo'lgan barcha narsalar bilan taqdim etish yaxshiroqdir) va tadqiqotning boshqa tafsilotlari va xususiyatlari keltiriladi.

Tadqiqot natijalari taqdimotning eng yuqori nuqtasidir (hajmi kichik, 2-3 slayd). Bu yerda taqdimotda erishilgan ma'lumotlar va olingan natijalar taqdim etiladi, ularning ishonchliligi tasdiqlanadi va xulosaga o'tiladi. Olingan ma'lumotlarni eng qulay va tushunarli tarzda taqdim etish va tushuntirish uchun natijalarni – grafiklar, chizmalar, fotosuratlar, videolar, animatsiyalarni taqdim etish uchun taqdimotning barcha imkoniyatlaridan foydalanish mumkin.

Xulosa – taqdimotda keltirilgan barcha fikrlarni *umumlashtirish uchun xizmat qiladi* (1-3 slayd). Taqdimotning ushbu qismida olib borilgan tadqiqotning to'liqligi ochib beriladi, olingan natijalarni qo'llash imkoniyatlari haqida gapiriladi, ishni davom ettirishda yana nima qilish kerakligini rejalashtirayotgaligi tushuntiriladi, agar kerak bo'lsa, keyingi tadqiqotlar uchun tavsiyalar beriladi va hal qilinmagan masalalarni qisqacha muhokama qilinadi.

Vizualizatsiya yordamida slaydlarni ulash uchun qiziqarli effektga erishish mumkin, taqdimot boshidan oxirigacha

takrorlanadigan bitta mavzuga (albatta, tadqiqot mavzusiga tegishli bo'lishi zarur) bir qator rasmlar tanlanadi yoki mantiqiy ravishda bog'langan, rivojlanish taraqqiyoti ko'rsatiladi.

Taqdimotni tugatishning ko'plab usullari mavjud. Mavzu mazmuniga yordam bergan odamlarga minnatdorchilik bildiruvchi slaydni qo'shish (ilmiy loyiha homiylariga, rahbarga minnatdorchilik bildirish) mumkin. Yoki shunchaki slaydni «*E'tiboringiz uchun rahmat!*» deb tugatish mumkin. Yoki oxirida tinglovchini tadqiqot mavzusi haqida o'ylashga va uni eslab qolishga majbur qiladigan qiziqarli rasm, fotosurat yoki qiziqarli iborani qo'yish mumkin.

Taqdimot uchun texnik imkoniyatlarni tekshirish.

Slaydlarda ma'lumotlarni namoyish qilish va ma'lum raqamlar, diagrammalar va hokazolarni ko'rsatish uchun lazer ko'rsatgichdan foydalanish mumkin. Slaydlardagi grammatikani tekshirish, grammatik xatolardan qochish juda muhimdir. Ilmiy taqdimotni namoyish etishda eng muhimi auditoriyani qiziqtirish, uning diqqatini jalb qilishdir.

Tinglovchilar bilan ko'z aloqasini o'rnatishga harakat qilish, qat'iyatli va aniq gapirish, ma'ruzachini eshitishlariga ishonch hosil qilish, taqdimot uchun nutqni takrorlash, vaqt oralig'ini ushlay bilish, qulay pozitsiyani tanlay olish lozim.

Sohaga oid ma'lumotlarni izlash va uni saralash.

Sohaga oid ma'lumotlarni izlash va saralash uchun birinchi navbarda sohaga oid elementlar, tamoyillar, kategoriyalar va tarmoqlar bilan yaqindan tanishish talab etiladi. Sohaga oid ma'lumotlar ilmiy manbalardan yig'iladi va yig'ilgan ma'lumotlar mazmun mohiyatiga ko'ra, keraklilik darajasi va ko'lamiga ko'ra tartiblanadi. Ilmiy manbalar sifatiga ilmiy, ilmiy-ommabop maqollar, monografiyalar, dissertatsiya va tadqiqot ishining avtoreferati misol bo'la oladi. Ushbu manbalarda ilmiy farazlar isbotlanib, sohaga tegishli ma'lumotning nazariy va amaliy jihatlari asoslangan bo'ladi. Bugungi taraqqiyot asrida

sohaga oid adabiyotlar qidiruv tizimi *Internet* orqali amalga oshiriladi.

Qidiruv tizimi (inglizcha, *search engine*) – kompyuterda, kompyuter tarmog'ida yoki butunjahon web tarmog'i («*World Wide Web*»)da saqlanayotgan ma'lumotlarni qidirishga mo'ljallangan dasturdir. Qidiruv tizimi maxsus Web-sahifa bo'lib, Internet tarmog'idan kerakli axborotni izlab topish uchun xizmat qiladi.

Hozirgi kunga kelib o'nlab qidiruv tizimlari yaratilgan. Ulardan ko'p qo'llaniladiganlari sifatida *Rambler*, *Aport*, *Yahoo*, *Google*larni keltirish mumkin. Har bir qidiruv tizimi Internet tarmog'ida o'z manziliga ega. Masalan, yuqorida sanab o'tilgan qidiruv tizimlari mos ravishda www.rambler.ru, www.aport.ru, www.yahoo.com va www.google.com internet manzillariga ega. Qidiruv tizimi Web-brauzer orqali ishga tushiriladi, ya'ni brauzerning adreslar satriga qidiruv tizimining adresi kiritiladi. Qidiruv tizimlari (Web-sahifasi) turli ko'rinishga ega bo'lgani bilan ularning ishlashi deyarli bir xil. Ulardan foydalanishni *Rambler* qidiruv tizimi misolida ko'rib chiqamiz.

Qidiruv tizimida ishlash. Qidiruv tizimini ishga tushirish uchun eng avvalo, *Internet Explorer* dasturini ishga tushiramiz. Brauzerning manzillar satriga qidiruv tizimining manzili – www.uz/uz (rus tilidagi interfeysni ochish uchun www.uz/ru)ni kiritib, Enter tugmasi bosiladi. Brauzer ma'lumotlar maydonida www.uz qidiruv tizimining bosh sahifasi aks etadi.

Avvalambor, Internetdan sohaga oid ma'lumotlarni izlashni aniq bilish lozim. U sohaga oid sahifalar, maqola, dastur va hokazolar bo'lishi mumkin. Milliy qidiruv tizimi katalogidagi hamda foydalanuvchi tomonidan qidiruv tizimi katalogiga qo'shilgan saytlar ichidagi ma'lumotlarni uning nomi va tavsifi bo'yicha izlash imkonini beradi. Agar biror maqolaning nomi yoki biror tavsifi ma'lum bo'lsa, qidiruv tizimidagi Izlash xususiyatlaridan «*Nomi va tavsif bo'yicha*» tugmasi tanlangach,

qidiruv satriga shu maqola nomi yoki maqolada uchrashi mumkin bo'lgan so'z yoki jumla, ya'ni kalit so'z kiritilib, qidiruv tugmasi bosiladi. Masalan, pedagogikadan ta'lim tizimi haqida ma'lumot izlash kerak bo'lsa, u holda qidiruv satriga «ta'lim tizimi» kalit so'zi kiritiladi. Kalit so'zni kiritish jarayonida qidiruv tizimi tomonidan turlicha kalit so'zlar taklif etilishi mumkin.

Mazkur kalit so'zga mos izlash natijasida, odatda, qidiruv tizimi sahifasida izlash natijasida aniqlangan manbalar soni, saytlar manzili va nomlari aks etadi. Ba'zi qidiruv tizimlari izlash vaqtini kamaytirish uchun kerakli axborotni mavzu bo'yicha izlash imkoniyatini beradi.

Qidiruv tizimi sahifasida izlash natijasida aniqlangan manbalar tahlil qilinib, kerakli sahifa ustiga bosiladi va ochilgan sahifadan keraklilik darajasi nuqtayi nazaridan ma'lumot ko'chirib olinadi, yuklab olinadi yoki yozib olinadi. Jamlangan manbalar ustida ishlash jarayonida olimlar fikri va ularning nazariy va amaliy yondashulari o'z yechimini kutayotgan muammo bilan o'xshash va farqli jihatlari solishtiriladi. Jamlangan manbalar analiz, sintez, taqqoslash, solishtirish, farqini topish, tartiblash (o'sish, kamayish, muddat, foydali, zararli va ko'pgina jihatlar) kabi qator bilish usullaridan unumli foydalanib malumotlar saralanadi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

Nazorat savollari:

1. O'quv loyihalari va unda ishtirok etish mazmuniga izoh bering.
2. O'quv loyahasini ishlab chiqish bosqichlariga izoh bering.
3. Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL – Project-based learning) nima?
4. Loyihaga asoslangan ta'limning asosiy elementlariga nimalar kiradi?

5. Taqdimotlar tayyorlash va uni havola etish tizimini izohlang.

6. Sohaga oid ma'lumotlarni izlash va uni saralash mazmunini izohlang.

1-topshiriq:

O'quv loyihalari mazmun mohiyatini izohlang. Jadvalni to'ldiring!

Namuna:

Loyihani bajarish bosqichlari	Talaba faoliyati	Pedagog faoliyati	Metod va usullar
Izlanishga doir	Muammoni muhokama qiladi; maqsadni belgilaydi va reja ishlab chiqadi; tadqiqot o'tkazadi	Talabalarga muammolarni taklif etadi va muhokama qiladi; loyiha maqsadlarini tushuntiradi	Muammoli suhbat; hikoya; maslahat; mustaqil ish; ekskursiya
Tashkiliy			
Texnologik			
Yakuniy			

2-topshiriq:

Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL – Project-based learning) mazmuniga ta'rif bering!

1. Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL – Project-based learning) - _____

2. Loyihaga asoslangan ta'lim (PBL – Project-based learning) - _____

13-MAVZU. TALABALARNING O'QUV VA ILMIY-TADQIQOT ISHLARI

Tayanch tushunchalar: asosiy tushunchalarni belgilash, nazariy ma'lumotlarni egallash va amaliy ko'nikmalarni hosil qilish, talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyati, ilmiy-tadqiqot tanlovlari, fan olimpiadalari va ularning mazmuni, maqola va tezislar tuzish

Asosiy tushunchalarni belgilash. Kategoriya nima? Bu savolga javob berish uchun biz qanday fikrlashimiz va o'z fikrlarimizni boshqa odamlarga qanday yetkazishimizni ko'rib chiqamiz. Biz tushunchalar, mulohazalar va mushohadalar ko'rinishida fikrlaymiz. Fikrlash jarayonining asosiy materiali tushunchalar bo'lib, predmetlar umumiy va muhim belgilarida ular orqali fikrlanadi. Tushunchalar yordamida biz voqea va hodisalar ma'nosini anglaymiz, ularning o'zimiz uchun ahamiyatini aniqlaymiz. Tushuncha va tushunish o'zakdosh so'zlardir, shu sababli bizning dunyoni tushunishimiz, dunyoga ongli munosabatimiz inson ixtiyorida mavjud bo'lgan tushunchalar apparati bilan belgilanadi. Biz o'z fikrlarimizni so'zlar yordamida ifodalaymiz. So'z – fikr va dunyo o'rtasidagi vositachi. U fikrlash omili, fikrni ifodalash, uni boshqalarga yetkazish vositasi hisoblanadi. So'z boyligimiz qancha katta bo'lsa, bizning dunyoni anglash borasidagi imkoniyatlarimiz shuncha keng bo'ladi. Obyektiv borliqni aniqroq va teranroq aks ettirish uchun inson mantiqiy fikrlash vositalarining muayyan majmuini, tushunchalarning muayyan doirasini yaratadi. Tushuncha – bu shunday bir fikrki, unda narsaning takrorlanuvchi xossalari, aloqalari va tomonlari aks etadi. Tilda tushuncha so'z bilan ifodalanadi. Masalan, «talaba», «universitet», «auditoriya» so'zlari muayyan darajada umumiy va mavhumdir. Ammo shunday tushunchalar ham borki, ularda shunchaki umumiy emas, balki o'ta umumiy narsalar va hodisalar qayd etiladi. Bunday tushunchalar juda yuqori darajadagi mavhumlashtirish (muayyandan uzoqlashish)

mahsuli hisoblanadi. Mana bunday mavhumlashtirishning taxminiy yo'li: «bu atirgul» («bu» so'zi bilan aniq belgilangan); «atirgul» (bu yerda «bu» ishorasi mavhumlashtirilgan); «atirgul» so'zi «bu atirgul» iborasidagidan umumiyroq narsani qayd etadi. Shundan so'ng bu iboraga «gul» so'zini qo'shamiz va u amalda mavjud barcha gullarni qamrab oladi. Shunday qilib biz gullarning muayyan rang-barangligidan fikran uzoqlashamiz, chunki e'tibor barcha gullarda mavjud bo'lgan umumiy jihatga qaratiladi. «O'simlik» so'zi butun o'simliklar dunyosini o'z ichiga oladi va yanada kengroq mavhumlik hisoblanadi. Mavhumlashtirish (muayyandan uzoqlashish) yo'lida harakatni davom ettiramiz. Bu yo'lda «tirik» tushunchasi yanada umumiyroq bo'ladi, chunki o'simliklar dunyosinigina emas, balki hayvonot dunyosini ham o'z ichiga oladi. «Tiriklik» tushunchasi mavhumlashtirishning yanada yuqoriroq darajasida turadi. Bunday tushunchalar *kategoriyalar* deb ataladi. Fikr bizning dunyo bilan o'zaro aloqa qilish tajribamizni u yoki bu darajada umumlashtiradi. Dunyo o'z xossalari, narsalari va munosabatlarining rang-barangligi jihatidan cheksiz darajada boydir. Falsafiy kategoriyalar borliqning umumiy, muhim tomonlari, xossalari, aloqalari va munosabatlari haqida fikrlash uchun qo'llaniladigan o'ta keng tushunchalar majmuidir. Falsafa kategoriyalari muayyan fanlarning kategoriyalaridan ancha farq qiladi. Bu farq shundan iboratki, dialektika kategoriyalari obyektiv dunyo hodisalari turkumlarining muhim xossalari va aloqalarinigina emas, balki barcha moddiy jarayonlarga xos bo'lgan eng umumiy xossalari va aloqalarni aks ettiradi. Shunday qilib, dialektika kategoriyalari obyektiv dunyoni ideal aks ettirishning o'ta keng shakllari bo'lib, ular voqelikni bilish va ma'naviy-amaliy o'zgartirishning asosiy tamoyillari bo'lib xizmat qiladi. Ba'zi hollarda, umumiy kategoriyalar, ya'ni borliq kategoriyalari dialektika kategoriyalari deb ham nomlanadi.

Kategoriyalar (yunoncha «*kategoria*» – mulohaza, fikr; belgi) (falsafada) – voqelikdagi hodisalar va bilishning muhim, umumiy

xususiyat hamda munosabatlarini aks ettiruvchi eng umumiy va asosiy tushunchalar. Kategoriyalar bilish va ijtimoiy amaliyot tarixiy taraqqiyotining umumlashgan natijasi bo'lib vujudga kelgan.

Kategoriya haqidagi ilk ta'limot qadimgi Hindistonning ayrim falsafiy maktablarida uchraydi. Yunon faylasufi Platon dunyodagi narsa va hodisalar tushunchalarning ifodasi shaklida hosil bo'ladi, deb hisoblaydi. Aristotel o'zining «*Kategoriyalar*» asarida kategoriyanı obyektiv reallikning in'ikosi hamda eng yuksak umumlashmasi deb talqin qiladi. U 10 ta kategoriya to'g'risida ma'lumot beradi: mohiyat, miqdor, sifat, munosabat, joy, vaqt, qoida, holat, xatti-harakat va muammo. Aristotelning kategoriya haqidagi ta'limoti Kindiy, Farobiy, Ibn Sino tomonidan rivojlantirildi. O'rta asr sxolastikasi 6 ta kategoriyanı bir-biridan farq qiladi: borliq (mohiyat), sifat, miqdor, harakat (o'zgarish), munosabat, egalik. Dekart va Lokk 3 ta kategoriyanı ko'rsatib o'tadi: substansiya, holat (modus) va munosabat. I.Kant kategoriyanı *aql-idrok* shakllari deb tushunadi. Kategoriya haqida ta'limotni ishlab chiqishda Gegelning ham xizmati katta. U kategoriya haqidagi keng va murakkab ta'limot tizimini yaratgan. Kategoriya haqidagi ta'limotga E.Gartman, A.Shopengauer, F.Nitsshe asarlarida ham keng o'rin berilgan. Har bir inson o'z faoliyatida o'zigacha shakllangan kategoriya yordamida ish tutadi. Kategoriya metodologik va dunyoqarash mazmuniga ega bo'lib, insonga borliqning mohiyatini, insonning borliqda tutgan o'rnini to'g'ri bilib olishga yordam beradi.

Har qaysi fanning o'z kategoriyasi bo'lib, shu fanning xususiyatlarini ko'rsatib turadi. *Falsafiy kategoriya* fan kategoriyaniidan farq qilib, aniq fanlar rivoji natijalarini umumlashtirib, ilmiy bilishdagi metodologik va dunyoqarash ahamiyatiga ega bo'lgan tomonlarini ta'riflab beradi. Falsafaning turli kategoriyalari mavjud: *borliq, ong, harakat, rivojlanish, fazo, vaqt, in'ikos, bilish, haqiqat, sababiyat, struktura, tizim, mazmun, shakl, imkoniyat, voqelik, hodisa, mohiyat* va boshqalar.

Nazariy ma'lumotlarni egallash va amaliy ko'nikmalarni hosil qilish mazmuni. *Nazariya* – biror hodisa va dalillarni izohlovchi va bashorat qila biluvchi bilimlar tizimi, sxemasi. Nazariyalar ilmiy uslub vositasida yaratiladi, shakllantiriladi voqelik qonuniyatlari va undagi muhim aloqalar haqida bir butun tasavvur beradigan bilim shakli. Nazariya borliqning muayyan sohasiga oid bo'lgan tajribalardan umumlashtirilgan ma'lumotlar asosida kelib chiqadi. Ilmiy bilishda nazariyaning asosiy vazifasi tajribalar bergan dalillarni izohlash, shu bilan birga, narsa va hodisalarning mohiyatiga chuqurroq kirib borish, yuzaga keladigan yangi narsa va hodisalarni oldindan ko'ra olishdan iborat. Har qanday nazariya ilmiy bilishning natijasi sifatidagi bilish shakli bo'lsa-da, lekin uni tugallangan, o'zgarmas, mutlaq bilim deb qaramaslik kerak. Nazariya bilish jarayonida to'plangan bilimlarning natijasigina emas, balki yangi bilimlar hosil qilish yo'lidagi boshlang'ich asosdir. Nazariya hamma vaqt amaliyot bilan uzviy bogliq bo'ladi va shundagina u harakat va rivojlanishning quroliga aylanadi. Nazariyaning boshlang'ich shakli gipotezadir. Amaliyotda gipotezaning to'g'ri, haqiqat ekanligi isbotlansa, shu asosda yangi nazariya yuzaga kelishi mumkin. Nazariya ilmiy bilish jarayonida kishilarning ilmiy nazariyalar bilan qurollanganligi unga ilmiy oldindan ko'rish, ya'ni ilmiy bashorat qilish imkoniyatini beradi. Bu esa o'z navbatida, yangi qonuniyat va yangi nazariyalarning shakllanishiga olib keladi.

Nazariya (yunoncha «theoria» - «mulohaza», «tadqiq qilish») – dalillarni adekvat tushuntirish, jarayonlarni tahlil qilish, ularning rivojlanishini bashorat qilish va tartibga solish imkonini beruvchi qarashlar, mulohazalar, qoidalarning tartiblangan va asoslantirilgan tizimi, tadqiqot predmeti haqidagi bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish hamda tushunchalar, kategoriyalar, mulohazalar va xulosalar shakllantiriladigan bilish darajasi.

Nazariya tadqiq etilayotgan narsa va hodisaning zarur tomonlari, aloqalari, mohiyati va qonuniyatlari haqidagi eng chuqur va tizimli bilimlarni ifodalaydi. Nazariyada o'rganilayotgan narsaning qonuniyatlari haqidagi bilimlar mantiqiy jihatdan izchil bo'lib, yagona, birlashtiruvchi tamoyilga ma'lum bir boshlang'ich nazariy yoki empirik tamoyillar majmuasiga asoslanadi.

Nazariy jihatdan, ba'zi takliflar amaliy dalillar va yoki xulosa qilish qoidalari asosida boshqa takliflardan chiqariladi. Nazariyalar ilmiy uslubga muvofiq shakllantiriladi, ishlab chiqiladi va sinovdan o'tkaziladi. Nazariyadan oldin takrorlanadigan tasdiqni olgan gipoteza (faraz) mavjud. Nazariya yoki bir-biri bilan uyg'unlashgan nazariyalar ta'limotga aylanadi. Nazariyaning muhim xususiyati bashorat qilish qobiliyatidir.

Nazariya – bu sinab ko'rish. Qoida tariqasida, ko'pchilik tadqiqotchilar nazariyalarni sinovdan o'tkazishning standart usuli to'g'ridan to'g'ri eksperimental test («tajriba – haqiqat mezoni») deb hisoblashadi.

Fanning amaliy maqsadi – kelajakni kuzatish (analitik ma'noda), ya'ni biz ta'sir qila olmaydigan hodisalarning borishini tasvirlash va sintetik ma'noda – texnologiya orqali istalgan kelajakni yaratish. Majoziy ma'noda, nazariyaning mohiyati «vaziyatli dalillar»ni bir-biriga bog'lash, o'tmishdagi voqealar bo'yicha hukm chiqarish va muayyan sharoitlarda kelajakda nima bo'lishini ko'rsatishdir.

Nazariyaning rivojlanishi. Qachonki umumiyroq, aniqroq nazariya paydo bo'lsa, eski nazariya ushbu umumiy nazariyaning bir qismi yoki elementi bo'ladi. Nazariyalar ham umumiy falsafiy, ham xususiy bo'lishi mumkin, ular tabiatan ma'lum bir bilim sohasiga taalluqlidir.

Konsepsiya (lotincha «*conceptio*» - «tushunish tizimi» dan) – o'zaro bog'langan va yagona tizimni tashkil etuvchi biror narsaga qarashlar majmui, har qanday hodisani tushunish, izohlashning ma'lum bir usuli, ularni yoritishda asosiy nuqtayi nazar, yetakchi

g'oya, hodisalarga – dunyoda, tabiatda, jamiyatda qarashlar tizimi, yetakchi g'oya, konstruktiv tamoyil – ilmiy, badiiy, texnik, siyosiy va boshqa faoliyat turlarida muammoni hal qilish usullari tizimi, har qanday hodisani tushunish, farqlash va izohlash, faqat unga xos bo'lgan mulohazalar va xulosalarni yaratish usuli.

Konsepsiya harakat strategiyasini belgilaydi. Turli tushunchalar o'z terminologik apparatiga ega. Mantiqda nazariya ma'lum bir tildagi formulalar to'plamidir. Nazariyaga tegishli formulalar uning teoremlari deyiladi.

Model (fr. modèle so'zidan, lot. modulus «o'lchov, analog, namuna») – o'rganish boshqa tizim haqida ma'lumot olish vositasi bo'lib xizmat qiladigan tizim, qandaydir real jarayon, qurilma yoki konsepsiyani ifodalash demakdir.

Model bu voqelikning ma'lum bir ko'rinishdagi (masalan, matematik, fizik, ramziy, grafik yoki tavsifiy) mavhum tasviri bo'lib, ushbu voqelikning ayrim tomonlarini ko'rib chiqish uchun mo'ljallangan va o'rganilayotgan savollarga javob olish imkonini beradi.

Abstraksiya (lot. abstractio – ajratish, mavhumlash) – obyektning ma'lum xususiyatlaridan ularni tanlab, tahlil qilish uchun ajratish jarayoni. Bunda kuzatilgan obyekt o'zining ideallashtirilgan nazariy tasviri mavhum obyekt bilan almashtiriladi. Abstraksiyalar ilmiy bilishning universal usuli bo'lib, ular tushunchalarni shakllantirish, bilimlarni shakllantirishning barcha darajalarida tadqiqot obyektlarini tanib olish va tasniflash uchun zarurdir.

Tushuntirish kuchi – nazariyaning o'z obyektini to'liq va aniq tasvirlash qobiliyati. Tushuntirish kuchining asosiy mezonlaridan biri bashorat qilish kuchidir, ya'ni umumiy obyektga ega bo'lgan ikkita nazariya, tushuntirish kuchi ko'proq bo'lgan nazariya aniqroq va ishonchli prognoz qilish mumkin bo'lgan nazariya sifatida tan olinadi.

Amaliy ko'nikma nazariy va amaliy bilimlarni amaliyotda qo'llash, ya'ni bilimlarni malakaga aylantirishdir. *Amaliy malaka* –

bu takroriy takrorlash tufayli avtomatlashtirilgan aniq, xatosiz faoliyat.

Talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyati. Talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari va faoliyati ta'lim tizimining zamonaviy talablari hamda ko'p yillik tajribaga tayangan holda tashkil qilinadi. Bunda talabalarning tegishli fan sohalari bo'yicha milliy va xorijiy tajriba, shuningdek, mavjud ilmiy-nazariy manbalar bilan tanishishi va ulardan foydalanishiga yaqindan ko'mak beradi. Iqtidorli talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi institut qoshida faoliyat yuritadi va ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor tomonidan faoliyat vazifasi tartibga solinadi.

Talabalar ilmiy-tadqiqot ishlari va faoliyatini tashkil etish va rivojlantirishdan ko'zlangan maqsad:

- Tegishli fan sohalari bo'yicha talabalarning bilimni oshirish;

- Institut talabalarining ijodiy qobiliyati va ijod erkinligini oshirish, shuningdek, ularda o'quv jarayoni va kelajakda amalga oshiradigan amaliy faoliyatida tashabbuskorlik hissini shakllantirish va rivojlantirish;

- Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish, ularning institut doirasida, respublika OTMlari va xalqaro miqyosida amalga oshiriladigan ilmiy seminarlar, konferensiyalar, davra suhbatlari, olimpiadalar, tanlovlarda ishtirok etishini ta'minlashni nazarda tutadi;

- Talabalarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish yo'li bilan o'z mutaxassisligiga bo'lgan ijodiy yondashuvini shakllantirish, bo'lajak mutaxassislarning shaxsiy professional xususiyatlarini shakllantirishga ko'maklashish;

- Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bosqichlariga qobiliyatli yoshlarni tanlash bo'yicha ishlarni tashkil etishda kutilgan sifat va samaraga erishishga ko'maklashish.

OTMda talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlari va faoliyatini tashkil etish tamoyillari:

-
- O'quv va ilmiy-tadqiqot jarayonlarining o'zaro bog'liqligi va uzviy olib borilishi;
 - Talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishda ham nazariy, ham amaliy ko'nikmalarning shakllantirilishi;
 - Talabalarining ilmiy-tadqiqot faoliyatining davomiyligi va uzluksizligi (bakalavr, magistr);
 - Talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatining o'quv dasturlari va o'quv jarayonlari bosqichlariga mos tarzda tashkil etilishi;
 - Ilmiy-tadqiqot faoliyatida qo'llaniladigan usul va shakllarni talabaning bilim darajasi (kursi)ga ko'ra murakkablashtirib borish.
 - Talabalarining Institut doirasida, respublika OTMlari va xalqaro miqyosida amalga oshiriladigan ilmiy seminarlar, ko'rgazmalar, konferensiyalar, davra suhbatlari, kongresslar, forumlarda ishtirok etishi;
 - Talabalar ilmiy-ijodiy nashrlari.

Talabalar ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish turlari:

- Ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalashtirish, tashkillashtirish va amalga oshirish metodologiyasini o'rganish;
- Institutning ilmiy faoliyat yo'nalishlari, ularning faoliyatini amalga oshirish prinsiplari, an'analari, yutuqlari bilan tanishish;
- Talabalar ilmiy to'garaklar, ilmiy-tadqiqotlar va boshqa ilmiy bo'linmalar faoliyatida ishtirok etish;
- Ilmiy yo'nalishlar bo'yicha tadqiqot mavzularini izlash va tanlash;
- Ilmiy jurnallarda maqolalar chop etish;
- Xorijiy ilmiy nashrlarda (Scopus ro'yxatidagi) maqolalar chop etish;
- Ilmiy risola va monografiyalar chop etish;
- Fan olimpiadalarda ishtirok etish.

Maqola va tezislar tuzish va chop etish. Maqola arab tilidan olingan, unda ijtimoiy hayot hodisalari chuqur tahlil qilinib, nazariy va ommaviy jihatdan umumlashtiriladi, davlat siyosati, iqtisodiyot, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar, ilg'or ish tajribalari ommalashtiriladi, xalq xo'jaligidagi nuqsonlar tanqid qilinadi. Matbuotda bosh maqola, nazariy va targ'ibot maqola, muammoli maqola keng qo'llanadi. Bosh maqola (yoki tahririyat tomonidan yoziladigan maqola) tahririyatning eng mas'uliyatli maqolasi bo'lib, unda ichki va xalqaro hayotga oid muhim masalalarni o'quvchilar ommasiga yetkazish vazifasi qo'yiladi. Bunday «Maqola» muayyan masala yuzasidan yo'l-yo'riq ko'rsatishi, mavjud kamchiliklarni ochib tashlashi, har bir ishning asosiy, haqiqiy yo'lini belgilab berishi lozim. Maqola Prezident farmonlari, Oliy Majlis qonunlari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadigan davlat va hukumat hujjatlari, qarorlari, qonunlari davrning dolzarb masalalari «bosh maqola»da ochib beriladi. Nazariy va targ'ibot maqolaning asosiy vazifasi uchinchi renesans, taraqqiyot strategiyasining asoslari va prinsiplarini, Ilmiy maqolaning vazifasi esa fan, madaniyat, texnika yutuqlarini tushuntirish, ommalashtirish, o'quvchining g'oyaviy, ilmiy saviyasini oshirishdan iborat. Muammoli maqola munozara va bahslashuv mazmunida bo'lib, unda biror masala yuzasidan muallif o'z qarashlarini o'rtaga tashlaydi. Maqolalar ilmiy yoki publitsistik uslubda, adabiy til me'yorlariga to'liq amal qilingan holatda yoziladi. Maqola yozishda maqolaning mavzusini belgilash va unga sarlavha tanlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Ilmiy maqolalar tushunchasi va tasnifi. Ilmiy maqola – olim tomonidan biron bir muammoni o'rganadigan, ma'lum bir ilmiy usulni qo'llagan holda olib boradigan tadqiqot. U ishning dolzarbligini, maqsad va vazifalarini tavsiflashi kerak. Olim masalani o'rganishda g'oyaga mualliflik huquqini ta'minlagan holda innovatsion vektor yaratadi.

Ilmiy maqola ilmiy tadqiqot natijalarining tavsifidir. Shu bilan birga, ilmiy faoliyatning maqsadlari har xil bo'lib, shunga ko'ra, ular ilmiy maqolalar turlari bilan ajralib turadi:

- *Ilmiy-nazariy maqolalar* – o'rganilayotgan hodisalarning qonuniyatlarini nazariy izlash va tushuntirishga bag'ishlangan. Nazariy maqolalar har qanday tadqiqot uchun asosdir. Ko'pincha, faqat nazariy fikrlash orqali asosiy qonunlar kashf qilinadi, keyinchalik ular tajribalar bilan tasdiqlanadi. Shunday sohalar borki, ularda faqat nazariy usullargina qiziqish obyektining mohiyatini ochib berishi mumkin;

- *Ilmiy va amaliy maqolalar* – ilmiy va haqiqiy tajribaga bag'ishlangan. Ular tajriba o'tkazish usullarini yoki kuzatilgan hodisalarni kuzatish va tuzatish vositalarini tavsiflaydi. Bunday maqolaning majburiy qismi to'g'ridan to'g'ri aloqa va tadqiqot obyektiga ta'sir qilish jarayonida olingan natijalarni taqdim etish va ularni tushuntirishdir;

- *Ilmiy-uslubiy maqolalar* – ilmiy yoki amaliy muammolarga erishish imkonini beruvchi jarayonlar, usullar, vositalarni ko'rib chiqishga bag'ishlangan. Ko'pincha yangi texnikani shakllantirishdan oldin to'liq ilmiy ish olib boriladi, uning natijalari yangi aniqlangan naqshlar asosida aniqroq texnikani yaratishga imkon beradi. Shuning uchun dissertatsiyalar ko'pincha metodologiyani (mexanizm, asboblar va boshqalar) ishlab chiqishga bag'ishlangan. Ilmiy natija ilmiy maqolalarni nashr qilish orqali qayd etilishi kerak.

2. Ilmiy maqolaning tuzilishi. Ilmiy maqola aniq tuzilishga ega va qoida tariqasida quyidagi qismlardan iborat: Sarlavha, Izoh, Kalit so'zlar, Kirish, Adabiyot manbalarini haqida umumiy ma'lumot, Adabiyot sharhi, Asosiy qism (metodologiya, natijalar), Xulosa va tadqiqotning keyingi istiqbollari.

Sarlavha – ishning asosiy matni (bo'lim, bob, paragraf, jadval va boshqalar) yoki nashrning tarkibiy qismini belgilash. Maqola sarlavhasiga qo'yiladigan asosiy talab – qisqalik va ravshanlik. Sarlavhaning maksimal uzunligi 10-12 ta so'z.

Sarlavha mazmunli, ifodali, maqola mazmunini aks ettirishi kerak. Sarlavha ma'lumot beruvchi, o'quvchi e'tiborini jalb qiluvchi bo'lishi kerak. Sarlavhada butun maqolada bo'lgani kabi nutqning ilmiy uslubiga qat'iy rioya qilish, u tadqiqotning asosiy mavzusini aniq aks ettirishi va maqolada ko'rib chiqilgan masalalar bo'yicha o'quvchini chalg'itmasligi kerak. Sarlavha maqolaning mohiyatini aks ettiruvchi ba'zi kalit so'zlarni o'z ichiga olishi lozim. Ularning sarlavha boshida turishlari ma'qul. Sarlavhada faqat umumiy qabul qilingan qisqartmalardan foydalanish mumkin. Maqola sarlavhasini ingliz tiliga tarjima qilishda rus tilidan transliteratsiyalardan foydalanilmasligi kerak, o'z nomiga ega bo'lgan o'ziga xos nomlar, qurilmalar va boshqa obyektlarning tarjima qilinmaydigan nomlari bundan mustasno, shuningdek, faqat rus tilida so'zlashuvchi mutaxassislariga ma'lum bo'lgan tarjima qilinmaydigan jargon ishlatilmaydi.

Annotatsiya maqoladan mustaqil ma'lumot manbai hisoblanadi. Maqolaning asosiy matni ustida ishlash tugagandan so'ng yoziladi. Unda asosiy mavzu, muammo, obyekt, ishning maqsadi va uning natijalari tavsifi mavjud. U mavzu va maqsad bilan bog'liq bo'lgan boshqa hujjatlar bilan solishtirganda ushbu hujjatda nima yangiligini ko'rsatadi. Tavsiya etilgan hajm rus va ingliz tillarida 100-250 so'zdan iborat. Annotatsiya maqolaning asosiy mazmunini, uning dolzarbligini aniqlash va nashrning to'liq matniga murojaat qilish to'g'risida qaror qabul qilish imkonini hamda maqola haqida ma'lumot beradi va agar maqola o'quvchi uchun ikkinchi darajali qiziqish uyg'otsa, uning to'liq matnini o'qish zaruratini yo'q qiladi. U axborotda, shu jumladan, avtomatlashtirilgan, hujjatlar va ma'lumotlarni qidirish tizimlarida qo'llaniladi. Annotatsiyalar xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlanishi va quyidagi fikrlarni o'z ichiga olishi kerak:

- Tadqiqot mavzusi bo'yicha kirish so'zlari;
- Ilmiy tadqiqotning maqsadi;
- Ishning ilmiy va amaliy ahamiyatini tavsiflash;

-
- Tadqiqot metodologiyasining tavsifi;
 - Tadqiqot ishining asosiy natijalari, xulosalari;
 - Tadqiqotning qiymati (bu ish tegishli bilim sohasiga qanday hissa qo'shgan).

Ish natijalarining amaliy ahamiyati. Annotatsiya maqola matnining o'zini (maqoladan jummalarni olib, ularni referatga o'tkazib bo'lmaydi), shuningdek, uning nomini ham takrorlamaslik kerak. Unda raqamlar, jadvallar, ichki izohlar bo'lmasligi, ishning muhim dalillari ko'rsatilishi va maqolaning o'zida bo'lmagan materiallar bo'lmasligi lozim. Ish natijalari juda to'g'ri va mazmunli tasvirlanadi. Asosiy nazariy va eksperimental natijalar, daliliy ma'lumotlar, kashf etilgan munosabatlar va qonuniyatlar keltiriladi. Shu bilan birga, yangi natijalar, muhim kashfiyotlar, mavjud nazariyalarni rad etuvchi xulosalar, shuningdek, amaliy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarga ustunlik beriladi. Xulosalarga maqolada tavsiflangan tavsiyalar, baholashlar, takliflar, farazlarni qo'shish mumkin. Muallif maqola nomidagi ma'lumotlarning qisqacha mazmunini matnda takrorlamasligi kerak. Referat matnida ilmiy-texnik hujjatlar tiliga xos sintaktik konstruksiyalardan foydalanish, murakkab grammatik konstruksiyalardan qochish kerak. U qisqa va tushunarli, keraksiz kirish so'zlari, umumiy formulalarsiz bo'lishi kerak.

Kalit so'zlar maqolaning asosiy semantik mazmunini ifodalaydi, o'quvchi uchun qo'llanma bo'lib xizmat qiladi va elektron ma'lumotlar bazalarida maqolalarni qidirish uchun ishlatiladi. Referatdan keyin rus va ingliz tillarida berilgan 4-8 so'z miqdorida joylashtiriladi. Fanni (maqola yoziladigan fan sohasini), mavzuni, maqsadini, o'rganish obyektini aks ettirishi kerak.

Kirish maqola mavzusiga kirishni ta'minlash, tadqiqot maqsadini tushuntirish uchun mo'ljallangan. Muqaddima yozishda muallif birinchi navbatda tadqiqotning umumiy mavzusini bayon qilishi kerak. Keyinchalik, ishning nazariy va

amaliy ahamiyatini ochib berish va ko'rib chiqilayotgan mavzu bo'yicha eng nufuzli va mavjud nashrlarni tavsiflash kerak. Muqaddimada muallif avvalgi tadqiqotlarda hal etilmagan, ushbu maqolada hal etish uchun mo'ljallangan muammolarni ham ko'rsatadi. *Kirish qismida* muallif tomonidan olib borilgan tadqiqotning maqsadi va obyekti *aniq shakllantirilishi shart*.. Asarda ma'lum bir fikr asosiy g'oya mazmunini ochib berishga bag'ishlangan bo'lishi kerak. Maqsadni shakllantirish uchun «Siz tadqiqot natijasida nimani yaratmoqchisiz?» degan savolga javob berish kerak. Bu natija yangi metodologiya, tasnif, algoritm, tuzilma, ma'lum texnologiyaning yangi versiyasi, uslubiy ishlanma bo'lishi mumkin. *Obyekt* – o'rganish, dolzarblik va yangilik materialidir. Mavzuning dolzarbligi uning hozirgi va ushbu vaziyatdagi ahamiyati darajasi. Bu ish natijalarining yetarlicha muhim ilmiy va amaliy muammolarni hal qilish uchun qo'llanilishi qobiliyatidir. *Yangilik* – bu ish natijasini boshqa mualliflar tomonidan olingan natijalardan, agar mavjud bo'lsa, dastlabki gipotezalardan ajratib turadigan narsa. Shuningdek, ishning ushbu qismida, agar kerak bo'lsa, o'quvchi maqolaning tuzilishi bilan tanishtiriladi.

Adabiyotlarni ko'rib chiqish tadqiqotning nazariy asosini tashkil etadi. Uning maqsadi ushbu mavzu bo'yicha mavjud ishlarni o'rganish va baholashdir. Faqat oldingi tadqiqotlarni sanab o'tish emas, balki ularni tanqidiy ko'rib chiqish, asosiy fikrlarni umumlashtirish afzalroqdir.

Asosiy qism:

Metodologiya. Ushbu bo'lim tadqiqotning ketma-ketligini tavsiflaydi va qo'llaniladigan usullarni tanlashni asoslaydi. U o'quvchiga ushbu tanlovning to'g'riligini, olingan natijalarning ishonchliligi va asosliligini baholashga imkon beradi. Ushbu bo'limda taqdim etilgan ma'lumotlarning maqsadi, taqdim etilgan usullar asosida tadqiqotni takrorlash uchun yetarli malakaga ega bo'lgan boshqa olimga imkon berishdan iborat.

Natijalar. Maqolaning ushbu qismida muallifning tahliliy, tizimlashtirilgan statistik materialni taqdim etilishi kerak. Tadqiqot natijalari yetarlicha batafsil tavsiflangan bo'lishi kerak, shunda o'quvchi uning bosqichlarini kuzatishi va muallif tomonidan chiqarilgan xulosalarning to'g'riligini baholashi mumkin. Hajmi bo'yicha bu qism ilmiy maqolada markaziy o'rinni egallaydi. Bu asosiy bo'lim bo'lib, uning maqsadi ma'lumotlarni tahlil qilish, umumlashtirish va tushuntirish yordamida ishchi gipoteza (faraz)ni isbotlashdir. Natijalar, agar kerak bo'lsa, rasmlar – jadvallar, grafiklar, manba materialini yoki yiqilgan shakldagi dalillarni aks ettiruvchi chizmalar bilan tasdiqlanadi. Tasvirlangan ma'lumotlar matnni takrorlamasligi muhim. Maqolada keltirilgan natijalarni muallifning ham, boshqa tadqiqotchilarning ham ushbu sohadagi oldingi ishlari bilan solishtirish maqsadga muvofiqdir. Bunday taqqoslash amalga oshirilgan ishning yangiligini qo'shimcha ravishda ochib beradi va unga obyektivlik beradi.

Xulosa tadqiqot natijalarining qisqacha bayonini o'z ichiga oladi. Unda siqilgan shaklda asarning asosiy qismidagi asosiy fikrlar takrorlanadi. Taqdim etilgan materialning har qanday takrorlanishini maqolaning asosiy qismida ifodalanganlardan farq qiladigan yangi iboralar, yangi formulalar bilan ifodalash yaxshiroqdir. Ushbu bo'limda olingan natijalarni ish boshida ko'rsatilgan maqsad bilan solishtirish kerak. Xulosa qilib, mavzuni tushunish natijalari umumlashtiriladi, ishdan kelib chiqadigan xulosalar, umumlashmalar va tavsiyalar chiqariladi, ularning amaliy ahamiyati ta'kidlanadi va ushbu yo'nalishdagi keyingi tadqiqotlarning asosiy yo'nalishlari belgilanadi. Maqolaning yakuniy qismida ko'rib chiqilgan masalalarning rivojlanishini bashorat qilishga urinishlarni kiritish maqsadga muvofiqdir.

Tezis (qadimgi yunoncha: *θέσις*, *thesis* – «qoida», «isbot») – 1) keng ma'noda, biror nazariyani bayon qilishda aytilgan har qanday fikr; tor ma'noda, asosiy fikr, prinsip; 2) mantiqda isbot

qilishni talab etuvchi fikr, mulohaza. Tezis – ilmiy maqola yoki konferensiyalar uchun taqdim qilinadigan ilmiy ma’ruzaning qisqa asosiy mazmuni aks ettirilgan ilmiy ish turi bolib, uning hajmi annotatsiyadan kattaroq, biroq ilmiy maqoladan kichik bo’ladi (taxminan 1 betdan 3-4 betgacha). Tezislar, odatda, nashr va konferensiya talablari asosida bir necha tillarda beriladi. Uni ilmiy asarga beriladigan tanqidiy baho, tanqidiy talqin aks etgan taqriz bilan chalkashtirmaslik kerak.

Tezisning tuzilishi:

1. Sarlavha. Sarlavha ishning maqsadiga mos keladi, undan nima haqida so’z yuritalayotganligi aniq bo’lishi kerak. Odatda ma’ruza nomi va konferensiya tezislari bir xil bo’ladi;

2. Muvofiqlik. Mavzuni ishlab chiqishdan maqsad haqida 2-3 jumla. Muhimlik ijtimoiy-siyosiy yoki kundalik nuqtayi nazardan emas, balki ilmiy nuqtayi nazardan ham kelib chiqadi. Boshqacha aytganda, tezislarning dolzarbligi fan taraqqiyotining hozirgi bosqichidagi dolzarbligi sanaladi. Tadqiqot ishining yangiligi hamda tadqiqot ishi tanlangan ilmiy sohani rivojlantirishga qanday yordam berishi haqida o’ylab ko’rishdan iborat.

3. Muammoning ilmiy rivojlanish darajasi. Mavzu uchun eng muhim tadqiqot ishlari haqida 3-4 ta jumla. Ular qanday foydali bo’lganini va muallifni qiziqtirgan ilmiy muammolarning rivojlanishini yozishi kerak;

4. Maqsad. Tadqiqotning maqsadi aniq ifodalanishi, ya’ni muallif nimani xohlayotganinini ko’rsatishi kerak. Maqsad ishning o’zida bo’lishi mumkin emas: o’rganish, o’ylash, o’qish – bu maqsad emas, balki ish jarayonining o’zidir. Ushbu tadqiqotning maqsadi biror narsaning mohiyatini aniqlash, ochish, tahlil qilish va hokazo bo’lishi mumkin;

5. Tadqiqotning manba (empirik) bazasi uchun foydalanilgan manbalarni tavsiflash uchun 2-3 jumla keltiriladi.

6. Asosiy qism – tezislar. Tezis – fikrning bir jumladagi qisqacha mazmuni. Tezislar odatdagi matndan kamroq

miqdordagi dalillar, tushuntirishlar, qo'shimchalar bilan farq qiladi, bularning barchasi, go'yo matnning orqasida qoladi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, dissertatsiya – bu har biri tadqiqot ishi davomida olingan, isbotlangan va tasdiqlangan bayonotlar to'plamidir, ammo tadqiqot jarayonining o'zi matnda aks ettirilmaydi, faqat natijalar qoladi. Agar tinglovchilardan birortasi tafsilotlarga qiziqsa, muallif taqdimotidan so'ng u o'z savollarini berishi mumkin bo'ladi. Xuddi shu sababga ko'ra, tezislarda odatda izoh qo'llanilmaydi, faqat oxirida bibliografik ro'yxat beriladi;

7. *Xulosa* – maqsadga javob. Xulosa – yaxshi tuzilgan tadqiqotning asosiy farqlovchi xususiyati. Xulosa mazmunli bo'lishi kerak («shunday qilib», «aytish mumkin» kabi kirish so'zlari va boshqa ahamiyatsiz bo'laklarsiz bajarishga harakat qilinishi talab etiladi), maqsadga muvofiq bo'lishi, aytilganlarni umumlashtirishi, lekin berilgan materialni takrorlamasligi kerak. Xulosa muallifning bir nechta fikrlarini, yuqorida aytilganlarning barchasini umumlashtiradi. U katta bo'lmasligi kerak, 5-7 qatorni tashkil etishi lozim.

8. *Adabiyotlar ro'yxati*. Tezisda foydalanilgan adabiyot alfavit yoki foydalanganlik ketma-ketligida keltiriladi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

Nazorat savollari:

1. Kategoriya nima?
2. Nazariy ma'lumotlarni egallash mazmuniga izoh bering.
3. Amaliy ko'nikmalarni hosil qilish mazmuniga izoh bering.
4. Nazariyaning rivojlanishi mazmunini izohlang.
5. Ta'lim yo'nalishida talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyati nimalardan iborat?
6. Fan olimpiadalari va ularning mazmuniga izoh bering.
7. Maqola va tezislarni tuzish va chop etish haqida ma'lumot bering.

1-topshiriq:

Mavzuga oid tushunchalarga ta'rif bering.

3. *Nazariya* – _____

4. *Konsepsiya* - _____

5. *Kategoriya* - _____

2-topshiriq:

Maqola va tezisning farqini keltiring!

Namuna:

Maqola	Tezis
Nazariy tahlil, amaliy natija	asosiy fikr, prinsip
olim tomonidan biron bir muammoni o'rganadigan, ma'lum bir ilmiy usulni qo'llagan holda olib boradigan tadqiqot	

14-MAVZU. TALABALARNING MA'NAVIIY-MA'RIFIY ISHLARI

Tayanch tushunchalar: ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, ma'naviy-ma'rifiy tanlovlarda ishtirok etish, iqtidorli talabalarni qo'llab quvvatlash

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmuni. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ong-u tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Yurtimizda huquqiy davlat, fuqarolik jamiyatini barpo etishda «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» degan hayotbaxsh g'oyaning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda.

Xususan, ma'naviy-ma'rifiy jarayonlarni tashkil etishda yaxlit tizimni takomillashtirish, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarni ma'naviy tahdidlardan himoya qilish borasida tashkiliy-amaliy va ilmiy-tadqiqot ishlarni takomillashtirish, ushbu yo'nalishda davlat tashkilotlari, fuqarolik jamiyati institutlari, ommaviy axborot vositalari hamda xususiy sektorning ijtimoiy hamkorligini yanada kuchaytirish talab etilmoqda.

Mavjud muammolarni hal etish, ma'naviy-ma'rifiy ishlarning samarasi va ta'sirchanligini oshirish, ko'lami va miqyosini yanada kengaytirish, mamlakat aholisi, avvalo, yoshlar qalbida amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorlik hissini kuchaytirish, sohadagi ishlarni muvofiqlashtirishning yagona tizimini yaratish maqsadida quyidagilar ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi:

- ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan «Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari» g'oyasini keng targ'ib etish orqali jamiyatda sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish;

- oila, ta'lim tashkilotlari va mahallalarda ma'naviy tarbiyaning uzviyligini ta'minlash;

- targ'ibot-tashviqot va tarbiya yo'nalishidagi ishlarni ilmiy asosda tashkil etish, soha bo'yicha ilmiy va uslubiy tadqiqotlar samaradorligini oshirish, ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga qaratilgan doimiy monitoring tizimini joriy qilish;

- el-yurt taqdiriga loqaydlik, mahalliychilik, urug'-aymoqchilik, korrupsiya, oilaviy qadriyatlarga bepisandlik va yoshlar tarbiyasiga mas'uliyatsizlik kabi illatlarga barham berishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- aholining Internet jahon axborot tarmog'idan foydalanish madaniyatini oshirish, g'oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish;

- madaniyat, adabiyot, kino, teatr, musiqa va san'atning barcha turlari, noshirlik-matbaa mahsulotlari, ommaviy axborot vositalarida ma'naviy-axloqiy mezonlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ustuvorligiga erishish;

- geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarni muntazam o'rganish, terrorizm, ekstremizm, aqidaparastlik, odam savdosi, narkobiznes va boshqa xatarli tahdidlarga qarshi samarali g'oyaviy kurash olib borish hamda bu borada xalqaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish.

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi. OTMdagi ma'naviy-ma'rifiy ishlarni bevosita yoshlar bilan ishlash bo'yicha prorektor tashkil etadi, muvofiqlashtiradi va nazorat qiladi. Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi institut jamoasi, ayniqsa, talaba-yoshlar o'rtasida milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan demokratik

tamoyillarni qaror toptirish orqali inson huquqlari va qadr-qimmatlarini ulug'lashga, jismonan sog'lom, aqlan yetuk, dunyoqarashi teran va mustaqil fikrlovchi barkamol yoshlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan uzoq muddatli, keng ko'lamli ma'naviy-axloqiy tarbiya dasturini amalga oshiradi.

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon, Qaror va Farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi buyruqlari hamda OTM ichki tartib-qoidasi va ushbu bo'lim Nizomiga binoan faoliyat ko'rsatadi.

Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limining asosiy maqsadi – talaba-yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash, ularning ma'naviy, estetik, axloqiy dunyoqarashini kengaytirish, tafakkurini turli xil yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish hamda mustaqil O'zbekistonning chinakam fidoiy, vatanparvar shaxsi sifatida tarbiyalashdan iborat.

Bo'limning vazifalari: Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy ishlarga bog'liq chora-tadbirlarni o'tkazish; Talaba-yoshlar orasida ma'naviy-axloqiy, estetik, siyosiy, huquqiy, olijanoblik fazilatlarini shakllantirish, turli mafkuraviy tahdidlarga qarshi kurashish imunitetini yanada kuchaytirish maqsadida turli soha mutaxassislari, davlat va jamoat tashkilotlari bilan hamkorlikda davra suhbatlari, uchrashuvlar, ma'naviy-ma'rifiy, madaniy tadbirlar tashkil etish; Milliy urf-odatlar, qadriyatlar asosida olib borilayotgan anjumanlar, uchrashuvlar tashkil qilish; Talabalarning ruhiy va jismoniy qobiliyatini shakllantirish maqsadida olib boriladigan ishlarni shakllantirishga ko'maklashish; OTMda ma'naviy-axloqiy tarbiya ishlarini belgilash, ularga zarur normativ hujjatlar ham tavsiyalar ishlab

chiqish; Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazining shahar, tuman bo'limlari hamda mamlakatimizda xizmat ko'rsatib kelayotgan fondlar, ijtimoiy tashkilotlar bilan birgalikda ma'naviy-axloqiy ishlarni shakllantirish.

Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiya ishning asosiy yo'nalishlari: talabalarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida, O'zbekiston Respublikasining haqiqiy fuqarolari etib shakllantirish; Vatan oldidagi fuqarolik va farzandlik vazifalarini sidqidildan bajarishga tayyorlash; talabalarda kasb hunarni mukammal egallash mas'uliyatni oshirish; talabaning shaxs sifatidagi, o'ziga xos individual fazilatlarni shakllantirish va takomillashtirish; talabalarni ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, o'qishga va kasbga bo'lgan hurmat va ijtimoiy mas'ullik hissini keng targ'ib qilish; talabalar ijtimoiy-siyosiy va huquqiy ongini rivojlantirish, ularda tanqidiy va tahliliy fikrlash ko'nikmalarni kengaytirish; talaba yoshlarga salbiy illatlar: adolatsizlik, ta'magirlik, mahalliychilikning salbiy oqibatlarini anglatish; talaba yoshlarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, ularning qiziqishlari asosida ilmiy-ijodiy faoliyatini tashkil etish; manzillashgan ma'naviy-axloqiy va tarbiyaviy ishlarni takomillashtirib borishdan iborat.

Xorij tajribasiga ko'ra, har bir talabaning o'qish davridagi ijtimoiy faolligi baholab boriladi va bu bitiruvchining portfoliosida ham o'z aksini topadi. Eng muhimi, bitiruvchining ijtimoiy faolligi aks etgan portfoliosi ish beruvchilar tomonidan ham inobatga olinadi va qadrlanadi. Ushbu masala bo'yicha ham kerakli huquqiy hujjatni qabul qilish zarurati mavjud.

Bugun har bir OTMda talabalarni erkin fikrlash, ijodkorligini namoyon qilish, dunyoqarashini mustaqil kengaytirishga xizmat qiladigan ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-ijodiy muhitni yaratish, xorijiy tajriba asosida tarbiyaning zamonaviy shakl va uslublarini amaliyotga joriy etish, sifat va samaradorlikka alohida urg'u bersakkina ko'zlangan maqsadlarga erishishimiz mumkin.

Ushbu masalalarning samarali yo'lga qo'yilishi pirovard natijada o'ta xavfli bo'lgan turli illatlar – «omnaviy madaniyat», OITS va giyohvandlik, odam savdosi, korrupsiya, missionerlik va prozelitizm, ekstremizm va terrorizm, jinoyatchilik va huquqbuzarlik, axloqsizlik, turli yot g'oyalar va axborot xurujlariga qarshi kurashish orqali yoshlar hayotini, taqdirini, kelajagini to'g'ri yo'lga burishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ma'naviyatning, ma'naviy tarbiyaning muhimligi ham, targ'ibotni zamonaviy shakl va uslublarda tashkil etishning zarurati ham, bugungi globallashuv sharoitidagi dolzarbligi ham aynan shu xavf-xatarlarning mavjudligi va unga qarshi kurash vositalarining ahamiyati yuqori ekani bilan belgilanadi.

Iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash. Iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash uchun birinchi o'rinda iqtidorli talabalarni ilmiy va kasbiy qiziqishlarini e'tiborga olgan holda aniqlash, tanlash maqsadida saralash (og'zaki imtihon, vaziyatli masalalar, test topshiriqlari), ularni maqsadli tayyorlashni tashkil etish talab etiladi. Keyingi o'rinda iqtidorli yoshlarni qidirish, saralash va ular bilan ishlash jarayonlarini boshqarish va ularga ko'maklashish, talaba va stajor-tadqiqotchi izlanuvchilar orasidan **O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Navoiy, Beruniy, Ulug'bek, Zulfiya** va boshqa nomdagi nufuzli stipendiya sovrindorlarini tayyorlash jarayonini boshqarish yetakchilik qiladi.

Ilmiy faoliyatga qiziqqan, mustaqil fikrga ega, qobiliyatli, iqtidorli talabalarni «**Ustoz-shogird**» tizimida salohiyatli professor-o'qituvchilarga birlashtiriladi. Iqtidorli talablarning faoliyatini talabalar ilmiy jamiyati faoliyati bilan hamkorlikda olib borishni tashkil qilish nazarga tutiladi. Bunday talabalar bilan individual, maqsadli ishlash tadbirlarini tashkil etish, ularni fanlar bo'yicha olimpiadalar, turli jamg'armalar (jumladan xorijiy) tanlovlarida qatnashishga tayyorlash o'quv jarayonining 1-bosqichidan boshlab amalga oshiriladi.

Iste'dodli va iqtidorli talabalarni aniqlash, ularni maqsadli tayyorlash hamda ilmiy to'garaklar va klublarga jalb etish, turli ilmiy tadbirlar, konferensiyalar, seminarlar, Respublika olimpiadalari va forumlarida talabalarning ishtirok etishlarini tashkil etish, dekanat bilan birgalikda ularni rag'batlantirish uchun tavsiyalar berib boriladi. Iqtidorli talabalarni tarbiyalash, olimpiada va tanlovlarda, shu jumladan, davlat grantlari tanlovida ishtirok etishga tayyorlash, talabalarning mustaqil ishlash shakl va uslublarini takomillashtirish bo'yicha oldindan belgilangan chora-tadbirlar asosida olib boriladi.

Ayniqsa, talabalar ilmiy-ijodiy faoliyatini tizimli asosda tashkil etish, iqtidorli talabalarni aniqlash va ularni ilmiy-tadqiqotlarga jalb etish, ilmiy-tadqiqot ishlarini individual va jamoa bo'lib bajarishga o'rgatish, ularning ilmiy-ijodiy faoliyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur tashkiliy, uslubiy va moddiy-texnikaviy shart-sharoitlarni yaratish yetakchi o'rin egallaydi. Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limi bilan birgalikda Iqtidorli yoshlarga o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqarish uchun sharoit yaratish hamda bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish maqsadida teatr studiyalari, turli xil to'garaklar tashkil etish, festivallar va ommaviy tadbirlar uyushtirib turiladi. Iqtidorli talabalarning intellektual salohiyatidan, ilmiy-tadqiqot faoliyatidan davriy ravishda xabardor bo'lib boriladi. Har bir kafedradagi iqtidorli talabalarga va to'garaklarga mas'ul xodimlarning olib borayotgan ishlari nazorat qilib boriladi, kafedrada iqtidorli talabalar uchun yaratilgan muhit va sharoitni o'rganib yanada takomillashtirish choralari ko'riladi.

Institutda har o'quv yili davovmida **«Eng yaxshi mustaqil ish»**, **«Eng yaxshi ijodiy yondashuv»**, **«Eng yaxshi innovatsion g'oya»**, **«Innovatsion ta'lim»**, **«Yil talabasi»** kabi loyihaviy tanlovlar nominatsiyalariga talabalarni jalb etish orqali talabalarda mustaqil ta'lim olishni rivojlantirish ko'zda tutiladi.

Bundan tashqari, ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi bilan hamkorlikda turli soha vakillarini jalb qilgan holda mahorat darslarini tashkil etish, iqtidorli talabalarning ilmiy maqola va tezislarini Respublika va xorijiy davlatlarning jurnallarida e'lon qildirilishiga ko'maklashish choralari ko'riladi. Matbuot kotibi bilan hamkorlikda Iqtidorli talablarning ilmiy izlanishlari hamda erishgan yutuqlari to'g'risida ommaviy axborot vositalarida chiqishlari tashkil etilib boriladi. Respublika va xorijiy olimlar tomonidan amalga oshirilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari bo'yicha ilmiy seminar, konferensiya va anjumanlar to'g'risida e'lon berib boriladi.

OTMda har o'quv yili davomida, mavsumiy Respublika miqyosidagi tanlovlarning OTM bosqichi o'tkaziladi. Buxgalteriya bilan hamkorlikda doimiy ilmiy izlanishda bo'lgan talabalarga motivasiya berish maqsadida moddiy rag'batlantirib turiladi. Yoshlarning turli sohalarda erishayotgan yutuqlarini keng targ'ib etish va ularning ongida barkamol shaxs idealini shakllantirish orqali zamonamiz qahramonlarini kamol toptirib boriladi. Bundan tashqari OTMda iqtidorli talabalar bilan doimiy fikr almashish, takliflarini qo'llab-quvvatlash ishlari amalga oshiriladi.

Ma'naviy-ma'rifiy tanlovlarga ishtirok etish. Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti va o'quv dasturlari, turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali talabalarda ma'naviy-axloqiy fazilat (kompetensiya)lari – Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlik, mas'uliyatlik, tolerantlik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik takomillashtiriladi.

Bunday tanlovlarni oylik, choraklik, mavsumiy va yillik kabi turlarga ajratish mumkin. Institut ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar rejasiga qarab fakultetlarda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari

tomonidan har oy kesimida tuzilgan yillik ish rejada kiritilgan tadbirlar orqali amalga oshiriladi.

Tadbirlar *fakultetlar, OTMLar, Respublika* miqyosida amalga oshiriladi. Har bir ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'zining nomi va shiori ostida bo'lib o'tadi. Tadbirlar besh muhim tashabbus: birinchi tashabbus yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarish; ikkinchi tashabbus yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport sohasida qobiliyatini namoyon qilishlari uchun zarur sharoitlar yaratish; uchinchi tashabbus aholi va yoshlar o'rtasida kompyuter texnologiyalari va internetdan samarali foydalanishni tashkil etish; to'rtinchi tashabbus yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish; beshinchi tashabbus xotin-qizlarni ish bilan ta'minlash masalalari doirasida amalga oshiriladi. Institutda sport o'yinlari, zakovat o'yinlari, turli ko'rik-tanlovlar ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar yetakchi o'rin egallaydi.

Ushbu tadbirlarda talabalarning ishtirokini ta'minlash birinchi o'rinda yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha dekan o'rinbosari, kafedra professor-o'qituvchilari va ayniqsa, tyutorlar zimmasida bo'lib, ular tadbirlar bo'lib o'tadigan muddat, mavzusi, maqsadi bilan o'z vaqtida axborot berib borishadi. Bundan tashqari talaba yo'shlarni jamoada ishlash, ijodiy qobiliyatini oshirish, mas'uliyat hissini oshirishga ko'maklashishadi. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda ishtiyoqi baland talabalar aniqlanadi va ularning faoliyati takomillashtirib boriladi. Bo'sh o'zlashtiruvchi, tadbirlarga ishtiyoqi past talabalar ham e'tibordan chetga qolmaslik choralari ko'riladi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar nafaqat o'qish jarayonida, balki o'qishdan tashqari tungi paytlarda – Talabalar turar joylarida ham tashkil qilinadi. Bundan tashqari, yoz oylarida ham oflayn, onlayn tarzda tadbirlar tashkil qilish mumkin. Eng asosiysi,

bunday tadbirlar talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, layoqati, iqtidorini takomillashtirish va bo'lajak o'qituvchi sifatidagi qobiliyatini takomillashtirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

Nazorat savollari:

1. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar mazmunini izohlang.
2. Ma'naviy-ma'rifiy tanlovlarga ishtirok etish yo'llari nimadan iborat?
3. Ma'naviy-ma'rifiy va tarbiya ishning asosiy yo'nalishlari nimalardan iborat?
4. Yoshlar bilan ishlash, ma'naviyat va ma'rifat bo'limining asosiy vazifalarini sanab o'ting.
5. Iqtidorli talabalarni qo'llab quvvatlash deganda nimani tushunasiz?

1-topshiriq:

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar haqida ma'lumot keltiring. Jadvalni to'ldiring.

Namuna:

Tadbirlar	Mavzusi
<i>Oylik</i>	«Yoshlar oyligi» doirasida «Bilim va tafakkurimiz – shu el uchun, shu yurt uchun!» shiori ostida «Zukko kitobxon» tanlovi
<i>Choraklik</i>	
<i>Mavsumiy</i>	
<i>Yillik</i>	

15-MAVZU. PEDAGOGNING KASBIY FAOLIYATI

Tayanch tushunchalar: pedagoglik kasbi, o'qituvchi haqida tushuncha va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar, kasbiy bilim va mahorat

Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbi. Bugungi kun talablarini hisobga olgan holda o'qituvchining shaxsiy sifatlari va kasbiy fazilatlarini quyidagicha belgilash mumkin:

shaxsiy sifatlari sifatida: yuksak ma'naviyatli, madaniyatli, ma'rifatparvar, insonparvar va bag'rikeng, uzluksiz ta'lim tizimini rivojlantirish uchun istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri qo'ya oladigan, jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo'sha oladigan.

Kasbiy fazilatlari sifatida esa ijodkor va ijtimoiy faollik, g'oyaviy va ma'naviy-axloqiy yetuklik, yuqori darajada ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik tayyorgarlik orqali yuksak kasbiy madaniyatga ega bo'lishi nazarda tutiladi.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunining 5-bob 44-moddasida Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi keltirilgan. Tegishli ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi bo'lgan va ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega shaxslar pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Magistraturani tamomlagan shaxslar va diplomli mutaxassislar o'z mutaxassisligi bo'yicha pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqiga ega. Agar qonunchilikda boshqacha qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, pedagogik oliy ma'lumotga ega bo'lmagan shaxslarga qayta tayyorlash kurslaridan o'tganidan keyin ta'lim tashkilotlarida (bundan oliy ta'lim tashkilotlari mustasno) pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi beriladi. Ishlab chiqarish ta'limi ustalari qayta tayyorlash kurslaridan o'tmasdan professional ta'lim tashkilotlarida pedagogik faoliyat bilan

shug'ullanishga haqli. Zarurat bo'lganda professional ta'lim tashkilotlari ishlab chiqarish ta'limi ustalarini, shuningdek, tegishli bilim hamda amaliy ko'nikmalarga ega bo'lgan, oliy ma'alumoti bo'lmagan boshqa mutaxassislarni amaliy va qo'shimcha mashg'ulotlarni olib borish uchun jalb etishi mumkin.

Pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari. Qonunining 5-bob 45-moddasida pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari keltirilgan. Pedagog xodimlarning maqomi jamiyat va davlat tomonidan tan olinadi. Pedagog xodimlar ijtimoiy qo'llab-quvvatlanadi, o'z kasbiy faoliyatini amalga oshirishi, ularning ijtimoiy maqomi va obro'sini oshirish uchun tashkiliy-huquqiy shart-sharoitlar yaratiladi, shuningdek, o'z huquq va qonuniy manfaatlarini amalga oshirish uchun kafolatlar beriladi. Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqlari, sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'si davlat himoyasi ostida bo'ladi. Ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining kasbiy faoliyatiga aralashishga, ta'lim oluvchilarning bilimlarini to'g'ri va xolis baholashga ta'sir ko'rsatishga, shuningdek, ushbu pedagog xodimlarning xizmat majburiyatlarini bajarishiga to'sqinlik qilishga yo'l qo'yilmaydi. Pedagog xodimlar quyidagi huquqlarga ega: o'z sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini himoya qilish; o'quv dasturlari doirasida mualliflik dasturlarini ishlab chiqish va joriy etish, o'qitish uslubiyotini ishlab chiqish, shuningdek, tegishli o'quv fanlari, kurslari, modullaridan foydalanish, ijodiy faollik ko'rsatish; zamonaviy pedagogik shakllarni, o'qitish va tarbiya vositalarini, usullarini erkin tanlash hamda ulardan foydalanish; kasbiy faoliyatini amalga oshirish uchun ularga zarur shart-sharoitlar yaratilishini talab qilish; o'quv, ilmiy va uslubiy yo'nalishlardagi axborot-resurs markazlarining xizmatlaridan bepul foydalanish; davlat ta'lim standartlarini, davlat ta'lim talablarini, malaka talablarini, o'quv rejalari va o'quv dasturlarini ishlab chiqishda ishtirok etish; ilmiy,

ilmiy-tadqiqot va ijodiy faoliyatni amalga oshirish, eksperimental faoliyatda ishtirok etish, innovatsiyalarni ishlab chiqish va joriy qilish; ta'lim tashkilotini boshqarishda, shuningdek ta'lim tashkilotining faoliyati bilan bog'liq masalalarni muhokama qilishda ishtirok etish; kasaba uyushmalari va nodavlat notijorat tashkilotlari a'zosi bo'lish, xodimlarining vakillari bo'lish, fuqarolik jamiyati boshqa institutlari faoliyatida qatnashish; o'z kasbiy huquqlarini va umumiy manfaatlarni ifoda etish hamda himoya qilish uchun pedagog xodimlarning jamoat birlashmalariga birlashish; o'z kasbiy faoliyatiga aralashuvdan himoyalani; davlat sog'liqni saqlash muassasalarida bepul tibbiy ko'rikdan o'tish (davlat ta'lim muassasalari va tashkilotlari uchun); ta'lim oluvchilarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ishtirok etish. Pedagog xodimlar qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin. Pedagog xodimlarni ularning lavozim majburiyatlari bilan bog'liq bo'lmagan har qanday boshqa ishga jalb qilish taqiqlanadi.

Pedagog xodimlarning majburiyatlari. Qonunining 5-bob 46-moddasida pedagog xodimlarning majburiyatlari haqida so'z yuritiladi. Pedagog xodimlar: ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining sha'ni, qadr-qimmati va ishchanlik obro'sini hurmat qilishi; o'quv mashg'ulotlarini sifatli o'tkazishi; axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan, o'qitish va tarbiyaning ilg'or hamda innovatsion shakllari va usullaridan foydalanishi; ta'lim oluvchilarning psixologik va o'ziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan shaxslarni o'qitish uchun shart-sharoitlar yaratilishiga e'tibor qaratishi; voyaga yetmagan ta'lim oluvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini ularning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari bilan hamkorlikda olib borishi; ta'lim tashkilotining ustaviga va (yoki) boshqa ta'lis hujjatlariga, ichki mehnat tartibi qoidalariga rioya etishi; o'z malakasini muntazam ravishda oshirib borishi, egallab

turgan lavozimiga muvofiqlik jihatidan davriy attestatsiyadan o'tishi; tibbiy ko'rikdan o'z vaqtida o'tishi shart. Pedagog xodimlarning zimmasida qonunchilikka, shuningdek, ta'lim oluvchi va ta'lim tashkiloti o'rtasida tuziladigan shartnomaga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin. Pedagog xodimlarga pedagogik faoliyatni amalga oshirishda axloq va etika normalariga zid harakatlar sodir etish taqiqlanadi. Pedagog xodimlarning kiyim-boshiga doir talablar ta'lim tashkilotlari tomonidan belgilanadi.

DTSda Kadrlar tayyorlash sifati va OTMlari faoliyatini baholash. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari professor-o'qituvchilari tarkibiga qo'yiladigan umumiy talablar.

Bakalavriat o'quv rejasi va o'quv dasturini amalga oshirishda o'qitilayotgan fan bo'yicha tayanch ma'lumotga, bilim, malaka va ko'nikmaga ega bo'lgan malakali o'qituvchilar (magistr yoki diplomli mutaxassislar), fan nomzodlari, falsafa doktori (PhD), dotsentlar, fan doktori (DSc), professorlar, ilmiy, pedagogik va ijodiy unvonlarga ega bo'lgan shaxslar, shuningdek, tajribaga ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis va amaliyotchilar jalb etilishi lozim.

Magistratura o'quv rejasi va o'quv dasturini amalga oshirishda o'qitilayotgan fan bo'yicha fan nomzodlari, falsafa doktori (PhD), dotsentlar, fan doktori (DSc) va professorlar, ilmiy, pedagogik va ijodiy unvonlarga (darajalarga) ega bo'lgan yuqori malakali mutaxassis va amaliyotchilar jalb etilishi lozim.

O'qituvchi haqida tushuncha va uning shaxsiga qo'yiladigan talablar. O'qituvchi **pedagog**, uzluksiz ta'lim tizimi xodimi bo'lib, **o'quvchi** va **talabalarni** o'qitish bilan shug'ullanadi. Boshqa nomlari: «ustoz», «domla», «muallim». O'qituvchi, muallim – turli yo'nalishdagi o'rta umumiy ta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollej va texnikumlarida o'quvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini amalga

oshiradigan mutaxassis. Oliy maktab o'qituvchilari «domla» deb yuritiladi, ular «professor-o'qituvchi» tarzida umumlashma nom bilan ham ataladi. Shuningdek, o'qituvchilarga nisbatan «muallim» yoki «pedagog» atamasi ham qo'llaniladi.

Shuni aytish kerakki, o'qituvchi alohida ijtimoiy hodisa bo'lib, jamiyat a'zolarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgani uchun ham uning shaxsiy sifatlari kasbiy fazilatlaridan muhimroq hisoblanadi. Chunki u jamiyatning buguni va ertangi qiyofasini shakllantiradi. Shuning uchun ham o'qituvchining professional jihatdangina yetuk bo'lishi kifoya qilmaydi. Uning ma'naviy olami o'quvchilarga singdirilishi ko'zda tutilgan ezgu insoniy sifatlarga to'yingan bo'lishi kerak. O'qituvchilar tayyorlanadigan o'quv yurtlarida ayni shu jihatga alohida e'tibor qaratiladi.

Hozirgi pedagogika fani o'qituvchining amaliyotchilik, tadqiqotchilik, tashkilotchilik, vositachilik, ijrochilik singari vazifalari borligini qayd etadi. Ana shu vazifalarni to'la uddalaydigan o'qituvchigina bugungi yosh avlodning barkamol shaxslar sifatida shakllanishiga ta'sir ko'rsata oladi. Istiqlol davri o'qituvchilarida ana shunday xususiyatlarni qaror toptirish mamlakat taraqqiyotini ta'minlash omilidir.

O'qituvchi shaxsiga qo'yilgan talablar. Bugungi kunda o'qituvchi zamonaviy metodik bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni egallashi lozim. Innovatsion ta'lim muhiti o'qituvchilardan quyidagi bilimlarni egallash va amaliyotga qo'llashni talab etmoqda:

- o'qitishda innovatsion taexnologiyalarni qo'llash yuzasidan amaliy faoliyat;
- o'qitishning moddiy-texnik bazasini mustahkamlashdagi amaliy faoliyati;
- o'qitishda kasbiy yo'naltirilganlikni amalga oshirishdagi faoliyati.

Ta'lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash yuzasidan o'qituvchining amaliy faoliyati quyidagi bosqichlar:

- innovatsion texnologiyalarning metodologik asoslarini o'zlashtirgan holda uni pedagogik amaliyotda qo'llash yo'llarini belgilash;

- innovatsion texnologiyalar talablari asosida ta'lim-tarbiya jarayonini loyihalash;

- o'qitishning barcha sinf va sinfdan tashqari shakllari, mustaqil ta'limning didaktik maqsadlarini e'tiborga olgan holda innovatsion texnologiyalarni tanlash va joriy etish;

- mazkur jarayondan olingan natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, talabalarning bilim, ko'nikma va malakalaridagi bo'shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashdan iborat.

Kasbiy bilim va mahorat. Kasbiy bilim ish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar. Ko'nikma esa bu vazifani hal qilish uchun harakatni bajarishga, zarur texnikalardan foydalanishga, ish muhitida harakat qilishga tayyorlik va qobiliyatdir. Malaka bo'lsa doimiy ko'nikma bo'lib, doimiy takrorlash natijasida avtomatlashtirilgan faoliyat. Kasbiy bilim kasbiy faoliyatda natijalarga erishish uchun xizmat vazifalarini sifatli bajarish uchun zarur bo'lgan nazariy ilmiy ma'lumotlar va bilimlar, shuningdek, muayyan faoliyat sohasidagi xabardorlikdir.

O'qituvchining kasbiy bilimi – pedagogik va psixologik jihatdan o'qituvchi mehnatining mohiyati, pedagogik faoliyat va muloqot xususiyatlari, o'qituvchining shaxsiyati, o'quvchilarning aqliy rivojlanishi, ularning yosh xususiyatlari va boshqalar haqida ma'lumotdir. O'qituvchi uning shaxsiy kasbiy rivojlanishi uchun kasbiy bilimlardan standartlarni tuzadi. Pedagogik mahorat – o'qituvchining pedagogik harakatlari (ta'sirlari). Boshqa ko'nikmalar singari, pedagogik mahorat ham yetarlicha

yuqori darajada bajariladigan harakatlardir. Pedagogik mahorat o'qituvchi faoliyatida «*texnika*»ni shakllantiradi.

«XXI asr kompetensiyalari» o'qituvchilar, biznes rahbarlari, akademiklar va davlat idoralari tomonidan 21-asr jamiyatida va ish joylarida muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar va qobiliyatlarni o'z ichiga oladi. Bu tez o'zgarib borayotgan raqamli jamiyatda muvaffaqiyatga tayyorgarlik ko'rish uchun talabalar uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarga e'tibor qaratuvchi o'sib borayotgan xalqaro harakatning bir qismidir. Ushbu ko'nikmalarning aksariyati analitik fikrlash, murakkab muammolarni hal qilish va jamoada ishlash kabi ko'nikmalarni egallashga asoslangan chuqurroq o'rganish bilan ham bog'liq. Bu ko'nikmalar an'anaviy akademik ko'nikmalardan farq qiladi, chunki ular asosan mazmunli bilimga asoslangan emas.

Shaxslarni kasbga tayyorlash ularga murakkab qobiliyatlar to'plamini berishni o'z ichiga oladi. Bu ko'nikmalar ularni kelajakka tayyorlaydi va oldindan aytib bo'lmaydigan vaziyatlarni yengishga yordam beradi. Quyida bo'lajak lavozimga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradigan 12 ta 21-asr kasbiy ko'nikmalar ro'yxati keltirilgan:

Ijodkorlik (Creativity). Bugungi kunda ko'plab ishlar ijodkorlikni talab qiladi. Rivojlanmoqchi bo'lgan har qanday tashkilot yoki sanoat odatda ijodiy mutaxassislarini qidiradi. Tashkilotlar o'zgaruvchan bozorlarga moslashishlari va boshqa narsalarni sinab ko'rish orqali yuzaga kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni yengishlari mumkin. Yangi g'oyalarni yaratish, istiqbollarni o'zgartirish va muammolarga noyob yechimlarni ishlab chiqish uchun ijodiy fikrlashdan foydalanish mumkin. Bu esa doimo rivojlanib borayotgan dunyoda rivojlanishga yordam beradi. Masalan, eskirgan ta'lim dasturini aniqlab olish va talablarga mos keladigan yangi texnologiyadan foydalanish yoki ishlab chiqish mumkin.

Tanqidiy fikrlash (Critical thinking). Tanqidiy fikrlash tegishli dalillar yordamida vaziyatni aniqlash va baholashga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash qobiliyatidan foydalanib, har qanday muammoni aniqlash va hal qilish uchun ma'lumot, dalillar, tushunchalarni filtrlash, tartibga solish mumkin. Malakali mutaxassislar odatda amaliy yechimlar va oqilona mulohazalar uchun tanqidiy fikrlashlari mumkin. Tanqidiy fikrlash qobiliyatlari vaziyatni obyektiv baholash, variantlarni aniqlab topish va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan oqibatlarini prognoz qilish imkonini beradi. Tashkilotlar, odatda, kelajakdagi muammolarni yuzaga kelishidan oldin ko'rish va rejalashtirish uchun yetarlicha faol bo'lgan mutaxassislarni qadrlashadi.

Hamkorlik (Collaboration). Hamkorlik – bu shaxsning roolidan qat'iy nazar, kasbida yuqori lavozimni egallashga yordam beradigan yana bir muhim mahorat. Hamkorlik yaxshi tinglovchi bo'lishni, muayyan maqsadga erishish uchun boshqalar bilan muloqot va hamkorlik («sherikchilik») qilishni o'z ichiga oladi. Tashkilotlar o'z sohalarida tajribali va yuqori bilimga ega bo'lgan shaxslarni ishga olishlari mumkin. Boshqalar bilan ishlash imkoniga ega bo'lish esa bu ularning tajribasidan foyda olish mumkinligini anglatadi. Hamkorlik ko'nikmalari shaxsni ko'p qirrali bo'lishga o'rgatadi va jamoasining umumiy ish faoliyatini yaxshilash va mahsuldorlikni oshirish uchun muhim imtiyozlar va tuzatishlar kiritadi.

Muloqot (Communication). Foydali muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish shaxs ijtimoiylashuvida maqsadlar, vazifalar va talablarni aniq taqdim etishda yordam beradi. Bu shaxsning jamoada juda ishonchli ma'lumot olayotganini va muammosiz ishlashini ko'rsatishi mumkin. Turli xil muloqot munosabatlari uchun to'g'ri odob-axloq qoidalarini bilish va foydalanishda malakali bo'lish ko'pincha juda foydali bo'lishi mumkin.

Axborot va media savodxonligi (Information and media literacy). Axborot savodxonligi bozorni tadqiq qilishda, hisobot

tayyorlashda yoki taqdimotni baholashda muhim ahamiyatga ega. Shaxsiy va professional hayotda to'g'ri va oqilona qarorlar qabul qilish uchun ishonchli va haqiqatga asoslangan aniq ma'lumotlarni tan olish muhimdir. Axborot savodxonligini o'zlashtirish axborotni qanday topish, uning aniqligini tahlil qilish va turli ssenariylarga moslashtirishni bilishni o'z ichiga oladi. Mediasavodxonlik ko'nikmalari sizga turli platformalardagi yangiliklar, empirik tadqiqotlar va boshqa ma'lumotlar uchun ishonchli manbalarni aniqlashda yordam beradi.

Texnologik savodxonlik (Technological literacy). 21-asrda kompyuterda ishlash qobiliyatlarining mustahkam poydevoriga ega bo'lish juda muhim. Bugungi kunda ish maydoni onlayn taqvimlardan tortib, buxgalteriya dasturlari, loyihalarni boshqarish vositalarigacha bo'lgan texnologiyalarga boy. Raqamli savodxonlikning asosiy ko'nikmalariga ega bo'lish, ishning yoki shaxsiy foydalanish uchun yangi turdagi texnologiyani tushunishni osonlashtirishi mumkin. Misol uchun, raqamli savodxonlik video qo'ng'iroqni tashkil qilish, hamkasblar bilan fikr almashish va samarali hamkorlik hamda muloqot qilishda yordam beradi.

Ijtimoiy ko'nikmalar (Social skills). Ijtimoiy ko'nikmalarni o'rganish boshqalar bilan ishlashni osonlashtirishi mumkin, chunki ular mehnat faoliyatida qanday qilib professional va e'tiborli bo'lishni ko'rsatadi. Agar inson kuchli ijtimoiy va shaxslararo ko'nikmalarga ega bo'lsa, odatda, yanada muvaffaqiyatli aloqa o'rnatishi, hamkasblar va bo'lajak mijozlar bilan mustahkam hamkorlikni o'rnatishi mumkin. Ushbu ko'nikmalarni qo'llash jamoaviy ish yoki yetakchilik kabi boshqa muhim ko'nikmalarni yaxshilashga yordam beradi. Odob, munosabat, xushmuomalalik va hamdardlik jamiyatda muhim rol o'ynaydi va tijoriy qarorlariga ta'sir qilishi mumkin.

Yetakchilik (Leadership). Yetakchilik qobiliyatlari tashabbus ko'rsatish, muammolarni, nizolarni hal qilish, o'z va jamoa a'zolarining harakatlari uchun javobgarlikni o'rganishni o'z ichiga olishi mumkin. Tashabbuskor, yetakchi va kuchli rahbarlar o'z hamkasblariga ish sifatini hamda samaradorlikni oshirishda yordam berishlari mumkin, shuning uchun ko'pchilik ish beruvchilar kuchli yetakchilik qobiliyatlarini hurmat qilishadi. Guruh loyihalari ustida ishlashda yoki yangi lavozimda birinchi marta ish boshlaganda yetakchilik qobiliyatni rivojlantirish, kelajakda yetakchilik lavozimiga tayyorlash va martabani oshirishga yordam berishi mumkin.

Moslashuvchanlik (Adaptability). Mehnat bozorida dinamik va ko'p qirrali mutaxassislar ko'p sabablarga ko'ra ish beruvchilar uchun qimmatlidir. Bunday shaxslar onlayn yoki oflayn, mustaqil ravishda va jamoa sifatida yaxshi ishlashi mumkin. Ular ko'rsatmalarni qabul qilishlari va berishlari, fikr-mulohazalarga teng darajada javob berishlari mumkin. Agar shaxs o'zgaruvchan ish muhiti va sanoat tuzilmalariga moslasha olsa, ish uchun kerakli nomzod va umuman kuchli professional bo'lishi mumkin. Moslashuvchanlik qobiliyati insonga yangi narsalarni o'rganishga, qo'shimcha mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga va tashkiliy o'zgarishlarga moslashishga tayyor ekanligini anglatadi.

Global xabardorlik (Global awareness). Globallashtirish davrida ko'plab korxonalar butun dunyo bo'ylab faoliyat yuritib, butun dunyodagi odamlar bilan bog'lanish yoki chet elda ishlash imkoniyatini beradi. Turli mamlakatlar va jamoalar, madaniy me'yorlar va ularning turmush tarzini o'rganish xalqaro jamoa a'zolarini ko'proq qadrlash va o'zgarishlarga moslashishga yordam beradi. Ushbu farqlarni tan olish va hurmat qilish sizga yanada samarali hamkorlik qilishga, professional tarmoqni kengaytirishga va yangi martaba istiqbollari topishga yordam beradi.

Qaror qabul qilish (Decision making). Har bir mutaxassis o'z tashkiloti uchun to'g'ri qaror qabul qila olishi muhimdir. Samarali qaror qabul qilish ko'nikmalari muammolarga to'g'ri yondashishga yordam beradi va eng kam xavf bilan konstruktiv yechimlarni taklif qiladi. Qaror qabul qilish – bu masalani hal qilishda turli strategiyalar o'rtasida qaror qabul qilishni o'z ichiga olgan muhim iste'dod.

Muammoni hal qilish (Problem solving). Ishga qabul qilish bo'yicha menejerlar ishdagi qiyin yoki oldindan aytib bo'lmaydigan vaziyatlarni mohirona boshqarish qobiliyatini tasvirlash uchun «muammoni hal qilish» qobiliyati atamasini tez-tez ishlatishi mumkin. Turli muammolarni baholay oladigan va tezkor yechimlarni taklif qila oladigan shaxslar odatda yuqori talabga ega. Bu mahorat kasbiy hayotingizning boshqa jabhalarida, masalan, tarmoqni qurish va kundalik qarorlar qabul qilishda ham foydalidir. Muammolarni samarali hal qilish, shuningdek, muayyan sohalar yoki rollarga tegishli texnik tajriba va mutaxassislikni o'z ichiga olishi mumkin. Muammoni hal qilish ko'nikmalariga ega bo'lish odatda, kuchli tahliliy, ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini anglatadi. Ko'pgina jahon mamlakatlarida bo'lajak o'qituvchi sifatida o'quv dasturining bir qismi sifatida 21-asr ko'nikmalarini o'rganishlari kerak bo'ladi.

Ushbu o'n ikkita ko'nikmalarning barchasini o'rgatish zarur bo'lsa-da, «4C» ko'pincha eng muhimi hisoblanadi. 21-asrning «4C» ko'nikmalari quyidagilardir: Tanqidiy fikrlash (*Critical thinking*); Ijodkorlik (*Creativity*); Hamkorlik (*Collaboration*); Muloqot (*Communication*).

Ushbu to'rt ko'nikma zamonaviy ta'limda bo'lajak o'qituvchiga ish joyida muvaffaqiyatga erishish uchun zarurdir.

Bilimlarni qanday ajratish, qanday axborot savodxon bo'lish, qanday mediasavodxon bo'lish va axborot kommunikatsiya texnologiyalari ko'nikmalarini qanday qo'llashni tushunish 21-asr mahoratining maqsadidir. Bu

narsalarni yaxshilash uchun «4C» deb nomlangan ko'nikmalardan foydalanish foydalidir. Bular tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish, ijodkorlik, hamkorlik va muloqot qobiliyatlari.

Tanqidiy fikrlash (Critical thinking). Tanqidiy fikrlash boshqa fazilatlar qatorida muammolarni hal qilish amaliyotidir. Bu talabalarga, ayniqsa, haqiqatni fikrdan ajratish haqida gap ketganda, tasdiqlarda haqiqatni aniqlashga yordam beradi. Tanqidiy fikrlash bilan talabalar shunchaki bir qator dalillar yoki raqamlarni o'rganmaydilar. Buning o'rniga, ular o'zlari uchun dalil va raqamlarni qanday topishni o'rganadilar.

Ijodkorlik (Creativity). Ijodkorlik – bu «qutidan tashqarida fikrlash» amaliyotidir. Bu talabalarga katta muammoni rejalashtirishdan puxta tashkil etishgacha bo'lgan ichki kuchli tomonlarini qamrab olishga imkon beradi. Talaba o'z ijodini o'rganar ekan, uni sog'lom va samarali tarzda ifoda etishni ham o'rganadi. Eng muhimi, ular o'z ijodini boshqalar bilan baham ko'rishga undaydilar.

Hamkorlik (Collaboration). Hamkorlik – bu umumiy maqsadga erishish uchun birgalikda faoliyat yuritish amaliyotidir. Deyarli har bir ish, kundalik hayotdagi oddiy voqea-hodisalar kim bilandir muloqot o'rnatib hamkorlik qilishni talab qiladi. Hamkorlikni mashq qilish talabalarga muammoni qanday hal qilishni, yechimlarni taklif qilishni va eng yaxshi harakat yo'nalishini tanlashni tushunishga yordam beradi. Boshqa odamlar har doim ham ular kabi g'oyalarga ega emasligini bilish ular uchun foydalidir.

Muloqot (Communication). Muloqot talabalarning o'z qarashlari va fikrlarini boshqalarga aniq ifodalashda ma'lumot almashish qobiliyatini anglatadi. Muloqot, shuningdek, hamkorlikda yordam berish uchun kuchli tinglash va baholash qobiliyatlarini talab qiladi. U og'zaki, yozma va multimedia xabarlarini o'z ichiga oladi.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshiriqlar

Nazorat savollari:

1. Demokratik jamiyatda pedagoglik kasbiga ta'rif bering.
2. Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqi nimalardan iborat?
3. Pedagog xodimlarning maqomi va ular faoliyatining kafolatlari nimalardan iborat?
4. Pedagog xodimlarning majburiyatlari nimalardan iborat?
5. O'qituvchi shaxsiga ta'rif bering.
6. O'qituvchi shaxsiga qo'yiladigan talablar nimalardan iborat?
7. Kasbiy bilim va mahorat haqida ma'alumot bering.

1-topshiriq:

Bo'lajak lavozimga tayyorgarlik ko'rishga yordam beradigan kasbiy ko'nikmalar ta'rifini keltiring.

Namuna:

No	Kasbiy ko'nikma	Ta'rif
1.	<i>Ijodkorlik (Creativity)</i>	Yangi g'oyalarni yaratish, istiqbollarni o'zgartirish va muammolarga noyob yechimlarni ishlab chiqish
2.	<i>Tanqidiy fikrlash (Critical thinking)</i>	
3.	<i>Hamkorlik (Collaboration)</i>	
4.	<i>Muloqot (Communication)</i>	
5.	<i>Axborot va media savodxonligi (Information and media literacy)</i>	
6.	<i>Texnologik savodxonlik (Technological literacy)</i>	

7.	<i>Ijtimoiy ko'nikmalar (Social skills)</i>	
8.	<i>Yetakchilik (Leadership)</i>	
9.	<i>Moslashuvchanlik (Adaptability)</i>	
10.	<i>Global xabardorlik (Global awareness)</i>	
11.	<i>Qaror qabul qilish (Decision making)</i>	
12.	<i>Muammoni hal qilish (Problem solving)</i>	

IZOHLI LUG'AT

Abstraksiya – lotincha «abstractio» – ajratish, mavhumlash – obyektning ma'lum xususiyatlaridan ularni tanlab, tahlil qilish uchun ajratish jarayoni. Bunda kuzatilgan obyekt o'zining ideallashtirilgan nazariy tasviri mavhum obyekt bilan almashtiriladi.

Akademik mobillik – OTM talabalarining muayyan vaqt mobaynida respublika hududidagi yoki chet eldagi boshqa bir OTMga o'qish maqsadida borishi.

Akademiya – grekcha «Ακαδημία», lotincha «Academia» – afsonaviy qahramon Akadem nomidan olingan. Akademiya ko'pgina ilmiy muassasa, jamoat tashkilotlari, o'quv yurtlarining nomi.

Amaliy malaka – bu takroriy takrorlash tufayli avtomatlashtirilgan aniq, xatosiz faoliyat.

Amaliy ko'nikma – nazariy va amaliy bilimlarni amaliyotda qo'llash, ya'ni bilimlarni malakaga aylantirishdir.

An'anaviy (bosma) o'quv adabiyotlari – ta'lim oluvchilarning yoshi va psixofiziologik xususiyatlari, o'quv materiallari va ma'alumotlar hajmi, shriftlar, qog'oz sifati, muqova turi va boshqa ko'rsatkichlarni hisobga olgan holda matbaa usulida tayyorlanib chop etilgan nashr;

Art pedagogika – pedagogika va san'atning uyg'unlashuviga asoslangan, ta'lim va inson kamoloti qonuniyatlarini san'at orqali o'rganuvchi pedagogika fanining sohasi.

Badiiy pedagogika – bu insonning estetik tarbiyasi haqidagi fan bo'lib, avlodlar o'rtasida ma'naviy va hissiy tajribani o'tkazishni, shuningdek, san'atning turli sohalarida badiiy ijod tajribasini o'rganishni o'z ichiga oladi.

Bibliografiya – yunoncha: *biblion* kitob va *grafin* – matbuot hamda yozuv asarlari haqida axborot tayyorlash va berish hamda

ularni ma'lum ijtimoiy maqsadlarda targ'ib qilish bilan shug'ullanadigan ilmiy va amaliy faoliyat sohasi.

Bitiruv oldi amaliyoti – ishlab chiqarishda (tegishli soha korxonasi, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'alumot to'plash va tizimlashtirishga qaratiladi.

Blended learning (Aralash ta'lim) – bu o'qituvchi rahbarligidagi ta'lim (yuzma-yuz) va onlayn ta'limni birlashtirgan ta'limiy yondashuv. Aralash ta'lim talabaning o'z-o'zini nazorat qilish elementlarini (ta'lim yo'nalishi, o'rganish vaqti, joyi va tezligi, shuningdek, o'quv tajribasini o'qituvchi bilan va onlayn integratsiya) o'z ichiga oladi.

Darslik – muayyan o'quv fanining mavzulari tizimli, chuqur va to'liq yoritilgan, tegishli fan mazmunini belgilangan hajmda mukammal o'zlashtirishga qaratilgan, mazmunan va shaklan ta'lim turlariga (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim (bakalavriyat, magistratura)) moslashtirilgan, o'quvchi va talabalarda fanga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishiga, ijodiy qobiliyatlarning rivojlanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tasdiqlanadigan asosiy o'quv nashridir.

Davlat ta'lim standartlari – davlat tomonidan ta'limning mazmuni va sifatiga nisbatan belgilanadigan talablar majmui. Davlat ta'lim standartlari umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional hamda oliy ta'lim mazmuni va sifatiga oid talablarni belgilaydi.

Davlat ta'lim talablari – maktabdan tashqari ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish mazmunini, ta'lim tuzilmasini va ta'limni amalga oshirish shartlarini, ta'lim oluvchilarning jismoniy, shaxsiy, intellektual, ilmiy va kasbga oid sifatlari to'g'risidagi normalarni belgilaydi.

Daydjest – ilmiy, ilmiy-uslubiy, o‘quv, davriy adabiyotlar, qonunlar, farmonlar, qarorlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar mazmunining qisqacha bayoni va sharhi keltiriladigan, sohalarga oid ma’lumotlar to‘plami sifatida foydalaniladigan nashr.

Didaktik tahlil – ta’lim turlari samaradorligi va uni belgilovchi qonunlar va qoidalarning darsda qanchalik to‘g‘ri hamda mukammal bajarilganini tahlil qilish demakdir.

Elektron o‘quv adabiyotlari – zamonaviy axborot texnologiyalari asosida ma’lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo‘lgan elektron majmua.

Evtagogik ta’lim – 1) yunoncha so‘zlardan tuzilgan: εὐρετικός (evretikos) kashf qilmoq, bilib olmoq, tan olmoq, εφευρετικός (efevretikos), εὐρεμα (evrema) «topmoq» ma’nosini bildiradi. 2) yunoncha ἄγω (ago) – «yetaklash» ga qaytadi. Evtagogika mualliflari tomonidan kattalar ta’limini tashkil etishda yangicha yondashuv asosida o‘z-o‘zini tarbiyalash to‘g‘risidagi ta’limot sifatida (ya’ni XXI asrda mustaqil ravishda qanday o‘rganish kerakligi haqidagi ta’limot) qaraydilar.

Fakultet – lotincha «fakultas» so‘zidan olingan bo‘lib, imkoniyat, qobiliyat degan ma’noni anglatadi. Fakultet oliy o‘quv yurtining o‘quv-ilmiy, ma’muriy-tashkiliy bo‘linmasi.

Fan – 1). dunyo haqidagi bilimlar tizimi, ijtimoiy ong shakllaridan biri. 2). Nazariy dalillar haqida bilimlarni amalga oshirish va hosil qilish uchun ilmiy va mantiqiy mezonlarga ega bo‘lgan usul. Ilmiy sohada rasmiy, tabiatshunoslik, ijtimoiy fanlar mavjud.

Ijtimoiy ish asoslari – bu odamlar va ijtimoiy guruhlariga qo‘llab-quvvatlash, himoya qilish, tuzatish va ijtimoiy rehabilitatsiya qilish orqali shaxsiy va ijtimoiy qiyinchiliklarni yengishda yordam berishga qaratilgan professional faoliyat. U yolg‘iz nafaqaxo‘rlar va nogironlarga yordamni ham,

shuningdek, qiynalgan bolali oilalar, uysizlar, giyohvandlar, ichkilikka berilganlar va ruhiy kasallarga yordamni ham o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy pedagogika – bu pedagogikaning shaxs tarbiyasi va shakllanishiga ijtimoiy muhitning ta'sirini o'rganadigan bo'limi; ijtimoiy muhitning o'ziga xos sharoitlarini hisobga olgan holda shaxsni tarbiyalashni optimallashtirish bo'yicha choratadbirlar tizimini ishlab chiquvchi pedagogika bo'limi.

Ilmiy maqola – olim tomonidan biron-bir muammoni o'rganadigan, ma'lum bir ilmiy usulni qo'llagan holda olib boradigan tadqiqot.

Ilmiy tahlil – berilayotgan bilimlarning ilmiy-nazariy jihatlarni, o'quvchi bajarayotgan mustaqil ishning esa maqsadga muvofiq yo'nalishi jihatidan to'g'riligini aniqlash demakdir.

Inklyuziv ta'lim – davlat siyosati bo'lib, nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishda uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga qo'shishni ifodalovchi ta'lim tizimi.

Gospital pedagogika – uzoq muddatli davolanishda bo'lgan va sog'lig'i sababli ta'lim muassasalariga bora olmaydigan bolalar uchun ta'limni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan pedagogika bo'limi.

Institut – lotincha «institutum» so'zidan olingan bo'lib, tartibot, muassasa degan ma'noni anglatadi. Institut turli ixtisoslashgan o'quv yurtlari (o'rta, oliy, malaka oshirish tizimi), ilmiy tadqiqot, loyihalash va boshqa muassasalarning nomi.

Iqtidorli bolalarni o'qitish texnologiyasi – talabalarda iqtidorli bolalarni samarali psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlashga hissa qo'shgan holda iqtidorli bolalar bilan o'zaro

munosabat madaniyati sohasida nazariy bilim, amaliy ko'nikmalarini shakllantirishni ta'minlaydi.

Ishlab chiqarish amaliyoti – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Kafedra – oliy o'quv yurtlarida bir yoki bir-biriga yaqin bir necha fanlardan o'quv, metodik (uslubiy) va ilmiy tadqiqot ishlarini olib boruvchi, shuningdek, ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlovchi, mutaxassislar malakasini oshiruvchi asosiy bo'lim.

Kategoriyalar – yunoncha kategoria – mulohaza, fikr; belgi (falsafada) – voqelikdagi hodisalar va bilishning muhim, umumiy xususiyat hamda munosabatlarini aks ettiruvchi eng umumiy va asosiy tushunchalar.

Kitob – 1). axborotlarni, g'oya, obraz va bilimlarni saqlash hamda tarqatish, ijtimoiy-siyosiy, ilmiy, estetik qarashlarni shakllantirish vositasi; bilimlar targ'iboti va tarbiya quroli; badiiy, ilmiy asar, ijtimoiy adabiyot. 2). Bilim, ma'naviyat va ma'rifat manbai bo'lib u insonni ulug'laydigan, unga ma'naviyat va ma'rifat asoslarini shakllantiradigan, uni komil qilib tarbiyalaydigan kuch, dunyoni tanitish manbai sifatida xizmat qiladi.

Klassifikator – oliy ma'alumotli kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatidir.

Komparativistik pedagogika: 1. Komparativistik pedagogika bilim sohasi va o'rganish predmeti sifatida (qiyosiy pedagogika tushunchasi, uning obykti, predmeti, vazifalari va funksiyalari, milliy ta'lim tizimi tushunchasi, qiyosiy pedagogikaning asosiy kategoriyalari). 2. Komparativistik pedagogikaning metodologik asoslari. (Komparativistik pedagogikada uslubiy yondashuvlar, Komparativistik

pedagogika usullari). 3. Komparativistik pedagogikaning bilim va fan sohasi sifatida rivojlanishining asosiy bosqichlari.

Konsepsiya – lotincha *conceptio* «tushunish tizimi» – o‘zaro bog‘langan va yagona tizimni tashkil etuvchi biror narsaga qarashlar majmui, har qanday hodisani tushunish, izohlashning ma‘lum bir usuli, ularni yoritishda asosiy nuqtayi nazar, yetakchi g‘oya, hodisalarga – dunyoda, tabiatda, jamiyatda qarashlar tizimi, yetakchi g‘oya, konstruktiv tamoyil – ilmiy, badiiy, texnik, siyosiy va boshqa faoliyat turlarida muammoni hal qilish usullari tizimi, har qanday hodisani tushunish, farqlash va izohlash, faqat unga xos bo‘lgan mulohazalar va xulosalarni yaratish usuli.

Kreativ pedagogika – ijodiy o‘rganish fani va san‘ati, talabalarni ijodiy o‘rganishga, o‘z-o‘zini yaratuvchisi va kelajagini yaratuvchisi bo‘lishga o‘rgatadigan pedagogika fanining bir turi.

Kredit – 1). ta‘lim olish natijalariga ko‘ra talaba tomonidan muayyan fan bo‘yicha o‘zlashtirilgan o‘quv yuklamasining o‘lchov birligi. Kreditlar qoidaga muvofiq butun, kasr sonlarda ifodalanishi mumkin. 2). talabaning me‘yoriy hujjat bilan belgilangan, odatda bir hafta davomida auditoriyada va mustaqil ravishda ta‘lim olishi uchun ajratilgan minimal vaqt o‘lchovidir.

Kredit to‘plash – ta‘lim elementlarini o‘zlashtirish va boshqa yutuqlarga erishish natijasida taqdim etiladigan kredit birliklarini to‘plash.

Kreditlarni berish – malaka yoki uning alohida qismlariga qo‘yilgan talablarga muvofiq erishilgan ta‘lim olish natijalariga ko‘ra talaba yoki boshqa ta‘lim oluvchilarga kreditlarni rasmiy taqdim etish jarayoni.

Kreditlarni ko‘chirish – talabalarning akademik mobilligini ta‘minlash maqsadida bir OTM ta‘lim dasturi bo‘yicha olingan kreditlarni boshqa OTMga ko‘chirish va tan olish.

Kredit-modul tizimi – bu ta‘limni tashkil etish jarayoni bo‘lib, o‘qitishning modul texnologiyalari jamlanmasi va kredit o‘lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi.

Loyiha (design) – baʼzi murakkab ishlanmalarni yaratish boʻyicha hujjatlar yigʻindisi. Loyiha (project) tushunchasi kengroq maʼnoda maʼlum natija (loyihaning beqiyos mahsuli)ga ega maqsadli faoliyatni tashkil etish uchun biror-bir tashkiliy shaklni belgilash uchun foydalaniladi.

Loyihaga asoslangan taʼlim (PBL – Project-based learning) – bu talabalarga yoʻnaltirilgan taʼlim boʻlib, unda talabalar real hayotdagi muammolarni faol oʻrganish orqali chuqurroq bilim olishlari uchun dinamik sinf yondashuvini oʻz ichiga oladi.

Loyihalashtirish – real natijaga olib keluvchi, qatʼiy tartibga solingan harakatlar izchilligini oʻz ichiga oluvchi muammoni oʻzgartiruvchi faoliyatni anglatadi.

Lugʻat – aniq bir tartibda joylashgan soʻzlar (yoki soʻz birikmasi va hokazo) toʻplami, ularning mazmuni, ishlatilishi, kelib chiqishi, boshqa tildagi tarjimasi toʻgʻrisida maʼlumot beruvchi yoki soʻzning tushunchasi, u bilan belgilanuvchi predmetlar haqida axborot beruvchi, taʼlim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

Maʼlumotlar toʻplami (banki) – foydalanishga qulay shaklda yaratiladigan, muayyan fanni yoki taʼlim yoʻnalishini oʻzlashtirish uchun zarur boʻlgan, isbot talab qilmaydigan maʼlumotlar, ilmiy koʻrsatkich va oʻlchamlar, turli belgi va raqamlardan, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ishlab chiqarish, texnika, madaniy va boshqa sohalardagi qisqa ilmiy, amaliy, maʼlumotlardan tashkil topadigan, taʼlim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

Maʼruza – lotincha «lectio» – «oʻqish» – oʻquv materialini, fanning har qanday masala, mavzu, boʻlim, mavzu, metodlarni tizimli, izchil taqdim etish.

Maʼruzalar kursi – fanning oʻquv dasturi boʻyicha maʼruzalar kursining nomi tegishli fan nomi bilan ataladigan,

undagi barcha mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritiladigan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratiladigan, foydalanilinish uchun asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ko'rsatiladigan, o'zini o'zi nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltiriladigan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

Ma'ruzalar to'plami – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha undagi ayrim mavzularning asosiy mazmuni qisqa yoritiladigan, birlamchi yangi bilimlarni olishga qaratiladigan, foydalanilinish uchun asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlari ko'rsatiladigan, o'zini o'zi nazorat qilishga oid savollar turkumi, mavzuga tegishli tayanch atama va iboralar keltiriladigan, ilmiy-tadqiqot izlanishlari asosida muntazam yangilanib turiladigan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr.

Malaka amaliyoti – olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash, amaliy ko'nikma hosil qilish, o'quv rejalari va o'quv dasturlarning ma'lum (yakuniy) qismidagi mavzu bo'yicha materiallar to'plashni nazarda tutuvchi o'quv jarayonining bir qismi.

Mashqlar (masalalar) to'plami – muayyan fanning mavzulari bo'yicha amaliy mashqlar, masalalar, shuningdek, ta'riflash, ifodalash, shakllantirish, hisoblash, ishlab chiqish bo'yicha misollar keltiriladigan, mavzularga oid me'yoriy, uslubiy, sonli va tayanch ma'alumotlar bilan to'ldiriladigan, o'quvchi va talabalarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

Metodik tahlil – o'qituvchining dars jarayonida qo'llagan usullarining maqsadga muvofiq ekanligi ta'limning turiga va o'ziga xos xususiyatlariga qarab belgilanadi.

Milliy tarbiya asoslari – ijtimoiy-tarixiy, qonuniy va obyektiv jarayon sifatida, O‘zbekistonda milliy tarbiya g‘oyasining tiklanishi va rivojlanishi, milliy tarbiya tizimini joriy qilinishining nazariy va amaliy yo‘nalishlari haqida, milliy qadriyatlar mazmuni, milliy va ommaviy madaniyat tushunchalariga oid bilim berish.

Mobillik dasturi – ikki yoki undan ortiq OTM o‘rtasida o‘zaro ta‘lim to‘g‘risidagi kelishuv asosida tashkil etilgan akademik mobillik dasturi.

Modul – bu bir nechta fan hamda kurslar o‘rganiladigan o‘quv rejasining bir qismi. U talabalarda ma‘lum bir bilim va ko‘nikma hosil qilish, tahliliy-mantiqiy mushohada yuritish salohiyatiga ega bo‘lishiga qaratilgan bir nechta fanlar (kurslar) majmui hisoblanadi.

Mustaqil ish – o‘qituvchining topshirig‘i va rahbarligida o‘quv vazifasini hal etadigan ta‘limning faol metodi. Mustaqil ish qo‘yilgan maqsad bilan bog‘liqlikda talabalarning aniq faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishdir. Talabaning mustaqil ishlari uning yuqori darajadagi faollik, ijodiylik, mustaqil tahlil, tashabbuskorlikka hamda barcha vazifalarni o‘z vaqtida va mukammal tarzda bajarishga asoslangan faoliyatidir.

Mustaqil ish – 1). o‘quvchi tomonidan o‘quv rejaning tarkibiy qismlari bo‘yicha kompetensiyalarni o‘zlashtirish, mustahkamlash va takomillashtirish maqsadida bajariladigan o‘quv jarayonining bir qismi. 2). O‘quv materialini mustaqil o‘zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo‘lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriya hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat.

Mutaxassis – 1). Biror sohada maxsus bilim va tajribaga ega bo‘lgan kishi, ixtisos egasi. 2). Mohir tashkilotchi, mehnatni ilmiy

asosda tashkil qilish masalasini amalga oshira oladigan xodim hisoblanadi.

Mutaxassislik – 1). 7-daraja (bosqich)ning o‘quv rejalar va fanlar dasturi bo‘yicha OTM bitiruvchisi tomonidan egallangan va beriladigan «magistr» akademik darajasi doirasida kasb faoliyatining muayyan turini bajarishni ta‘minlovchi muayyan mutaxassislik bo‘yicha bilimlar, o‘quvlar va ko‘nikmalar kompleksi. 2). O‘quv rejaga muvofiq o‘quv dasturini o‘zlashtirgandan keyin talabaga beriladigan oliy ta‘lim darajasi, undan so‘ng mutaxassisning malakasi (darajasi)dir.

Muzey pedagogikasi – muzeyni ta‘lim tizimi sifatida ko‘rib, muzeyshunoslik, pedagogika va psixologiya, muzeyni ta‘lim tizimi sifatida ko‘rib chiquvchi pedagogika sohasi.

Nazariya – yunoncha «θέζία» - «mulohaza, tadqiq» – dalillarni adekvat tushuntirish, jarayonlarni tahlil qilish, ularning rivojlanishini bashorat qilish va tartibga solish imkonini beruvchi qarashlar, mulohazalar, qoidalarning tartiblangan va asoslantirilgan tizimi, tadqiqot predmeti haqidagi bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirish hamda tushunchalar, kategoriyalar, mulohazalar va xulosalar shakllantiriladigan bilish darajasi.

Neyropedagogika – bu miyaning rivojlanishi, o‘rganish va o‘qitishning samarali usullari, o‘quv materialini o‘zlashtirish jarayonlarida miyani tashkil etish, o‘ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda o‘quv jarayonini qurishga qaratilgan amaliy fanlararo ilmiy sohadir.

O‘qish yuklamasi – talaba tomonidan o‘quv faoliyatining barcha turlari – ma‘ruza, amaliy mashg‘ulot, seminar, laboratoriya ishi, kurs loyihasi (ishi), amaliyot va mustaqil ishni amalga oshirish asosida kutilgan o‘quv natijalariga erishish uchun zarur bo‘lgan soatlar hajmi.

O'qitishning meyoriy muddati – ta'lim oluvchilar tomonidan o'quv rejalari va o'quv dasturlarini o'zlashtirilishi uchun belgilangan muddat.

O'quv (tanishuv) amaliyoti – iqtisodiyot tarmoqlari, tegishli tashkilot, muassasa va korxonalar bilan tanishtirish, tabiiy-ilmiy va umumkasbiy fanlar bo'yicha nazariy bilimlarini mustahkamlashga qaratiladi.

O'quv dasturi – ta'lim mazmunini belgilovchi o'quv fanining asosiy mavzulari, mazmuni, o'zlashtirilishining eng maqbul usullari, axborot manbalari ko'rsatilgan hujjat sanaladi.

O'quv fani – ta'lim jarayonida muayyan ta'lim yo'nalishi va mutaxassisliklar bo'yicha o'zlashtirilishi zarur bo'lgan tegishli ilmiy, ishlab chiqarish, iqtisodiy, ijtimoiy sohalardan saralab olingan bilim va ko'nikmalar tizimi.

O'quv jarayonining jadvali – ta'lim jarayonining ketma-ketligi va almashuvchanligini, attestatsiya va ta'til vaqtlarini belgilovchi hujjat.

O'quv loyihasi – bu o'rganilgan mavzu yoki bo'limni yanada chuqurroq o'rganishga yo'naltirilgan, ta'lim jarayoniga tajriba, faoliyat asosida yondashuvga imkon beruvchi, tadqiqoqchilik va izlanishga doir metodlardan foydalanishni talab etuvchi ta'limni tashkil etish shakli.

O'quv qo'llanma – darslikni qisman to'ldiruvchi, muayyan fan dasturi bo'yicha tuzilgan va mavzularni zaruriy hajmda tizimli yoritib beradigan, fan asoslarining mukammal o'zlashtirilishini ta'minlovchi, mazmunan va shaklan ta'lim turlariga (o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim (bakalavriat, magistratura)) moslashtirilgan, nazariy yoki amaliy mashg'ulotlarga mo'ljallangan, o'quvchi va talabalarda fanga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishiga xizmat qiladigan, rasmiy tasdiqlanadigan o'quv nashridir.

O'quv reja – oliy ta'limning muayyan bakalavriat ta'lim yo'nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo'yicha o'quv

faoliyati turlari, o'quv fanlari va kurslarining tarkibi, ularni o'rganishning izchilligi, soatlar va kreditlardagi hajmini ta'lim davrining to'liq muddati uchun belgilaydigan hujjat.

O'quv semestri – oliy ta'lim muassasasida o'quv yilining yarmini tashkil etuvchi o'zaro bog'langan fanlarning ma'lum majmuini o'zlashtirishga mo'ljallangan va ular bo'yicha yakuniy nazorat bilan tugallanadigan qismi. Ayrim hollarda o'quv semestri o'quv yilining uchdan bir qismini tashkil etishi mumkin.

O'quv yili – OTMda bir ta'lim kursini yakunlashga mo'ljallangan o'quv faoliyati davri. O'quv yili ikki kalendar yil bilan belgilanadi, masalan, 2021/2022 o'quv yili.

Oila pedagogikasi – bu oilada bolani tarbiyalash haqidagi fan bo'lib, bunday tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi va ota-onalar uchun bola bilan to'g'ri munosabatlarni o'rnatish bo'yicha ilmiy tavsiyalar ishlab chiqadi.

Oliy ma'alumot darajasi – shaxs tomonidan oliy ta'limning muayyan o'quv rejalari va o'quv dasturlarini mazkur ma'alumot haqida tegishli davlat hujjati berilgan holda o'zlashtirishi natijasi.

Oliy ma'alumot haqida davlat hujjati (diplom) – akkreditatsiyadan o'tgan OTMlari bitiruvchilariga beriladigan va ularning oliy ta'limning o'quv rejalari va o'quv dasturlarini bajarganliklarini tasdiqlovchi davlat namunasidagi hujjat. Hujjat uzluksiz ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki olingan akademik darajaga muvofiq ishlash huquqini beradi.

Oliy ta'lim muassasasi – belgilangan miqdordagi kreditlarni tan olishni hisobga olgan holda ta'lim va malaka to'g'risidagi hujjat beruvchi muassasa.

O'qituvchi, muallim – turli yo'nalishdagi o'rta umumiy ta'lim maktablari, akademik litsey, kasb-hunar maktablari, kollej va texnikumlarida o'quvchilar bilan ta'lim-tarbiya ishlarini amalga oshiradigan mutaxassis.

Pedagogik aksiologiya – bu pedagogik bilimlarning katta yoʻnalishi boʻlib, u taʼlim qadriyatlarini shaxsning ichki qiymatidan koʻrib chiqadi va taʼlimning oʻziga xos qiymatidan kelib chiqqan holda, umuman olganda, taʼlimga qiymatli yondashuvlarni amalga oshiradi.

Pedagogik amaliyot – kasb taʼlimi yoʻnalishlari uchun qoʻllaniladi va pedagogik mahoratini oshirishga qaratiladi.

Pedagogik innovatika – pedagogikaning taʼlim subyektlari bilan bogʻliq holda pedagogik yangiliklarning tabiati, paydo boʻlish va rivojlanish qonuniyatlarini oʻrganadigan, shuningdek, pedagogik anʼanalar va kelajakdagi taʼlimni loyihalash oʻrtasidagi bogʻliqlikni taʼminlovchi sohasi.

Pedagogik kompetentlik – oʻqituvchining muayyan qadriyatlar, ideallar va pedagogik ong tashuvchisi sifatida uning pedagogik faoliyati, pedagogik muloqoti va oʻqituvchi shaxsining shakllanishini belgilovchi zarur bilim, koʻnikma va koʻnikmalarga ega boʻlishi.

Pedagogik kvalimetriya – (lat. *qualis* - nima, qanday sifat va *metor* – oʻlchov) pedagogik innovatsiyalar va umuman pedagogik faoliyat sifatini miqdoriy baholash metodologiyasi va muammolarini oʻrganuvchi fan.

Pedagogik mahorat – kasbiy pedagogik faoliyatni oʻz-oʻzini tashkil etishning yuqori darajasini taʼminlaydigan shaxsiy xususiyatlar majmuasi.

Pedagogik ritorika – bu ritorikaning bir boʻlimi boʻlib, oʻqituvchining toʻgʻri, uygʻun, samarali nutq talaffuzi koʻnikmalarini shakllantirish va rivojlantirishni oʻrganish bilan shugʻullanadigan alohida ilmiy sohadir.

Pedagogik texnologiya – bu konseptual jihatdan bogʻliq boʻlgan taʼlim maqsadlarini, taʼlim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishning turli shakllari, vositalari, usullarini birlashtirgan metodlardan iborat murakkab tizimdir.

Pedagogik valeologiya – rivojlanishning turli yosh bosqichlarida salomatlik va sogʻlom turmush tarziga qatʼiy hayotiy munosabatda boʻlgan shaxsni tayyorlash va tarbiyalash masalalarini oʻrganadi.

Pedagogika nazariyasi – bu pedagogik jarayonlar, hodisalar haqidagi pedagogik gʻoyalar, qonuniyatlar, tamoyillar va tushunchalar koʻrinishida taqdim etilgan ilmiy bilimlar tizimi boʻlib, pedagogik jarayon va hodisalarning amal qilishi, rivojlanishi va oʻz-oʻzini rivojlanishini yaxlit tasvirlash, tushuntirish va bashorat qilish imkonini beradi.

Pedagogika tarixi – bu taʼlim amaliyoti va pedagogik bilimlarning tarixiy rivojlanishini ularning birligida, shuningdek, taʼlim va pedagogika fanining zamonaviy muammolari bilan bogʻliq holda oʻrganadigan fan sohasi.

Psixologik tahlil – darsning aniq maqsad va vazifalariga, darsning mazmuniga, darsda oʻquvchilar faoliyatining namoyon boʻlishi va uning boshqarilishiga, darsning oʻquvchi shaxsining umumiy rivojlanishiga taʼsiri, darsda oʻqituvchi shaxsi va faoliyatining tarbiyaviy taʼsiriga, darsning natijalariga psixologik baho berishdan iborat.

Qidiruv tizimi – inglizcha, search engine – kompyuterda, kompyuter tarmogʻida yoki butunjahon web tarmogʻi («World Wide Web»)da saqlanayotgan maʼlumotlarni qidirishga moʻljallangan dasturdir.

Qidiruv tizimi — maxsus Web-sahifa boʻlib, Internet tarmogʻidan kerakli axborotni izlab topish uchun xizmat qiladi.

Raqamli pedagogika – bu turli raqamli texnologiyalarni (kompyuterlar, gadjetlar, dasturiy taʼminot va boshqalar) oʻz ichiga olgan pedagogik jarayon boʻlib, natijada taʼlim xizmatlarining yuqori sifatini taʼminlaydi.

Roʻyxatga olish xizmati – taʼlim jarayonini boshqarish axborot tizimlari va dasturiy mahsulotlardan foydalanib professor-oʻqituvchilar, xodimlar va talabalar boʻyicha taʼlim

jarayoniga oid ma’alumatlar bazasini shakllantirishni, shuningdek, talabalarning barcha o’quv natijalarini ro’yxatga olish, bilimni nazorat qilish hamda ularning akademik reytingini hisoblashning barcha turlarini tashkil etishni nazarda tutuvchi xizmatlar.

Seminar – bu ta’lim beruvchini ta’lim oluvchilar bilan faol suhbatga kirishishiga yo’naltirilgan, nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda amalga oshirish uchun sharoitni ta’minlovchi, mashg’ulotni o’qitish shaklidir.

Seminar mashg’uloti – lotincha «seminarium» – «ko’chatxona» – o’qituvchi rahbarligida mavzu, ta’lim muammosi bo’yicha talabalar tomonidan guruh muhokamasi olib boriladigan o’quv jarayonining shakli.

Ta’lim dasturi – bakalavriat ta’lim yo’nalishi yoki magistratura mutaxassisligi bo’yicha o’quv jarayonini amalga oshirishga mo’ljallangan ta’limning asosiy xususiyatlari (hajmi, mazmuni, rejalashtirilgan natijalar), tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlar, fan dasturlariga quyilgan umumiy talablar, shuningdek, ta’limni tashkil etish va amalga oshirish uchun zarur bo’lgan axborot-resurs va o’quv-metodik ko’rsatmalar majmui.

Ta’lim dasturi katalogi – OTM tavsifi, kredit-modul tizimiga kirish, mavjud bakalavriat ta’lim yo’nalishlari va magistratura mutaxassisliklari, xizmatlar va resurslar, o’quv fanlari dasturlari, aniq ta’lim dasturlari elementlari tavsifi to’g’risidagi axborot.

Ta’lim elementlari – ta’lim dasturining bir qismi bo’lib, ta’lim olish natijalariga erishish va ta’lim dasturida ko’rsatilgan bilimlarni o’zlashtirishga ko’maklashuvchi o’qitish turi.

Ta’lim natijalari – talaba tomonidan o’zlashtirilgan va baho bilan tasdiqlangan malaka darajasini aks ettiradigan, ta’lim jarayonini muvaffaqiyatli tugallagach talaba o’zlashtirgan ko’nikmalar va ularni amalda bajarish qobiliyatining tavsifi.

Ta'lim tizimini boshqarish – (ingliz tilidan *management* – boshqaruv, tashkilot) – ta'limni professional boshqarish tamoyillari, vositalari, usullari tizimi.

Talabaning shaxsiy ta'lim trayektoriyasi – talaba tomonidan tanlangan hamda unga ketma-ketlikda bilimlar to'plash va xohlagan kompetensiyalar yig'indisiga ega bo'lish imkoniyatini beradigan yo'nalish (marshrut).

Ta'lim – bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi.

Tarbiya – shaxsda muayyan jismoniy, ruhiy, axloqiy, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy pedagogik jarayon; insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'riladigan chora-tadbirlar yig'indisi.

Tarbiya fanini o'qitish metodikasi – tarbiya fanini o'qitish metodikasining nazariy asoslariga oid bilimlar, metodik jihatdan pedagogik jarayonni samarali tashkil etishga oid amaliy ma'alumotlar majmui.

Tarbiyada kouch trening – bu guruh birlashmasi doirasida amalga oshiriladigan talaba rivojlanishining individual dasturi bo'lib, o'zlashtirish natijasi eng maqbul va eng qisqa yo'l bilan ko'zlangan maqsadlarga erishish qobiliyatini amalga oshirishdir.

Tarbiyaviy faoliyat diagnostikasi va korreksiyasi – o'quvchilarni ijtimoiy fazilatlarni shakllantirishda tarbiyaviy diagnostika va korreksiya qilishning nazariy asoslari, ijtimoiy faoliyat jarayonida sodir bo'ladigan o'zgarishlarida tarbiyaviy korreksiyalash metodlariga oid amaliy ma'alumotlar majmui.

Tarbiyaviy ish texnologiyalari – kelajak avlodni ma'naviy yuksak fazilatlar egasi qilib tarbiyalashda innovatsion tarbiya texnologiyalari qonuniyatlarini, jahon tarbiya konsepsiyalari namunalarining qiyosiy tahlilini, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarning mazmuni va mohiyati haqidagi fan.

Tarbiyaviy ishlarni boshqarish – tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish va boshqarish faoliyatiga sifatli tayyorlaydigan fan sohasi.

Tezis – qadimgi yunoncha: *θέσις*, *thesis* – «qoida», «isbot» – 1) keng maʼnoda, biror nazariyani bayon qilishda aytilgan har qanday fikr; tor maʼnoda, asosiy fikr, prinsip; 2) mantiqda isbot qilishni talab etuvchi fikr, mulohaza.

Transkript – taʼlim olishning tegishli davrida oʻzlashtirilgan kreditlar va baholarning harf va raqamlardagi ifodasi koʻrsatib oʻtilgan fanlar roʻyxatini oʻz ichiga olgan belgilangan shakldagi hujjat.

Tushuncha – bu shunday bir fikrki, unda narsaning takrorlanuvchi xossalari, aloqalari va tomonlari aks etadi.

Tushuntirish kuchi – nazariyaning oʻz obyektini toʻliq va aniq tasvirlash qobiliyati.

Umumiy pedagogik tahlil – darsdagi hamma jihatlarining qisqa va yengil koʻrinishidagi tahlildir.

Universitet – lotincha «universitas» – yigʻindi, majmua degan maʼnoni anglatadi u esa oʻz navbatida lotincha «universitas magistrorum et scholarium» - «oʻqituvchilar va olimlar jamoati» iborasidan kelib chiqqan.

Uslubiy koʻrsatma – muayyan fanning oʻquv dasturi boʻyicha kurs ishlari (loyihalari), laboratoriya va amaliy ishlarni, shuningdek, bitiruvchilarning bitiruv malakaviy ishlari, magistrlik dissertatsiyalarini bajarish tartibi aniq va batafsil ifodalangan hamda ushbu fan boʻyicha bilim oluvchilarda zarur amaliy koʻnikmalar hosil qilishga moʻljallangan, taʼlim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr.

Uslubiy qoʻllanma – professor-oʻqituvchilar va bilim oluvchilar uchun moʻljallangan boʻlib, unda bir darsning maqsadi, dars oʻtish vositalari va ulardan foydalanish usullari, darsning mazmuni, amaliy mashgʻulotlar, qoʻshimcha

topshiriqlar va boshqalar haqida tavsiyalar bayon qilinadigan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan nashr.

Uslubiy tavsiyanoma – muayyan fanning o'quv dasturi bo'yicha mavzularning asosiy mazmunini yoki ayrim murakkab mavzular va masalalarni o'zlashtirish, nazariy va amaliy vazifalar, topshiriqlarni bajarish bo'yicha uslubiy yordam ko'rsatish va pedagogik tavsiya berishga qaratilgan yordamchi o'quv adabiyoti hisoblanadigan, ta'lim muassasalarining kengashi (pedagogika kengashi) tavsiyasi asosida chop etiladigan kichik adadli nashr.

Xalq pedagogikasi – ko'pchilikning tarixiy va ijtimoiy tajribasi mahsuli sifatida avloddan avlodga, asosan, og'zaki tarzda o'tkaziladigan, amaliyotda to'plangan va sinovdan o'tgan empirik bilim, ko'nikma va malakalar majmuidir.

Yo'nalish – 6-daraja (bosqich)ning o'quv reja va fan dasturlari bo'yicha OTM bitiruvchisi tomonidan egallangan va beriladigan «bakalavr» akademik darajasi doirasida kasb faoliyatining muayyan turini bajarishni ta'minlovchi bazaviy va fundamental bilimlar, o'quvlar va ko'nikmalar kompleksi;

Yunogogika – yosh shaxsning ijtimoiy rivojlanishini pedagogik ta'minlashni o'rganadigan, yoshlarga pedagogik ta'sir ko'rsatishning pedagogik texnologiyalari va usullarini ishlab chiqadigan pedagogikaning sohasi hisoblanadi.

Gulchehra Izbullayeva

MUTAXASSISLIKKA KIRISH

1-qism

DARSLIK

Texnik muharrir:

G.Samiyeva

Musahhih:

M.Raximov

Sahifalovchi:

M.Arslonov



Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original – maketdan bosishga ruxsat etildi: 04.09.2023. Bichimi 60x84. Kegli 16 shponli. «Palatino Linotype» garn. Ofset bosma usulida. Ofset bosma qog‘ozi. Bosma tabog‘i 15 Adadi 50. Buyurtma № 197.



«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar O‘zbekiston Mustaqilligi ko‘chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46
